O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

“IQTISODIYOT” KAFEDRASI

“MILLIY IQTISODIYOT” FANIDAN

Ma’ruzalar matni

BILIM SOHASI: 200000- IJTIMOIY SOHA, IQTISOD VA HUQUQ

TA’LIM SOHASI: 230000- IQTISOD

TA’LIM YO’NALIShI: 5320100 (IQTISODIYOT: TARMOQLAR VA SOHALAR BO’YICHA)

GULISTON -2021

Ma’ruzalar matni Guliston davlat universiteti o’quv-uslubiy kengashining 2021 yil “____” ___ № __ - sonli qaroriga muvofiq o’quv jarayoniga tatbiq etish uchun tavsiya etilgan.

Tuzuvchi:

GULDU, “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o’qituvchisi
M.Q.Allayarova

Taqrizchilar:

GULDU, “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti
O.T.Sattorqulov
GULDU, “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o’qituvchisi
– M.X. Nurmuxamidova

KIRISH

O’zbekiston Respublikasi innovatsion iqtisodiyotga o’tish sharoitida mamlakatda tub o’zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ularning natijalari iqtisodiyotimizda sifat o’zgarishlarga olib kelmoqda.

Fanning maqsadi: mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlarini amalga oshirish. O’zgarib borayotgan bozor munosabatlarini takomillashtirish, bozor infratuzilmasini institutlari faoliyatini rag’batlantirish, raqamli iqtisodiyotga o’tish, erkin tadbirkorlikni rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb etishni ko’paytirishdan iboratdir.

Endilikda milliy iqtisodiyotimizning turli yo’nalishlari, uch tarkibiy qismlarini jahon bozori bilan qiyosiy o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi. O’zbekiston milliy iqtisodiyoti - jami sohalar, assotsiatsiyalar, korxonalar, tashkilotlarning yig’indisi bo’lib, ular iqtisodiy tizimga umumiy qonunlar va rivojlanish maqsadlariga asoslangan holda birlashgan.

Milliy iqtisodiyot bozor iqtisodiyoti munosabatlarini o’rganuvchi barcha aniq fanlar nazariyasiga va uslubiga tayanadi.

Fanning vazifalari: milliy iqtisodiyot, iqtisodiyot rivojlanishining makro ko’rsatkichlari, iqtisodiyot tarmoqlarining o’ziga xos xususiyatlari va ularni tartibga solish, mehnat bozori va uni tartibga solish, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishi, iqtisodiyotni boshqarishda moliya kredit dastaklari, milliy iqtisodiyot rivojlanishining makroiqtisodiy dasturlarni tuzish, bozor infratuzilmasini takomillashtirish yo’nalishlari va jahon iqtisodiyotiga integratsion yo’nalishini yoritish.

1-mavzu: Milliy iqtisodiyot va uni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar

Reja:

1. Milliy iqtisodiyot tushunchasi va mazmuni.
2. Milliy iqtisodiyot va uni amal qilishini ta'minlovchi omillar.
3. Milliy iqtisodiyotning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari.

Tayanch so'z va iboralar: milliy hamjamiyatlar, millat, sof milliy mahsulot, milliy daromad, shaxsiy daromad, yalpi milliy mahsulot, sof milliy mahsulot, shaxsiy ixtiyordagi daromad.

1-savol bayoni: Yangi O'zbekistonning tashkil etilganligiga qisqa vaqt bo'lganligiga qaramasdan uning deyarli barcha xalqaro tashkilotlar va institutlarga teng huquqli a'zo bo'ldi. Ammo shu vaqt ichida Respublikamizning o'ziga xos xususiyatlarini qamrab olgan iqtisodiy siyosat shakllanib, istiqbol yo'nalishlar belgilandi.

Endilikda milliy iqtisodiyotimizning turli yo'nalishlari, uning tarkibiy qismlarini jahon bozori bilan qiyosiy o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston milliy iqtisodiyoti-jami sohalar, assotsiatsiyalar, korxonalar, tashkilotlarning yig'indisi bo'lib, bunda ular yagona iqtisodiy tizimga, umumiy qonunlarga va rivojlanish maqsadlarga asoslangan holda birlashgan.

O'zbekiston Respublikasining xalq xo'jaligi yaqin o'tmishda umumittifoq xalq xo'jaligi majmuining tashkiliy qismiga kirardi. Shu bilan birga ittifoqdagi mehnat taqsimotida asosan xom ashyoni etkazib beruvchi mavqeini egallardi.

Bunday sharoitlarda xalq xo'jaligini «milliy iqtisodiyot» tushunchasi bilan tenglashtirish huquqiga ega emas edik. Endilikda O'zbekistonda siyosiy va davlat mustaqilligi kamol topishi bilan birga uning milliy iqtisodiyoti shakllana boshladi. Lekin milliy iqtisodiyot bozor iqtisodiyoti munosabatlarini o'rganuvchi barcha aniq fanlar nazariyasiga, uslubiga tayanadi. Iqtisodiyotni samarali tartibga solish bilan uning shakllanishiga qulay iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy vaziyat yaratiladi. Jahondagi barcha rivojlangan mamlakatlarda milliy iqtisodiyotning o'ziga xos boshqarish modellari mavjud. Uni yaratishda har bir mamlakat o'zining barcha xususiyatlarini hisobga olgan. Albatta, bu o'rinda har bir mamlakatning geografik joylashishi, iqtisodiy va tabiiy resurslari, iqlimi, va qolaversa, demografik tuzilishi inobatga olingan. Bu o'rinda ko'p tilga olinayotgan Janubiy Koreya, Shvetsiya, Turkiya modellarini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Shu bilan birga iqtisodiyotning umumiy nazariyasi mavjud bo'lib, uni chuqur bilmay turib, O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirib bo'lmaydi. Shuning uchun milliy iqtisodiyotda bozor sharoitiga mos infratuzilmaviy takomillashuv, samarali bozor tuzilmasining shakllanib borish jarayoni bilan mos ravishda yangi bozor iqtisodiyoti institutlari yaratilib boriladi. Unda respublika milliy iqtisodiyotini tartibga solish, istiqbolini aniqlash va O'zbekiston Respublikasining manfaatini xalqaro ko'lamda himoya qilish vazifalari bajariladi.

Milliy iqtisodiyot fani mamlakat milliy-iqtisodiy shakllanish jarayonlarini, uning xalq xo'jaligi kompleksi bilan bir butunlikda o'rganadi.

Milliy iqtisodiyot kursining predmeti-bu xalq xo'jaligini yagona bir sistema sifatida o'rganilishi tushuniladi. Uning vazifalaridan biri mamlakat iqtisodiyoti tarkibiga kiruvchi tarmoqlar, sohalar va komplekslarning o'ziga xos xususiyatlarini va ular o'rtasidagi aloqalarni o'rganishdan iborat. Xalq xo'jaligining har bir tarmog'ini rivojlanishi, tartibga solinishi va ularning o'zaro aloqasini o'rganish ana shular jumlasiga kiradi.

Bozor iqtisodiyotining shakllanish jarayoni esa milliy iqtisodietning o'rganish ob'ekti hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyot respublika iqtisodiyotini isloh qilish asosiga qo'yilgan printsiplarni o'rganadi. Kursning navbatdagi vazifalaridan biri respublikaning bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq bo'lgan qo'yidagi o'zgarishlarni xam o'rganadi:

1. Boshqarishni eski tizimini qayta qurish va boshqarish tizimining yangi shakllarini yaratish jarayonlarini;
2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullari, vositalari va yo'llarini o'rganadi;
3. Respublikani rivojlangan davlatlar qatoriga bosqichma-bosqich ko'tarilishi jarayonlarini o'rganadi.

Milliy iqtisodiyotda ro'y berayotgan jarayonlarni baholashda, albatta, makroiqtisodiy tomonidan yondashiladi. Demak, butun mamlakat miqyosida ro'y berayotgan o'zgarishlar kuzatiladi va tahlil qilinadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biri iqtisodiyotda jami ishlab chiqarish natijalarini hisoblab borishdir. Buning uchun milliy hisob-kitoblar tizimi borasida kerak bo'ladigan ba'zi muammolarni hal qilish lozim bo'ladi. Bir butun iqtisodiyot uchun ijtimoiy hisob-kitoblarning zaruriyati ana shunga misol bo'la oladi.

Milliy iqtisodiyotni jarayonlarini baholashda makroiqtisodiy yondashuvda uni barqarorlashtirish, milliy valyutamizni mustahkamlash, kapital qurilish dasturi, iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan yangilash yo'lini davom ettirish rejasini yangilash, qonunchilik yoki huquqiy tartibni mustahkamlashdan iboratdir.

Respublikamizda iqtisodiyotning asosini tashkil etuvchi ishlab chiqarish sohasiga alohida e'tibor berilmoqda. Ushbu sohaning eng asosiy tarmog'i sanoatning an'anaviy rivojlangan turlari-qishloq xo'jalik mashinasozligi, kimyo sanoati kabilar bilan bir qatorda mutlaqo yangi sanoat sohalarini tashkil etish zarur. O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Uning asosiy bo'g'ini bo'lgan paxtachilik eng rentabellidir. Shu sababdan, paxtachilikni rivojlantirish, uning tarmoq infrastrukturasidagi hajmini va salmog'ini aniqlash, shuningdek tola sifatini tubdan yaxshilab, dunyo standartlari darajasiga keltirish eng dolzarb muammodir.

Davlatimiz nisbatan katta hududga ega va uning geografik o'rni ham alohida xususiyatlarga molikdir. Bu holat qurilish va transportni ham jadal sur'atlar bilan rivojlantirish vazifasini qo'yadi. Yalpi ishlab chiqarish maydonlarini, uy-joy,

madaniy-maishiy muassasalar, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarining mustaqil moddiy-texnik poydevorini yaratish qurilish sohasining mazmunini tashkil etadi.

Milliy iqtisodiyot kursining iqtisodiy fanlar ichida o'rni beqiyos salmoqlidir. Barcha iqtisodiy fanlar iqtisodiyotni turli jabhalarini o'rganishsa, milliy iqtisodiyot-xalq xo'jaligini yagona bir sistema sifatida yoritib beradi. Milliy iqtisodiyotdagi jarayonlarni o'rganish, ularni tahlil qilish, kelgusidagi rivojlanishini takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish va iqtisodiyotni tartibga solishni bevosita bizning kursimizda o'rganish mumkin. Yalpi milliy mahsulot, yalpi ichki mahsulot, sof milliy mahsulot, milliy daromad va shaxsiy daromad kabi ko'rsatkichlarni tahlili asosida mamlakat iqtisodiyoti xususida milliy iqtisodiyot fikr yuritadi.

Milliy iqtisodiyot mamlakatdagi mehnat bozorini o'rganadi. Siyosat borasida, monitar va fiskal siyosatlarni mohiyatini ochib beradi. Shu bilan bir qatorda davlat byudjeti kamomadini bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi. Iqtisodiyotni tartibga solishda soliqlar tizimi orqali tartibga solishni ko'rsatib, tadbirkorlik faoliyati ahamiyatini ochib beradi.

Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish jarayoni milliy iqtisodiyotda qanday o'zgarishlarga olib kelganligini raqamlar asosida yoritib beradi.

2- savol bayoni: Har bir mamlakat iqtisodiyoti o'ziga xos milliy, diniy, siyosiy hususiyatlarga ega. Shu mamlakat ichida milliy hamjamiyatlar, ya'ni ijtimoiy guruxlar va kishilar hamjamiyatlari iqtisodiy aloqalarni tashkil qilishning o'zaro aloqalar bilan bog'liq bo'lganligi va integratsiyalashgan shakli sifatida namoyon bo'ladi.



Milliy iqtisodiyotga ta'rif berib o'tdik, endi millat o'zi nima ekanligiga to'xtalib o'tsak.

Millat ikki ma'noda tushuniladi:

1. Kishilarning tarixi tarkib topgan shakli;
2. Mamlakat, davlat.

Iqtisodiy ta'limoti tarixi fani millat tushunchasiga yondashuv doimo o'zgarib turishini ko'rsatadi. David Rikkardo millatni tabiiy omillariga unumdorligi notekis bo'lgan tuproqga ega jo'g'rofi makon sifatida talqin bilgan.

Bu omillar iqtisodiy faoliyat xarakterini belgilab beradi (Portugaliya vino, Buyuk Britaniya esa gazlama ishlab chiqaradi) deb xisoblagan.

Styuart esa millat bu-xudud, ayni paytda shunday xududki, uning ichkarisida ishlab chiqarish omillari harakatchan va bu harakatchanlik davlat chegaralari bilan cheklangan, deb hisoblagan.[1]

R. Bar esa iqtisodiy jihatdan millat tushunchasiga yanada murakkabliroq ta'rif bergan, ya'ni millatning iqtisodiy kontseptsiyasini beradi;

[1] Mc Connell, Brue. Economics. 17th edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2014.

a) avvalo bu o’z tabiatiga ko’ra, o’zining kelib chiqishiga ko’ra, o’z xarakteriga ko’ra va faoliyat sharoitlariga ko’ra farqlanuvchi faoliyat markazi;

b) millat bu - kuchlar markazidir, uning ta’siri geografik va qiyosiy makon doirasidan kelib chiqadi;

v) millat iqtisodiy siyosiy va ma’naviy sabablarga ko’ra imtiyoz beruvchi birdamlik markazidir.

Shunday qilib, millat dunyoning boshqa millatlaridan farq qildiruvchi va ular bilan o’zaro aloqada bo’lish zaruriyatini tug’diruvchi siyosiy va ma’naviy xarakteri o’ziga xos xususiyatga ega bo’lgan bir bo’lagidir.

Milliy iqtisodiyotga ta’sir etuvchi omillar ikki guruxga bo’linadi: tashqi va ichki. Tashqi omillar umumlashtirilgan holda qo’yidagi guruhlarga ajratiladi: iqtisodiy, siyosiy, demografik, madaniy.

Tashqi iqtisodiy omillarga: 1) Xalqaro mehnat taqsimoti; 2) U yoki bu davlat jahon bozorida dominantlik qilish;

Tashqi siyosiy omillar turiga shakllarda namoyon bo’ladi. Bunda: Embargo e’lon qilish; mamlakatning turli savdo ittifoqlariga qabul qilinishi; qulay rejamlilik; harbiy bloklarga kirish; urush holati.

Tashqi demografik omillarga u yoki bu mamlakatning

a) ishsizlik havfini keltirib chiqaruvchi ishchi kuchi migratsiyasi oqimini o’zgarishi yoki aksincha;

b) mamlakatning to’lov balansi strukturasini yaxshilash misol bo’la oladi.

Ichki omillarga faoliyatiga qo’yidagilar kiradi:

1. Milliy iqtisodiy faoliyat agentlari, ya’ni alohida shaxslar, guruhlar va davlat.

2. Bu faoliyatning tashkil etish shakllari.

3. Mamlakat miqyosida va doirasida iqtisodiy faoliyatni tahlil qilish imkonini beruvchi omillar.

3-savol bayoni: Milliy iqtisodiyotda mamlakat rivojini tavsiflovchi asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlar toifasiga YaMM, SMM, MD, ShD va ShID kiradi.

YaMM xalq xo’jaligini moddiy hamda noishlab chiqarish sohalari bo’yicha iqtisodiy faoliyatni yakuniy natijalarini tavsiflovchi ko’rsatkichdir. Bu ko’rsatkich mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulot va ko’rsatilgan xizmatlarni hajmini to’g’ri va aniq ko’rsatib beradi.

Yalpi milliy mahsulot-mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko’rsatilgan xizmatlarni bozor qiymatidir.

YaMM da faqat yakuniy ne’matlar hisobga olinadi, oraliq mahsulotlar va xizmatlar esa e’tiborga olinmaydi.

YaMMni xarajatlar va daromadlar usuli bo’yicha hisoblanganda bir xil natija chiqadi, chunki iste’molchi mahsulotni sotib olish uchun qancha mablag’ sarflasa, ishlab chiqaruvchiga daromad sifatida shuncha pul tushadi.

1 chi usul bo’yicha YaMM hisoblash.

Y q C+I+G+Xn

bunda:Y-tovarlarni sotib olish uchun ketgan xarajatlar;

C-shaxsiy is’temol xarajatlar;

I-biznesning investitsiya xarajatlari;
G-tovar va xizmatlarni davlat tomonidan sotib olinishi;
Xn-sof eksport; (eksport-import)
2 chi usul bo'yicha YaMM hisoblash.

$$Y=CCA+W+IR+Ir+P$$

Bunda:CSA-iste'mol qilingan kapital hajmi:
W-yollanma ishchilarning ish haqi:
Ir-biznesga bevosita soliqlar;
R-ijara to'lovi;
Ir-% stavkasi- xususiy biznes bo'yicha, bunday davlat mustasno;
R-korporatsiyalar daromadi; Bu erda R-korporatsiyalar daromadi 2 ga bo'linib qo'shiladi, ya'ni R1-korporatsiyalarning taqsimlangan foydasi va R2-korporatsiyalar foydasiga va R2- korporatsiyalar foydasiga soliq, bunda: R=R1+R2 bo'ladi.

Shaxsiy iste'mol xarajatlariga-uy xo'jaliklarini uzoq muddat davomida foydalanadigan iste'mol buyumlari xarajatlari kiradi;

Tovar va xizmatlarning davlat tomonidan sotib olinishiga-davlat xarajatlari inobatga olinadi-byudjet tashkilotlariga oylik maoshlarini berish, armiyani boqish, mudofaani mustahkamlash va boshqalar. Transfertlar bundan mustasno.

Investitsiyalar-stanoklar, asbob uskunalar sotib olish, bino-inshootlar qurish bilan bog'liq xarajatlar;

Umumiy investitsiyalar tarkibida ichki sof xususiy investitsiya + amortizatsiya kiradi, ya'ni

$$I\ um. = I\ ichki\ sof\ xus. + Amortizatsiya$$

Sof eksport esa eksport va importning ayirmasi bo'ladi.

Renta to'lovlar-uy xo'jaliklari tomonidan olinadigan daromaddan iborat bo'lib, ular iqtisodiyotni shaxsiy resurslar bilan ta'minlaydi.

Biznes bevosita soliqlarga aktsiya solig'i, qimmatbaho buyumlar solig'i va shunga o'xshash soliq turlari kiradi.

Korporatsiyalar daromadiga soliq va korporatsiyalar foydasi (investitsiyaga mo'ljallangan qismi) kiradi.

Yalpi milliy mahsulotni ikki usul bo'yicha hisoblanishi yopiq emas, balki ochiq iqtisodiyot uchun ham xarakterlidir. Yopiq iqtisodiyot deganda, eksport va import harajatlari, ya'ni sof eksport inobatga olinmaydi. Y=C+I+G.

Ochiq iqtisodiyotda esa, albatta, eksport va import, chet el mamlakatlari bilan aloqasi inobatga olinadi.Y=C+I+G+Xp

Sof milliy mahsulot -YaMMdan amortizatsiya harajatlarini ayirib tashlash bilan aniqlanadi:

SMM = YaMM - Amortizatsiya

MD esa SMM dan biznesga bo'lgan bevosita soliqlarni ayirib tashlash bilan aniqlanadi:

MD=SMM- bevosita soliqlar.

ShD=MD - korporatsiyanning taqsimlanmagan foydasi- sug'urta ajratmalari korporatsiyalar daromatidan soliq + transfertlar +dividentlar;

ShID = ShD - soliq turlari (individual).

YaMM deflyatori = Nominal YaMM/Real YaMM x 100%

Nominal YaMM-joriy yil baholarida o'lchanadi.

Real YaMM- bazis yil baholarida o'lchanadi.

Milliy iqtisodiyot - milliy hamjamiyatlar va iqtisodiy aloqalarni tashkil qilishning o'zaro aloqalar bilan bog'liqligi va integratsiyalashgan shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Uning amal qilishni tashqi va ichki guruh omillari ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyotda mamlakat rivojini tavsiflovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga YaMM, SMM, MD, MD YaMM deflyatori o'qiladi.

2-mavzu: Milliy boylik - davlatning qudratini belgilovchi ko'rsatkich

Reja:

1. Mamlakat milliy boyligi va uning tarkibi.
2. Iqtisodiy rivojlanish darajasi va milliy boylik.

Tayanch so'z va iboralar: mamlakat milliy boyligi, milliy boylik tarkibi, moddiy xom ashyo resurslari, iqtisodiy taraqqiyot darajasi, iqtisodiy rivojlanish darajasi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaMM, iqtisodiy samaradorlik, aholi turmush darajasi, moddiy xom ashyo resurslari.

1-savol bayoni: Milliy boylik jamiyat ixtiyoridagi mehnat bilan yaratilgan va jamg'arilgan moddiy ne'matlar mujassami. Bu ko'rsatkich mamlakat iqtisodiy qudratining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, ishlab, chiqarish davomida barcha iste'mol qiymati yig'indisining pul bilan ifodalanishidir.

Milliy boylik xalq moddiy va ma'naviy darajasining negizi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishdir, shuning moddiy asosi va natijasidir.[2]

Respublikamizda milliy boylik og'ir sanoat, shuningdek engil va oziq ovqat sanoati, paxta, ipakchilik, qorako'lchilik, mevachilik, uzum etishtirish, sabzavotchilik bilan bog'likdir. Jahon bozorida mehnat taqsimotida paxta tolasi, ipak poyasi, qarakul, paxta terish mashinalari ishlab chiqarish bo'yicha salmoqli o'rinni egalab kelmoqdamiz.

Milliy boylik tarkibiga xalq xo'jaligining asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlari (bino, inshoot, mashina, asbob-uskunalar, transport vositalari, materiallar, mahsuldor hayvonlar, yoqilg'i), muomala fondi (tayyor mahsulot zahiralari), ehtiyot fondlari va sug'urta zahiralari, xizmat qiluvchi tarmoqlarning asosiy fondlari (maktab va shifoxonalar, uy-joy, madaniyat saroylari) aholining shaxsiy mol-mulklari, ishlab chiqarish jarayonida jalb etilgan tabiiy boyliklar (er osti qazilmalari, tabiiy ekin maydonlari), shuningdek ishchi va xizmatchilarning ishlab

[2] Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus. Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies. USA. 2015

chiqarish tajribasi, ilmiy-texnika bilimlari ham kiradi. Milliy boylik tarkibida aholidagi xizmat muddati bir yildan oshadigan uzoq vaqt foydalaniladigan predmetlar alohida guruhni tashkil etadi. Bular individual transport vositalari, mebellar, foto va videotexnika, zargarlik buyumlari va shu kabilardir.

2 savol bayoni:

Milliy boylik tarkibining asosiy qismini ishlab chiqarishning asosiy fondlari tashkil etadi. Ishlab chiqarish asosiy fondlariga binolar, inshootlar, mashina va uskunalar, transport vositalari, asboblar, ishlab chiqarish va xo'jalik inventari, mahsuldor chorva, ko'p yillik ekinlar kiradi.

Milliy boylik aniqlanadigan baholar doimo bozor baholariga mos kelavermaydi. Milliy boylik tarkibiga chet mamlakatlar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan chet el aktivlari kirmaydi.

Iqtisodiy taraqqiyot darajasini baholaganda ko'pgina davlatlar AQSh darajasini standart sifatida qabul qilib, ishlab chiqarish omillarini va rivojlanishni tur sharoitlari iqtisodiy rivojlanish darajasini qandaydir bitta nuqtasidan turib baholashga imkon bermaydi.

Shuning uchun bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaMM (YaII, MD);
- Milliy iqtisodiyotning tarmoq strukturasi;
- Aholi jon boshiga asosiy mahsulot turlarini ishlab chiqarish;
- Aholining turmush darajasi va sifati;
- Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.

Ulardan eng muhimi aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM (YaMM) ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkichga muvofiq mamlakat halqaro standart bo'yicha rivojlanayotgan yoki rivojlangan davlatlar kategoriyasiga kiritiladi. Rivojlangan davlatlar kategoriyasi yiliga aholi jon boshiga 5-6 ming dollar va undan ortiq YaMM yaratayotgan davlatlar kiradi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, bu ko'rsatkich O'zbekistonda 1010 dollar, Ukrainada 1180 dollar, Qirg'izistonda 570 dollar, Gruziyada 850 dollar, Armanistonda 620 dollar, Ozorbayjonda 480 dollar tashkil etgan. 2010 yili O'zbekistonda bu ko'rsatkich 1044 dollar bo'ldi. (O'zbekistonda o'rtacha umr darajasi 73 yosh).

Mamlakatning rivojlanish darajasini, shuningdek, eng muhim tarmoqlarning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasiga qarab ham belgilanadi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng aholi jon boshiga yoqilg'i energetika resurslarini ishlab chiqarish birmuncha ko'paydi.

Respublika mashinasozligida tarkibiy siljishlar ro'y berdi, avtomobil sanoati vujudga keldi.

Har qanday davlat iqtisodiyotini rivojlanishini avvalambor uning tabiiy resurslari belgilab beradi, chunki tabiiy resurslar barcha tarmoqlarini rivojlantirishni asosi mamlakatni jaxon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini samaradorligini belgilovchi muhim omildir.

O’zbekiston tabiiy resurslarni ulkan potentsialiga ega. Oltin ishlab chiqarish bo’yicha dunyoning 8 chi aholi jon boshiga ishlab chiqarishdan esa 5 o’rinni egallaymiz.

Hozirgi kunga qadar Respublikamizda 30 ta oltin konlari aniqlangan Respublikada 94 turli mineral xom ashyoning 850 dan ortiq konlari ochilgan. Uglevodorod xom ashyoning umumiy zapaslari respublikada;

1. Gaz - 1828 mlrd.met.kv.
2. Gaz kondensati - 136 mln.t.
3. Neft - 102 mln.t.

Respublika hududida 20 dan ortiq tosh ko’mir konlarini aniqlangan. Ularning prognozlik zapasi 3499 mln.t. Angren zapasini o’zi esa 1885 mln.t., 33 ta nodir va 32 ta rangli metallarning konlari bazasida 16 ta tog’ kon sanoati korxonalari ishlamoqda. 5 ta volfram koni bor.

Tasdiqlangan mineral suvlarning zapaslari Respublikani bir sutkalik 8208 ming mt.kub. tashkil etadi. Hozirda aniqlangan mineral suvlarning 32 ta manbai bazasida 12 ta kurort , 10 dan ortiq mineral suvlarni quyuvchi korxonalar ishlamoqda.

Respublikada 4,2 mln.ga sug’ariladigan er bor. Respublikaning foydalanadigan suv hajmi 62 - 65 km.kub bo’lsa, buning 36 km.kv.qismi Amudaryo va Sirdaryodan qolgan qismi esa ichki manbalardan olinadi. Er va suv resurslarini mavjudligi, qulay iqlim sharoiti 1,7 mln.t. paxta tolasi etishtirish imkonini beradi. Bu soha respublikaning muhim bazasi.

Milliy boylik jamiyat mehnati bilan yaratilgan va mamlakat hududiga to’plagan moddiy boyliklar yig’indisidir.

Milliy boylik tarkibiga avlodlar tomonidan yaratilgan ne’matlar kiradi, bu bilan esa u, ma’lum davr uchun hisoblanadigan YaMM va MDdan ajralib turadi. Milliy boylik hisoblash metodikasida ayrim kamchiliklar mavjud:

milliy boylik aniqlanadigan baholar har doim ham bozor baholariga to’g’ri kelmaydi;

Milliy boylik tarkibiga chet elda yaratilgan ne’matlar kiritilmaydi va chet el grajdanlari tomonidan yaratilgan ne’matlar ayrib tashlanmaydi; oltin zahiralari kiritilmaydi; ilmiy salohiyat kiritilmaydi.

Milliy boylik jamiyat mehnati bilan yaratilgan va mamlakat hududiga to’plagan moddiy boyliklar yig’indisidir.

Milliy boylik tarkibiga avlodlar tomonidan yaratilgan ne’matlar kiradi, bu bilan esa u, ma’lum davr uchun hisoblanadigan YaMM va Mddan ajralib turadi. Milliy boylik hisoblash metodikasida ayrim kamchiliklar mavjud:

milliy boylik aniqlanadigan baholar har doim ham bozor baholariga to’g’ri kelmaydi;

Milliy boylik tarkibiga chet elda yaratilgan ne’matlar kiritilmaydi va chet el grajdanlari tomonidan yaratilgan ne’matlar ayrib tashlanmaydi. Oltin zahiralari kiritilmaydi; ilmiy salohiyat kiritilmaydi.

3-mavzu: Respublikaning sanoat majmui

Reja:

1. Respublika sanoat majmuasining iqtisodiyotda tutgan o'rni.
2. Sanoat majmuasi tarmoqlari.
3. Sirdaryo viloyati sanoat korxonalarining rivojlanganlik holati tahlili

Tayanch so'z va iboralar: sanoat ishlab chiqarishi, ijtimoiy mehnat taqsimoti, xalq xo'jaligi tuzilishi, sanoat ishlab chiqarishi, iqtisodiy samaradorlik, yalpi mahsulot, tovar mahsulot, foyda, ishlab chiqarish rentabelligi.

1-savol bayoni: Tarmoqlar ichida asosiy bo'g'in bo'lib sanoat ishlab chiqarish majmui hisoblanadi. Sanoat majmuining muhim xususiyati shundaki, uning barcha tarmoqlarida mehnat vositalari va iste'mol tovarlari yaratiladi, ilmiy-texnika taraqqiyoti hamda milliy daromadning katta qismi ishlab chiqariladi va yaratiladi.[3] Ayni paytda O'zbekistondagi mehnatga yaroqli aholining asosiy qismi ham sanoat ishlab chiqarishida band. Sanoat ishlab chiqarishi jamiyatning ob'ektiv iqtisodiy qonunlari hamda respublikamizda so'nggi yillarda qabul qilingan qonun va qarorlar asosida rivojlanmoqda. O'zbekiston sanoati ayni vaqtda o'z tarmoqlari va boshqa ijtimoiy tarmoqlar uchun moddiy-texnik vositalar hamda xalq ehtiyojiga kerak bo'ladigan mahsulotlarni ham uzluksiz tayyorlab bermoqda. Shu boisdan ham sanoat ishlab chiqarishi darajasi va samaradorligining o'sishni ta'minlash lozim. Chunki sanoat ishlab chiqarish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, respublikamizning iqtisodiy poydevori shuncha mustahkam aholining turmush sharoiti ham yaxshi bo'ladi.

Shuni ham aytish lozimki, sanoat majmui har qanday tarmog'ining ich tuzilmasidagi o'zgarishlar amalda boshqa tarmoqlar-qishloq xo'jaligi, agrosanoat majmuining boshqa sohalari, qazib oluvchi tarmoqlar bilan uzviy bog'liqdir.

Endilikda sanoatning ahamiyatli tobora oshib bormoqda. Iste'mol bozoridagi tanqislik tufayli sanoat tarmoqlari ilgarigiga nisbatan keng ko'lamda xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishga yo'naltirilmoqda hamda xususiylashtirilmoqda. Iste'mol mollarini ko'plab ishlab chiqarish, Ayniqsa, chetga xom ashyo emas, balki tayyor mahsulot chiqarish hamda qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish nafaqat sanoat ishlab chiqarishining ahamiyatlini oshiradi, balki jahon bozorida O'zbekiston iqtisodiyotiga bo'lgan ishonchni ham mustahkamlaydi.

Energetika, neft-gaz, geologiya, transport, yo'l qurilishi, qishloq va suv xo'jaligi, ichimlik suvi va issiqlik ta'minoti hamda boshqa qator tarmoqlarda chuqur tarkibiy islohotlar boshlandi. Sanoatning 12 ta etakchi tarmog'ida modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish dasturlari jadal amalga

[3] N. Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA 2016

oshirilmoqda. Natijada o'tgan yili iqtisodiy o'sish 5,6 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, eksport – 28 foizga ko'paydi. Oltin-valyuta zaxiralarimiz 2019 yil davomida 2,2 milliard dollarga ortib, 28,6 milliard dollarga etdi.[4]

Sanoat tarmog'ida ishlab chiqarish dasturlarining yaratilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir korxona ixtisoslashuviga ko'ra, ishlab chiqarish dasturida o'zining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini ifodalashi lozim. Ishlab chiqarish dasturlarini shakllantirishda kuyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- yalpi mahsulot.
- tovar mahsulot.
- realizatsiya qilingan mahsulot.
- mahsulot tannarxi.
- balans foyda.
- sof foyda.
- ishlab chiqarish rentabelligi.
- mahsulot rentebelligi.
- mehnat unumdorligi.
- fond qaytimi.
- fond sig'imi.
- fond bilan qurollanganlik.

Sanoat korxonalari faoliyatini xarakterlovchi keyingi ko'rsatkich – bu, quvvatdir. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati korxonagi biriktirilgan mehnat vositalaridan uning ixtisoslashuviga muvofiq to'la-to'kis foydalanilgan holda ma'lum davr mobaynida ishlab chiqarish mumkin bo'lgan tom darajadagi mahsulot hajmidir.

Ishlab chiqarish quvvatlarini aniqlashda quvvat balansidan foydalaniladi. Bu balansda kuyidagi elementlar mavjud bo'ladi:

Yil boshidagi quvvat.

Rejalashtirilgan davrda quvvatlarning o'zgarishi, ya'ni eski quvvatlarning chiqarib yuborilishi, rekonstruktsiya qilinishi, texnik tadbirlar o'tkazilishi va boshqalar.

Yalpi ishlab chiqarish quvvatlarining kiritilishi.

Yil oxiridagi quvvat.

O'rtacha yillik quvvat.

Ishlab chikarilgan mahsulot hajmi.

Quvvatlardan foydalanish koeffitsienti.

2- savol bayoni:

Sanoat majmuasiga doir mahsulotlar majmuiga bu soha tarmoqlari quyidagicha hissa qo'shmoqda:

1. Yoqilg'i sanoati va energetika -18,3%;

---

[4] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёенинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи 24 январь 2020 йил.

2. Metallurgiya – 13,9%;
3. Engil sanoat – 18,6%;
4. Ximiya sanoat – 5,2%;
5. Mashinasozlik – 15,8%;
6. Oziq-ovqat – 10,8%;
7. Qurilish materiallari – 6,5%;
8. Yog'ochni qayta ishlash – 2%.

Sanoat xalq xo'jaligining yirik sohasi bo'lib, unda 1 mln.dan ortiq ishchi va xizmatchilar xizmat qiladi. Bu, ish bilan band aholining sakkizdan biri qismini tashkil etadi. Sanoatda 100 dan ortiq tarmoq bo'lib, ulardan 6 tasi bazaviy hisoblanadi. Asosiy fondlarning 40 %i sanoat hissasiga to'g'ri keladi, yalpi ichki mahsulotning 16 %dan ortiqrog'i sanoatda yaratiladi. O'zbekiston sanoatida elektr energiyasi, gaz, neft, ko'mir, benzin, po'lat, avtomobillar, traktorlar, paxta terish mashinalari, elektodvigatellar, transformatorlar, akkmulyatorlar, kabellar, ekskavator, ko'prikli ko'targichlar, yigiruv mashinalari, samolyotlar, oltingugurt kislotasi, mineral o'g'itlar, sun'iy tolalar, tsement, turli qurilish materiallari, gazlamalar, paxta moyi, un, guruch, kiyim – kechak, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqalar ishlab chiqariladi. Respublika sanoatida tarmoqlarning tutgan o'rni har xil. Sanoat tarmoqlari orasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va agrosanoat majmuiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar tarixan etakchi mavqega ega. Bular paxta tozalash, shoyi to'kish, konserva, yog'-moy va boshqa sanoat tarmoqlaridir. Shuningdek, kimyo va neft kimyosi, mashinasozlik, elektronika, energetika, metallurgiya, engil va qurilish materiallari sanoati jadal sur'atlarida rivojlanmoqda.

Sanoat taraqqiyotida yoqilg'i-energetika majmuasining o'rni alohida. Uning tarkibiga gaz, neft va neftni qayta ishlash, ko'mir va energetika tarmoqlari kiradi. O'zbekiston jahondagi o'nta yirik gaz ishlab chiqaruvchi mamlakatlar jumlasiga kiradi. Respublikada qudratli gidroelektr statsiyalari va issiqlik elektr statsiyalari mavjud.

Metallurgiya majmuasi tarkibiga ma'dan xom ashyosini, qora va rangli metallarni qazib chiqaruvchi korxonalar kiradi. Oltin, kumish, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, molibden, litiy, uran, alyuminiy xom ashyosi, nodir 14axa rva14va boshqa bir qator qazilma boyliklarning aniqlangan zaxiralari ko'p. O'zbekistonda oltinning 30 ta koni topilgan. Qazib olinadigan oltinning umumiy miqdori bo'yicha O'zbekiston MDX mamlakatlari orasida ikkinchi, kumish, mis, qo'rg'oshin, rux va volfram bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi. O'zbekiston jahon hamjamiyatida oltin ishlab chiqarish miqdori bo'yicha sakkizinchi, uni aholi jon boshiga ishlab chiqarish bo'yicha esa beshinchi o'rinda.

Kimyo va mashinasozlik majmuilari sanoatning muhim sohalaridir. Yangi iqtisodiy sharoitda bu tarmoqlarda chuqur tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ular mamlakatning iqtisodiy mustaqqilligini mustahkamlashga yo'naltirilgan.

Jami iste'mol mollarining uchdan bir qismi engil sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Bu erda an'anaviy etakchi soha to'qimachilikdir.

Energetika Respublika xalq xo'jaligining negiz tarmog'i, respublikada iqtisodiyot va texnika taraqqiyotining mustahkam poydevori hisoblanadi. O'zbekiston energetika tizimi umumiy o'rnatilgan quvvati 11,5 mln.kVt bo'lgan 37 issiqlik va gidravlik elektr stantsiyalarida yiliga 55 mlrd. kVt.s dan ortiq elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. O'zbekiston energetika tizimining barcha kuchlanishlardagi elektr tarmoqlari umumiy uzunligi qariyb 228 ming kmni tashkil qiladi. Tarmoq transformatorlarining umumiy quvvati 42,6 MVA ga teng. Hozir respublika energetika tizimida 60 mingga yaqin kishi ishlaydi.

O'zbekistonda elektr quvvatidan asosan XX-asr boshlaridan foydalanila boshlandi. O'sha davrda Toshkentda 2 elektr stantsiya qurilgan bo'lib, biri (quvvati 1450 kVt, 5 dizel) tramvayni tok bilan ta'minlash, ikkinchisi (Pavlov elektr stantsiyasi, quvvati 125 kVt) shaxarni yoritish uchun ishlatilgan. 1913 yilda O'zbekiston hududida umumiy quvvati 3 MVt chamasida bo'lgan 6 kichik dizel elektr stantsiyalari bo'lgan, yillik elektr energiyasi hosil qilish 3,3 mln.kVt.s ga etgan.

O'tgan asrning 20-yillarida O'zbekistonda issiqlik energetikasi dizel 15axa rva bug' turbinali elektr stantsiyalarini qurish yo'nalishida rivojlandi. Dizel elektr stantsiyalar umumiy maqsadlarda hamda issiqlik energiyasiga ehtiyoji bo'lmagan paxta zavodlari, nasos stantsiyalari, kanallar va boshqa korxonalar qoshida qurildi. Respublikadagi dastlabki bug' turbinali elektr stantsiyalari Farg'ona va Kataqo'rg'on yog'-moy zavodlari qurildi. Farg'ona yog'-moy zavodining «Sharq tongi» issiqlik elektr markazi (IEM)umumiy maqsadlardagi elektr statsiyasi bo'lgan birinchi IEM dir.

1934 yil 25 sentyabrda O'zbekiston energiya sistemasining tashkiliy asosi – «O'zbekenergiya» energetikasi boshqarmasi, Energetika va elektrlashtirish vazirligi tuzildi.

30-yillar boshidan Chirchik-Bo'zsuv GES lar kaskadi barpo etildi. O'zbekiston birinchi gidroelektrstantsiyasi Bo'zsuv GES shu traktda qurilib, 1926 yilda ishga tushirilgan edi. Chirchik – Bo'zsuv gidroenergetika qurilishi tez sur'atlar bilan davom etirilib, 1926 yildan 1940 yilga qadar mazkur trakt gidroelektrstantsiyalarida 67 ming kVt generator quvvatlari ishga tushirildi.

O'zbekiston Energetika va elektrlashtirish vazirligi tarkibida loyiha, qurilish-montaj, sozlash, ta'mirlash va ishlatish tashkilotlarining to'la majmui energetika tizimining ishonchli ishlashini va istiqbol taraqqiyotini ta'minlaydi. O'zbekiston energetika tizimi hozir respublika xalq xo'jaligi va aholisining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojlarini to'la ta'minlamoqda va elektr energiyasi qisman qo'shni davlatlarga eksport qilmoqda. 2002 yilda O'zbekistonda jami 56,0 mlrd. kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

Yoqilg'i sanoati. Respublikada yoqilg'i energetika sanoati er qa'rida topilgan va qazib olinayotgan ko'mir, neft, tabiiy gaz konlari negizida shakllandi va rivojlanib bormoqda. Respublikada 160 ga yakin neft-gaz koni ochilgan, ularning 115 tasi

Buxoro-Xiva geologik provintsiyasida, 27 tasi Farg'ona vodiysi, 10 tasi Surxondaryo, 7 tasi Ustyurtda joylashgan. Konlarning gaz, gaz-kondensatli tulari mavjud. Xozir 71 neft, gaz va gaz-kondisat konlari, 2 ko'mir konidan foydalanilmoqda. 50 dan ortiq neft, gaz va gaz-kondensat koni esa kelajakda ishga tushirish uchun tayyorlab qo'yilgan.

Yoqilg'i sanoati respublika yoqilg'i – energetika majmuining asosiy tarmog'ini tashkil etadi va barcha yoqilg'ini qazib olish, tabiiy gazni tozalash va etqazib berish, neft mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalaridan iborat. Ular xalq xo'jaligining barcha bo'g'inlarida xizmat ko'rsatadi. Yirik korxonalari Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Kashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida joylashgan. Respublika sanoat mahsulotining umumiy hajmida yoqilg'i-energetika majmui mahsulotlari 26,8% ni tashkil etmoqda (1980 yilda 8,8%). Respublika sanoatida band bo'lgan ishchi-xizmatchilar (sanoat ishlab chiqarishi xodimlari)ning 6% yoqilg'i sanoati tarmoqlari hissasiga to'g'ri keladi (80 ming nafar ortiq). Respublikada 1992 yilda yoqilg'i sanoatida qazib olingan yoqilg'i (shartli yoqilg'i – 7000 kilokaloriya hisobida) umumiy hajmida neftning hissasi 8,3 % ni, gazning hissasi 87,3% ni, ko'mir hissasi 4,4% ni tashkil etgan. Ko'kdumalok neft-gaz kondensat konining ochilishi va ishga tushirilishi bilan neft sanoatining yoqilg'i sanoati majmuidagi mavqei ortib bormoqda.

Neft sanoati. O'zbekistonda dastlabki neft koni 1904 yilda ochilgan (Farg'ona vodiysidagi Chimyon neft konida 278 m chuqurlikda sutkasiga 130 tonna neft olingan). O'sha yili Vannovsk (hozirgi Oltiariq) temir yo'l stantsiyasida neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi. Keyinroq Farg'ona botig'ida Yorkuton, Selroxs konlari ham ochildi, Chimyon-Vannovsk neft quvuri qurildi, neftni qayta ishlash zavodi kengaytirildi. Shu davrda rus va chet el kapitali neft qazib olish, uni qayta ishlash, neft mahsulotlarini sotishni tula o'z nazoratiga oldi. «Santo»-O'rta Osiyo neft savdosi tashkil etildi. Hozirgi kunda O'zbekistonda neftni qayta ishlash sanoati sohasida Oltiariq, Farg'ona, Buxoro nefni qayta ishlash zavodlari ishlab turibdi. Farg'ona zavodi supkov moylari va yonilg'i ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, ishlab chiqarish bo'yicha 30 dan ortiq texnologik qurilmaga ega. Ko'kdumalok neft-gaz koni ochilganidan keyin Frantsiyaning TEKNEP firmasi bilan hamkorlikda 1993 yildan Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumanida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi qurilishi boshlandi va bir yilda 2,5 mln. t gaz kondensatini qayta ishlash quvvatiga ega bo'lgan 1-navbati 1997 yil avgustida ishga tushirildi. Neftni qayta ishlash zavodlarida yuqori oktanli benzin (shu jumladan, B-92 aviabenzini), dizel yonilg'isi, koks, parafin, motor moylariga qo'shilmalar, engil avtomashinalar uchun mator surkov moylari (kompressor, turbina, urchuk moylari), kerosin, biton, suyultirilgan neft gazlari (butan texnik propanva), mazut kabi 50 turdan ortiq neft mahsulotlari ishlab chiqarilmoqdi. Yangi mahsulot turlari ishlab chiqarishni o'zlashtirish dasturiga muvofiq yangi texnologiyalar o'zlashtirilmoqda. Hozirgi davrda respublikamiz neft sanoati korxonalari quvvatlari bir yilda 11 mln.t neftni ishlash imkoniyatiga ega.

Keyingi yillarda qurilgan keskin tadbirlar natijasida neft (gaz va kondensati birga) qazib olish hajmi yuqori sur'atlarda o'sdi. Respublikaning neft mustaqilligi ta'minlanadi.

Gaz sanoati- yoqilg'i energetika majmuasining eng rivojlangan tarmog'i. Uning respublikada qazib olinayotgan yoqilg'i balansidagi hissasi 87,2% ni tashkil etadi. Neft bilan yo'ldosh tarzda uchraydigan tabiiy gazni qazib olish ikkinchi jahon urushidan oldingi yillardan boshlangan. Neft gazidan sanoat maqsadlarida foydalanish uchun 15 km uzunlikdagi birinchi gazoprovod «Andijonsanoat» - Andijon shaxri o'rtasida qurilgan. Gazni alohida sanoat usulida chiqarib olish o'tgan asrning 50-60 – yillarida boshlandi. Gaz qazib olish sanoati joylashgan asosiy tumanlar – Buxoro va Kashqadaryo, shuningdek, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasidir.

Respublikada gaz sanoatining rivojlanishi qishloq xo'jaligi va boshqa sanoat tarmoqlarining o'sishni ta'minlamoqda. Shaxar, shaxarcha ayniksa qishloqlarni gazlashtrish avj oldi. O'zbekistonda tabiiy gaz bilan 7,8 mln xonadon (jami xonadonlarning 78%), shu jumladan, 17axa rva shaxarchalarda 3,85 mln, qishloq joylarida 2,98 mln. dan ortiq xonadon ta'minlangan (2000 y).

Ko'mir sanoati. O'zbekistonda ko'mirni sanoat usulida qazib olish 1930 yillar oxiridan boshlangan. Toshkent viloyati Oxangaron vodiysida Angren ko'mir, Surxandaryo viloyatida Sharg'un, Boysuntog' toshko'mir konlari bor.

1990 yilda 10,4 mln. t. Ko'mir qazib chiqarildi. Keyingi yillarda bu ko'rsatkich sezilarli darajada pasaydi. 2001 yilda respublikamizda 3976 ming t ko'mir qazib olindi. Angren va Yangi Angren GRESlarining tula kattik yoqilg'iga o'tkazilishi bilan respublikaning ko'mirga bo'lgan ehtiyoji ormoqda.

Metallurgiya sanoati. O'zbekiston erlarida rudadan metall olish 4 ming yildan ziyod tarixga ega. Qadimda misdan turli bezak buyumlar tayyorlangan. Keyinroq rudali metallar – qalay, kumush, oltin va boshqalarni eritish, kuyish va kizdirib ishlash o'zlashtirilgan.

Qora metallurgiya sohasida faoliyat ko'rsatadigan yagona korxona Bekobod shaxridagi O'zbekiston metallurgiya zavodidir. Zavodda qora metallurgiya mahsulotlarining eng muhim turlari (po'lat, cho'yan, po'lat quvurlar va po'lat prokat) ishlab chiqariladi, temir-tersak, metall chiqindilari eritiladi.

O'rta Osiyodagi birinchi zamonaviy metallurgiya zavodi qurilishi umumxalq xashari yo'li bilan 1942 yilda boshlandi va 1944 yilda dastlabki metall eritmasi olindi. 1978 yilda zavodda ishga tushirilgan elektr quvvati yordamida po'lat eritish tsexi eng zamonaviy texnika bilan jihozlangan.

Zavod tamg'ali prokat mahsulotlari, quvurlar bilan birga 50 ga yaqin turdagi xalq iste'moli tovarlarini ham ishlab chiqaradi.

Rangli metallurgiya – respublika metallurgiya sanoatining etakchi tarmog'i. Bu soha mahalliy mineral xom ashyo resurslari negizida o'tgan asrning 30-yillardan rivojlandi. Respublikada rangli kamyob va qimmatli metallar (oltin, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, molibden, simob va boshqalar) konlari, Qoramozor mis ko'rg'oshin rux koni, Obiraxmat, Burchmulla, Okto'z, Takob, Ingichka, Qo'ytosh

mis konlari va boshqalar topilib, ular sanoat miqyosida o'zlashtirilishi bilan rangli metallurgiya sanoati shakllandi va respublika rangli metallar ishlab chiqarish bo'yicha jahonda oldingi o'rinlardan birini egallagan mamlakatga aylandi.

Kimyo sanoati respublika iqtisodiyotida muhim o'rinni egallaydi. O'zbekiston kimyo sanoatida 750 dan ortiq nomda mahsulot ishlab chiqariladi. Mamlakat sanoat mahsulotlari umumiy hajmida kimyo sanoati korxonalari mahsulotlari hissasi 4,6% ni tashkil etadi. Respublika kimyo sanoatida tabiiy gaz, neft, ko'mir, oltingugurt, turli minerallar, oxaktosh, grafit, shuningdek, rangli metallurgiya, paxta va kanopni qayta ishlash chiqindilaridan xom ashyo tarzida foydalaniladi. O'zbekiston kimyo sanoatida ishlatiladigan xom ashyoning asosiy qismi (70%ga yaqini yoki 650 dan ortiq turdagi mahsulot) Hamda ehtiyot qismlar va asbob uskunalar chetdan olib kelinadi (Rossiyadan toluol, yog'och tsellyulozasi, kaustik soda, Kozog'istondan fosfaritlar va boshqalar). Ayni paytda kimyo sanoati mahsulotlari (mineral o'g'itlar, kaprolaktam, kimyoviy tolalar hamda iplar, sintetik ammiak, lak-bo'yoqlar va boshqalar) eksport qilinadi.

Mashinasozlik sanoati. O'zbekistonda mashinasozlik sanoatining dastlabki korxonalari XX-asr boshlarida vujudga keldi. Dastlabki paytlarda O'zbekistonda metalga ishlov berish sanoati asosan 14 ta kichik ta'mirlash ustaxonalaridan iborat edi. Ularda temir yo'l, paxta tozolash va yog' zavodlarining ta'mirlash ishlari bajarilardi.

Avtomobilsozlik. O'zbekistonda mashinasozlik sanoatining muhim tarmog'i hisoblangan avtomobilsozlik – avtomobillar, (Asaka avtomobil zavodi) dvigatellari, (Toshkent motor zavodi) avtomobillarga ehtiyot qismlar, turli jihozlar va boshqa asboblar ishlab chiqarish respublika mustaqillikka erishganidan keyin shakllana boshladi. O'zbekistondagi bir necha avtomobil tuzatish zavodlari engil mashinalarga xizmat ko'rsatadigan «O'zavtotexxizmat», «O'zavtoVAZxizmat» ishlab chiqarish birlashmalari korxonalar, tashkilotlar va avtomobillarga texnika ko'rsatib kelgan. Asakada engil avtomobillar, Samarkandda yo'lovchi va yuk avtomobillari chiqarilmoqda.

Avtomobil sanoatini barpo etishda, asosan, respublikadagi kontsernlar, korporatsiyalar, MDX korxona va tashkilotlari, chet el firmalari sarmoyalarini jalb etish orqali aktsiyadorlik jamiyatlari tashkil etish yo'li tanlangan. Ishga tushiriladigan korxonalarda ishlab chiqarish boskichlarini shakllantirish dastlab avtomobillarni qism va agregatlardan yig'ishdan to ularni shu korxonalarda tayyorlash va yig'ishgacha bosqichma-bosqich, to'liq o'tish yo'li bilan olib boriladi. Korxonalarda avtomobil dvigatellari (motorsozlik), podshipniklar ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yilmoqda.

3-savol bayoni. Bugungi kunda, viloyatimizda 1700 dan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 2,2 foizi ushbu korxonalar xissasiga to'g'ri keladi.

Viloyatda ishlab chiqarilgan jami sanoat mahsulotlarining 40,9 foizi energetika, 14,5 foizi oziq-ovqat, va 27 foizi to'qimchilik, trikotaj mahsulotlari xissasiga to'g'ri keladi.

Bugungi kunda, viloyatda 157 ta xorij sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ular tomonidan joriy yil 2019 yilda 1 trillion 664,1 mlrd. so'mlik yoki 161,9 foiz sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, jami viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 23,6 foizi ular xissasiga to'g'ri keladi.

Viloyat bo'yicha jami 131,1 mln. dollar, shu jumladan 72,9 mln. dollar hududiy eksport amalga oshirilgan bo'lib, hudud eksportida kichik korxona va mikrofirmalar salmog'i 79,7 foizni tashkil etadi.

Amalga oshirilgan eksport hajmining 55,3 foizini sanoat mahsulotlari va 44,7 foizini qishloq xo'jaligi (Meva-sabzavot) mahsulotlari tashkil etadi.

Sirdaryo viloyatida 1 yanvar 2020 yil holatiga mavjud jami sanoat korxonalarining soni 1736 tani tashkil etdi. Jumladan, yirik korxonalar 22 ta, kichik korxonalar 78 ta, mikrofirmalar 1636 ta.

2019 yilda viloyatda yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 568 taga etdi. Shaxarlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak eng ko'p Guliston shaxrida 488 ta, jumladan 6 ta yirik korxonalar, 16 ta kichik korxonalar va 466 ta mikrofirmalar mavjuddir. Tumanlar kesimida Sirdaryo tumani etakchi hisoblanib sanoat korxonalarning umumiy soni 307 tani tashkil etdi, jumladan, yirik korxonalar 4ta, kichik korxonalar 30 ta, mikrofirmalar 273 ta.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda 728 ta korxona faoliyat yuritmoqda. Mahsulot hajmi 7217,0 mln. so'mni tashkil etdi. O'sish sur'ati 102, 4 % ni tashkil etdi. Jumladan, sanoat tarmoqlari kesimida etakchi oziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalari 276 tani tashkil etib, mahsulot hajmi 1046,3 mln.so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 100,0 % ni tashkil etdi.

1-jadval. Sirdaryo viloyatda mavjud barcha turdagi foydali qazilma boyliklari

Foydali qazilma turiG' korxona nomi	**Er qa'ri uchastka va konlari nomi**	**Joylashgan joyi** *(shahar va tumanlar nomi)*	**Zaxira miqdori** *(tegishli birlikda)*	**Qo'llanilish sohasi va ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan mahsulot turlari nomi**
Qazib olinayotgan er qa'ri uchastka va konlar				
"Begobodtsement" AJ	Tsement xom-ashyosi	Boyovut t	5086,1 ming m. kub	Qurilish soxasida tsement
"Boyovut bunyodkor" MChJ	G'isht-cherepittsa materiallari	Boyovut t	608,2 ming m.kub	Qurilish soxasida g'isht
"Boyovut forovonligi" MChJ	G'isht-cherepittsa materiallari	Boyovut t	787,2 ming m.kub	Qurilish soxasida g'isht
"Oltintepa g'isht invest" MChJ	G'isht-cherepittsa materiallari	Guliston t	303,8 ming m.kub	Qurilish soxasida g'isht
"Sirdaryo sanoat industriya" MChJ	Qum-shag'al aralashmalari	Xovos t	207,3 ming m.kub	Qurilish soxasida qum-shag'al

“Saphire Muntain” MChJ	Qum-shag’al aralashmalari	Sirdaryo t	5310,6 ming m.kub	Qurilish soxasida qum-shag’al
“Chinoz tosh industriya” MChJ	Qum-shag’al aralashmalari	Xovos t	380,3 ming m.kub	Qurilish soxasida qum-shag’al
“Yangiobod jilvasi” MChJ	Qum-shag’al aralashmalari	Xovos t	2020,1 ming m.kub	Qurilish soxasida qum-shag’al
“Sirdaryo sayqali” MChJ	Qum-shag’al aralashmalari	Sayxunobod t	603,4 ming m.kub	Qurilish soxasida qum-shag’al

Viloyatda asosiy sanoat korxonalarga quyidagilar kiradi.

1. **GULISTON EKSTRAKT-YOG' AJ**da 2019 yilda chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar yillik ishlab chiqarish quvvati *(tegishli birlikda)* 157320 teng bo’lib, natura shaklida 38720,3 so’mlik 25323,0 tonna mahsulot, tozalangan paxta yog’i va uning fraktsiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari) 34290,4 mln so’mlik, soapstoklar (neytrallash jarayoni mahsuloti) 403,0 mln so’mlik, boshqa guruhlarga kiritilmagan bo’lak, brusok va shu kabi shakllardagi sovun va yuzaki aktiv organik moddalar (pardoz uchun ishlatiladiganidan tashqari) 4596,2 mln so’mlik mahsulotlar ishlab chiqardi. Eksport hajmi 67,1 ming dollarni tashkil etdi.

2. **“OQ OLTIN DON MAHSULOTLARI” AJ**da ishlov berilgan bug’doy (qattiq bug’doydan tashqari) urug’i, tozalangan guruch, yumshoq bug’doy va spelta uni, don ekinlarini qayta ishlashdan hosil bo’lgan kepak, chiqit va boshqa chiqindilar, yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko’p komponentli aralashmalardan tashqari) ishlab chiqardi.

3. **“SIRDARYO ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASI” AJ** issiqlik elektr stantsiyalari (IEMlardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi 2714368,7 mln so’mlik 14629,9 mln kVts, ishlab chiqarish quvvati 26849,4

4. **"MILI GULISTON TEXTILE" MChJ** chakana savdo uchun qadoqlanmagan paxtadan yigirilgan pishitilgan ip ishlab chiqarish quvvati 4000 teng bo’lib, 46792,6 mln. so’mlik 2895,8 tonna mahsulot ishlab chiqardi. Eksport hajmi 2895,8 ming dollarni tashkil etdi.

5. **"SIRDARYO MEGA LUKS" MChJ e**tilen polimerlaridan qoplar va sumkalar (jumladan konus shaklidagi) 24400 quvvatga ega bo’lib 19520 mln so’mlik 5908 tonna mahsulot ishlab chiqardi.

2-jadval. Sirdaryo viloyatidagi kichik sanoat korxonalari

№	Shahar va tumanG’ korxona nomi	Mahsulot nomi	Yillik ishlab chiqarish quvvati	2019 yilda ishlab chiqarilgan mahsulot			shundan, eksport	
				natura shaklida	mln.so’m	o’sish sur’ati %	natura shakli da	ming dollar
	Viloyat bo’yicha jami:				7216965	102,4		131801
2	**Guliston shahri "GULISTON MED**				27030,5		253,1t	986,1

	TEXNIKA" MChJ						
	Shpritslar, ignalar, kateterlar, kanyullar va shu kabi asboblarming dona	214000	125842	27030,5			
3	**Guliston shahri "GULISTON-BROYLER" MChJ**			39840,0	118,8		
	Yangi so'yilgan (ilig'i ketmagan va seli qotgan) yoki sovitilgan uy parrandalari go'shti tonna	3300	3197	39840,0	118,8		
4	**Guliston shahri "KAMALAK UNIVERSAL SAVDO" MChJ**			35495,4	124,4		
	Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun trikotaj sorochkalar va ko'ylaklar ming dona	889	887	35495,4	124,4		
	Guliston shahri "FORTUNA TEKSTIL" MChJ tonna	1600	1335	26437,8	109,9	832,4	1734,6

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki viloyatda kichik sanoat korxonalari ham mavjud bo'lib ular ichki bozorga va eksport uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarmoqdalar. Guliston shaxrida joylashgan **"GULISTON MED TEXNIKA" MChJ** 214000 yillik ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lib 27030,5 mln. so'mlik 125842 ming dona shpritslar, ignalar, kateterlar, kanyullar va shu kabi asboblar ishlab chiqaradi. Eksport miqdori 986,1 ming dollarni tashkil etdi.

"FORTUNA TEKSTIL" MChJ ning yillik ishlab chiqarish quvvati 1600 ga teng bo'lib, 26437,8 mln. so'mlik 1335 tonna mahsulot ishlab chiqardi. Eksport miqdori 1734,6 ming dollarni tashkil etdi.

"GULISTON-BROYLER" MChJ yillik 3300 ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lib, 39840,0 mln. so'mlik 3197 tonna yangi so'yilgan (ilig'i ketmagan va seli qotgan) yoki sovitilgan uy parrandalari go'shti etkazib beradi.

"KAMALAK UNIVERSAL SAVDO" MChJ yillik 889 ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lib, 35495,4 mln. so'mlik 887 ming dona erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun trikotaj sorochkalar va ko'ylaklarini ishlab chiqaradi.

3-jadval. Sirdaryo viloyati engil sanoat tarmog'i

Mahsulot nomi	**Korxona soni (birlikda)**	**Mavjud ishlab chiqarish quvvati**	**2019 yilda ishlab chiqarilgan mahsulot**		**Quvvatdan foydalanish darajasi %**
			Natura shaklida	**mln. so'mda**	
Yigirilgan ip-kalava, tonna	2	4938	2975,8	48056,2	60,3

Kard yoki taroqda taralmagan paxta tolasi, tonna	6	37087	27324	224917,0	73,7
Paxta tiviti (lint), tonna	6	3244	2579	5752,7	79,5

Viloyatda 2019 yilda engil sanoat tarmog'i mahsulotlaridan mavjud ishlab chiqarish quvvati 4938 ga ega bo'lgan 48056,2 mln. so'mlik 2975,8 tonna yigirilgan ip-kalava, ishlab chiqarish quvvati 37087 ga ega bo'lgan 224917,0 mln. so'mlik 27324 tonna kard yoki taroqda taralmagan paxta tolasi va ishlab chiqarish quvvati 3244 ga ega bo'lgan 5752,7 mln so'mlik 2579 tonna paxta tiviti (ling) ishlab chiqarildi.

Sirdaryo viloyati sanoat tarmoqlarini kelgusida rivolantirish maqsadida 2020 yilda viloyatni kompleks rivojlantirish Dasturi doirasida amalga oshiriladigan sanoat ishlab chiqarish loyihalari belgilab berilgan. Viloyat bo'yicha jami loyihalar soni 63 tani tashkil etadi. Investitsiya hajmi 7 712 139 so'mni tashkil etadi. Investitsiyaning manbalari 3 820 899 mln. so'm o'z mablag'lari, 3 165 338 mln. so'm bank kreditlari va 267 605 ming dollar xorijiy investitsiyalar hisobidan shakllanadi. Ushbu investitsion loyihalarni amalga oshirish natijasida viloyat sanoat sohasida 11 219 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi.

4-mavzu: Agrosanoat majmui, uning taraqqiyoti va yuksalish yo'llari

Reja:

1. Agrosanoat majmuasi (ASM)–iqtisodning ko'p qirrali tarmog'i sifatida.
2. Agrosanoat majmuasi rivojlanishining asosiy muammolari.

Tayanch so'z va iboralar: Agrosanoat majmui, agrobiznes, agrosanoat integratsiyasi, qishloq xujaligi, qishloq xo'jalik dasturlari, qishloq xujaligi tarmoqlari, agrar munosabatlar, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish dasturlari, moddiy-texnik baza, hosildorlik.

1- savol bayoni: Xalqimiz tumush farovonligini yaxshilashda, umuman, mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining ahamiyatli beqiyos ekanligi barchamizga ma'lum. Agrosanoat majmuining taraqqiyoti nafaqat oziq-ovqat ta'minotini yaxshilashda, balki muhim xom ashyo sifatida mamlakat industriyasining taraqqiyoti uchun ham asosiy omildir. Ma'lumki, hozirgi paytda O'zbekiston qishloqlaridagi xilma-xil xo'jaliklarda qariyb 4,5 million gektar maydonda dehqonchilik bilan shug'ullaniladi. Ana shuncha kenglikdagi ziroatni o'stirishda katta va kichik texnika vositalari dehqonga qudratli qanot bo'ladi. Mustaqillik yillarida bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilingan «O'zqishloqxo'jalikmash-xolding» va «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» kompaniyalari ana shu hayotiy tarmoqni mukammal va samarali texnika vositalari bilan ta'min etishni asosiy faoliyat sifatida belgilab olishgan.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, qishloq xo'jalik samaradorligini yuksaltirishning asosiy omili sermehnat yumushlarni texnika gardaniga yuklashdir. Jahon tajribasi tarmoq ishlab chiqarishining barqarorligi, yuqori unumdorligi ishlab chiqarish kuchlarining kompleks rivojlanishi, ilmiy-texnika taraqqiyoti, moddiy-texnika bazasining kuchliligi va kadrlar uchun shart-sharoit yaratilganligi bilan bevosita mutanosibligini ko'rsatadi.

Buni fermerlar misolida ham qurish mumkin. Masalan, bir fermerga AQSh da O'rtacha 150 gektar ekin maydoni to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich Kanadada 190, Buyuk Britaniyada 70, Frantsiyada 35, Irlandiyada va Lyuksemburgda 33, Daniyada 32, Olmoniyada 18, Gollandiyada 17, Italiyada 8 gektarga tengdir. Er, texnika, fan yutuqlaridan unumli foydalanilgandagina natijalar yuqori bo'lishi mukinligini ular amalda isbotlashdi. Umuman, tarmoqdagi iqtisodiy ko'rsatkichlar texnikadan oqilona foydalanishga va uning sifatiga ko'p jihatdan bog'liq deyishimizga to'la asos bor. [5]

Keyingi yillarda «O'zqishloqxo'jalikmash-xolding» kompaniyasi rivojlangan davlatlarning tarmoq texnikasi ishlab chiqaradigan firmalari bilan hamkorlik kilayotganligi ham ijobiy samara bermoqda. Masalan, 9 ta qo'shma korxona ishga tushirildi va bugungi kunda jahon talablariga javob beradigan texnika vositalari ishlab chiqarmoqda. «O'zKeystraktor», «O'zKeysservis», «Agroxim» korxonalari shular jumlasiga kiradi. Masalan, ular tomonidan faqat o'tgan yilning o'zida mamlakatimiz agrosanoat majmuiga 2760 ta traktor, 971 ta telejka, 100 ta paxta terish mashinasi, 118 ta plug, 994 ta borona, 80 ta pichan o'radigan kombayn, 1066 ta kultivator va 1 million so'mlik ehtiyot qismlar va boshqa texnika vositalari va ularning muayyan qismlari etkazib berildi. Shu jumladan, lizing asosida 2 mingta traktor va 404 ta telejka ishlab chiqarilib, dehqonlarga jo'natildi. Respublikada hozirgi paytda nufuzli kompaniya va firmalar vakillari bilan hamkorlikda bir qancha qo'shma korxonalar tuzish bo'yicha loyiha izlanish ishlari olib borilmoqda. Germaniyadagi «KLASS» va «KYuN» firmalari bilan «Toshqishloqmash» hissadorlik jamiyatida em-xashak o'rish kombayni, «O'zqishloqmash» hissadorlik jamiyatida g'alla ekadigan seyalka, «Agregat zavodi» korxonasida frezerlik kultivatori ishlab chiqarish uchun tayyorgarlik ko'rilmoqda.

Qishloq xo'jaligi mashinasozligi uzluksiz va o'zaro chambarchas tizimga ega. Bu ilmiy - tadkikot va tajriba konstruktorlik ishlarini bajarish, konstruktorlik ishlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va ketma-ketlikni ta'minlaydi. Ayni paytda

[5] N. Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA 2016.

tarmoqning ilmiy-tadqiqot, loyiha institutlari hamda konstruktorlik byurolari mavjud. Kompaniya muammolar echimini ta'minlaydigan dasturlar ishlab chiqib, respublika ilmiy – texnika taraqqiyotini muvofiqlashtirish kengashi (sobiq fan va texnika davlat qo'mitasi)bilan hamkorlikda ish olib bordi. O'tgan yili umuman kompaniya bo'yicha 25 millard 255,9 million so'mlik texnika vositalari, 622,5 million so'mlik xalq iste'moli mollari ishlab chiqarildi. Erishilgan ijobiy siljishlar qatorida korxonalarning debitor va kreditor qarzlari kamayganligini tilga olish mumkin.

Kompaniyaning chet el sarmoyasini jalb qilishdan, umuman, uning investitsiya faoliyatidan maqsadi ba'zi korxonalardagi ishlab chiqarish texnikasini yangilashdir. Masalan, yaqin kelajakda Toshkent traktor zavodi, Agregat zavodi, Motor zavodi, Texnolog hissadorlik jamiyatlarida xorij sarmoyasini jalb etish, zamonaviy talablarga javob beradigan texnika vositalari ishlab chiqarish ko'zda tutilmoqda. Hozirgacha kompaniyaga qo'shma korxonalar ustav jamg'armasini shakllantirish uchun 28,2 millon AQSh dollari miqdoridagi chet el sarmoyasi olib kirildi.

Xukumatimizning mahalliy ashyodan mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha dasturiga ko'ra, «Keys» paxta terish kombaynlari va traktorlariga butlovchi qismlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. O'tgan yili «O'zKeysmash»da paxta terish mashinalarining zamonaviy bo'yash majmui va boshqa ba'zi qismlari ta'mirlandi. «Toshqishloqmash»da korxonasida paxta terish mashinasining bunkeri, uning ba'zi qismlarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Tarmoq texnikasi uchun gidrotsilindrlar tayyorlaydigan chet el dastgohi sotib olinmoqda.

Shunga alohida e'tibor qaratish kerakki, qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi kamayib borayotgan bir sharoitda ushbu sohada mahsulot etishtirish yuqori sur'atlar bilan ko'paymoqda.

2019 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari YaIM dagi ulushi 6,0 foizni tashkil etdi. Qishloq xo'jaligini isloh qilish, fermer xo'jaliklariga biriktirilgan er uchastkalarini optimallashtirish, paxta va g'allaning xarid narxlarini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil ishlar natijasida iqtisodiyotimizning agrar sektorida tarkibiy sifat o'zgarishlari yuz bermoqda.

Paxta va g'alla kabi strategik muhim qishloq xo'jaligi ekinlari bilan bir qatorda, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik sohalarida ham ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada o'sdi, qayta ishlash tarmoqlari va ichki bozorni sut, go'sht, kartoshka, sabzavot kabi eng muhim oziq-ovqat hamda boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan yanada ko'proq to'ldirish uchun mustahkam xomashyo bazasi yaratilmoqda.

Maxsus ishlab chiqilgan keng ko'lamli dasturni izchil amalga oshirish hisobidan erlarning meliorativ holati muttasil yaxshilanmoqda. Faqat 2019 yilning o'zida erlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun 150 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi va bu 724 kilometrlik kollektor-drenaj tarmoqlari, 208 ta meliorativ quduqlarni barpo etish va rekonstruktsiya qilish, qariyb 14 ming kilometrlik kollektor-drenaj tizimini ta'mirlash, qayta tiklash va 335 ta zamonaviy melioratsiya texnikasini xarid qilish imkonini berdi.

Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari, shuningdek, Markaziy Farg'ona hududi va Qoraqalpog'iston Respublikasida irrigatsiya hamda melioratsiya inshootlarini qayta tiklash uchun 2010 yilda xalqaro moliya institutlarining 62 million dollardan ziyod mablag'lari jalb qilindi va o'zlashtirildi.

Amalga oshirilgan ana shunday keng miqyosdagi ishlar natijasida 260 ming gektar sug'oriladigan erning meliorativ holati yaxshilandi va bu qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini, fermer hamda dehqon xo'jaliklarining daromadini oshirish uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

Joriy yili 3 ming 800 dan ortiq fermer xo'jaligi paxta etishtirish bo'yicha shartnoma majburiyatini bajara olmadi. Natijada 120 milliard so'mlikdan ortiq yoki 160 ming tonnadan ziyod paxta xom ashyosi kam etkazib berildi. Agar bu ko'rsatkichni eksport qilish mumkin bo'lgan paxta tolasiga aylantiradigan bo'lsak, boy berilgan foyda hajmi, paxtani qayta ishlashdan olinadigan moy, shrot, kunjara va boshqa mahsulotlarni hisobga olmaganda ham, yo'qotish qariyb 100 million dollarni tashkil etadi.

O'tgan yili 1 ming 500 ta fermer xo'jaligi davlat zaxirasiga g'alla sotish bo'yicha 18 milliard so'mlik yoki 62 ming tonna hajmidagi shartnoma majburiyatini bajarmadi.

Ana shu masalalar yuzasidan har bir viloyat va tuman bo'yicha tegishli xulosalar chiqarilishi kerak. Bunda, eng avvalo, fermer xo'jaliklariga er maydonlarini uzoq muddatga ijaraga berish bo'yicha belgilangan tartibga rioya qilinishini, shu borada qonun buzilishlariga yo'l qo'ymaslikni ta'minlash zarur.

2-savol bayoni: Agrosanoat majmui (ASM)-qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish, saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga etkazib berish bilan band bo'lgan xalq xo'jaligi tarmoqlarining jamlanmasidir. ASMga kiruvchi tarmoqlarning barchasi pirovard natijada muhim vazifani mamlakatni oziq-ovqat va qishloq xo'jalik xom ashyosi bilan ta'minlash vazifasini bajaradi.[6]

ASM tarkibida uchta soha ajralib turadi:

qishloq xo'jaligi va unga aloqador tarmoqlar uchun ishlab chiqarish vositalari etkazib beradigan, shuningdek, qishloq xo'jaligiga ishlab-chiqarish texnika xizmati ko'rsatadigan sanoat tarmoqlari (masalan, qishloq xo'jaligi mashinasozligi);

qishloq xo'jaligining o'zi;

[6] Mc Connell, Brue. Economics. 17th edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2014.

qishloq xo’jalik mahsulotlarini qayta ishlash va iste’molchilarga etkazib berish (tayyorlash, saqlash, qayta ishlash, tashish, sotish) bilan band bo’lgan tarmoqlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu infratuzilmani rivojlantirish mamlakat aholisi ehtiyojini qondirsh bilan bir qatorda mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin.

Mustaqillik yillarida ASMda juda ko’p yutuqlarga erishish bilan birga, albatta, kamchiliklarga ham yo’l qo’yildi, iqtisodiy islohotlar jarayonida yangi muammolar ham yuzaga chikdi. Endigi vazifa-ushbu muammolarni chuqur tahlil qilib, ularning echimini topishdan iborat. Agrar sektorning bundan keyingi rivojlanishida quyidagi muammolarga e’tibor berish zarur: o’n bir yillik tajriba shuni ko’rsatadiki, barcha bo’g’inlarda kadrlar yangicha ishlashga, bozor munosabatlariga to’liq moslasha olmayotirlar. Bu, Ayniqsa, tumanlar va xo’jaliklar miqyosida ko’proq ko’zga tashlanmoqda. To’g’ri, har yili kadrlar o’quvi o’tkazilmoqda, ammo aksariyat raxbar kadrlar ish yuritishni bozor munosabatlari asosida emas, balki, eskicha – ma’muriy-buyruqbozlik asosida olib bormoqda;

Agrar soha uchun muhim masala bo’lgan ekologiya masalalari islohot jarayonida birmuncha chetda qolmoqda. Vaholanki, bu muammo o’ziga e’tiborni talab qiladi. Bugungi kunda tuproq unumdorligining pasayib borishi, og’ir texnika va samarasi past texnologiyalar qo’llanilayotganligi oqibatida tuproq strukturasining buzilishi, sho’rlanish darajasining ortib borishi shundan dalolat bermoqda. Shuningdek, aholini ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash masalasi ham alohida e’tiborni talab qiladi;

Ba’zi iktisodchilar, qishloq xo’jaligida islohotlarni qo’shimcha mablag’ sarflamasdan olib borish mumkin, degan fikrlarni ilgari surmoqdalar. Ularning fikriga qo’shilish qiyin. Negaki, rivojlangan mamlakatlar tajribasiga qarasak, ularning ko’pchiligida fermerlar daromadining 40-50 va hattoki 60 foizini tashkil qiladi. Shuni hisobga olib, agrar sohani qo’llab-quvvatlash fondini tashkil qilish va uning mablag’i qishloq aholisining ijtimoiy hayoti, ekologiya muvozanatini saqlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilishi zarur.

Qishloq xo’jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish moliya-kredit mexanizmini takomillashtirishni talab qiladi. Chunki, xo’jaliklarning to’g’ridan-to’g’ri kredit olishlari nihoyatda murakkab, ayniksa, uzoq muddatli kreditlar hajmining kamayib ketishi natijasida xo’jaliklar moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yangilab borish imkoniyatlari chegaralanib qolmoqda. Albatta, lizing tizimining tuzilishi bu muammoni biroz engillashtiradi, ammo barcha turdagi asosiy vositalarni qamrab olmagan.

Qishloq xo’jaligi moddiy ta’minoti, texnika, mineral o’g’it, yoqilg’i moylash materiallari bilan ta’minlanishi bugungi kun talablari darajasida emas, moddiy-texnika resurslarining narxi qishloq xo’jalik mahsulotlari narxiga nisbatan bir necha barobar yuqori va tez oshib bormoqda. Qishloq xo’jaligi uchun kerakli sanoat mollariga narx belgilashni ham tartibga solish lozim. qishloq xo’jalik korxonalariga servis xizmati ko’rsatish talab darajasida emas, shuningdek, xizmat haqlarining bahosi nihoyatda yuqori. O’zlari qabul qilgan qishloq xo’jalik

mahsulotlari uchun tayyorlov tashkilotlari vaqtida haq to'lamayotganligi natijasida xo'jaliklarning moliyaviy holati og'irlashmoqda, buning ustiga inflyatsiya og'irligi ham butunlay qishloq xo'jaligi korxonalari elkasiga tushmoqda.

Iqtisodiyot rivojini, aholi bandligi va daromadlari o'sishini ta'minlaydigan eng muhim sohalardan biri bo'lgan qishloq xo'jaligini strategik yondashuvlar asosida taraqqiy ettirish zarur.

Tarmoqdagi hozirgi o'sish sur'atlari bizni mutlaqo qoniqtirmaydi. Bu borada bozor mexanizmlarini keng joriy etib, fermer va dehqonlar manfaatdorligini oshirmas ekanmiz, biz kutgan sezilarli o'zgarish bo'lmaydi. Shu bois, **paxta va g'alla etishtirishga davlat buyurtmasini bekor qilib, ushbu mahsulotlarni bozor tamoyillari asosida xarid qilish tizimiga bosqichma-bosqich o'tamiz. Agar bu yo'ldan bormasak, fermer va dehqonlarimiz mahsulot etishtirishda erkin bo'lmaydi, ular o'zlari kutganlaridek manfaat ko'rmaydi, hokimlarning esa ish uslubi o'zgarmaydi.**

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasini isloh qilib, agrar sohaning boshqa tarmoqlariga ham arzon kreditlar ajratish yo'lga qo'yiladi.

Kelgusida Qishloq xo'jaligi vazirligi soha korxonalariga ko'rsatma berish, resurslarni taqsimlash, reja belgilash kabi eski ish usullaridan mutlaqo voz kechishi zarur. Buning o'rniga vazirlik servis tashkilotiga aylanishi, xususiy agrosanoat tashkilotlariga er holatini aniqlash, ekin turlari va urug'ni to'g'ri tanlash, zararkunandalarga qarshi kurashish, moliyaviy ko'maklashish, mahsulot bozorini topish bo'yicha xizmat ko'rsatishi kerak.

Agrar tarmoqda fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash bilan birga, paxta va g'alla etishtirishni klaster shakliga bosqichma-bosqich o'tkazish bo'yicha izlanishlarimizni davom ettiriladi.

Meva-sabzavot, sholichilik, chorvachilik, ipakchilik kabi boshqa tarmoqlarda ham bugungi kun talabiga javob beradigan klasterlarni tashkil etish ishlarini davom ettiriladi.

2020 yil 2 milliard dollarlik, keyingi 5-7 yilda esa 3-4 barobar ko'p meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish uchun mahsulot etishtirishni keskin ko'paytirish choralarini ko'rish zarur.

Parlament ushbu islohotlarimizning huquqiy asosi bo'lgan "Kooperatsiya va klasterlar to'g'risida"gi yangi qonunni tezroq qabul qilsa, ushbu katta reja va niyatlarimizga mos ish bo'lur edi.

2020 yil meva-sabzavotchilik, uzumchilik, urug'chilik, chorvachilik, agro-logistikani rivojlantirish, suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, ilmiy-tadqiqot ishlari, soha uchun malakali kadrlarni tayyorlashga 3 trillion so'm mablag' yo'naltiramiz. Chorvachilik, qorako'lchilik, baliqchilik, parrandachilik kabi sohalarda naslchilikka alohida e'tibor qaratilib, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlari tatbiq etiladi.

2020 yilda 44 ming gektar erda yoki o'tgan yilga nisbatan qariyb 4 barobar ko'p maydonda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etamiz. Buning uchun

davlat byudjetidan 300 milliard so'm subsidiya ajratiladi. Shuningdek, suv xo'jaligi ob'ektlarini boshqarish jarayonlarini, suvni nazorat qilish va uning hisobini yuritish tizimini avtomatlashtirish zarur.[7]

Qishloq xo'jaligini qiyin ahvoldan olib chikish uchun qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalar unga o'z yordamini ko'rsatishi zarur. Shundagina ular qishloq xo'jaligidan arzon va sifatli xom ashyo oladilar, o'z navbatida, qishloq ularning mahsulotlari uchun muhim bozor vazifasini bajaradi.

5-mavzu: Iqtisodiyotni rivojlantirishda kommunikatsiya majmui

Reja:

1. Transport kommunikatsiyasining tuzilmasi.
2. Respublika transport majmuasini tartibga solish.

Tayanch so'z va iboralar: Transport tizimi, transport kommunikatsiyasi, passajir aylanmasi, yuk aylanmasi, tarnsport majmuasi, tashiladigan yuklarning hajmi,yuk tashishning o'rtachi masofasi, statik va dinamik og'irlik.

1- savol bayoni: Temir yo'l transportining iqtisodiyotda tutgan o'rni

Xalq xo'jaligida temir yo'l transportining yo'lovchilar hamda yuk tashishda salmog'i katta. Respublika temir yo'lida bu transport turi MDX doirasida qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston 1972 yilda qurilgan Qo'ng'irot-Beynov magistrali Qozog'iston orqali Rossiyaning Markaziy, Janubiy Ural mintakalariga tutashgan. Xovas-Aris magistrali ham mamlakatni Qozog'iston orqali Rossiyaning Sibir, Uzoq Sharq mintaqalari bilan, Toshkent-Turkmanboshi yo'li Turkmaniston bilan bog'laydi, Navoiy – Nukus yo'li Qozog'iston orqali Rossiyani bog'laydi.

1995 yilda respublikada xalq xo'jaligiga tegishli temir yo'llarning uzunligi 6,6 ming km, shu jumladan, umumiy foydalanadigan qismining uzunligi 3,5 ming km ortiq, asosan sanoat korxonalariga tortilgan (umumiy foydalanilmaydigan) temir yo'llarning uzunligi 3,1 ming km.ni tashkil etdi.

O'zbekistonda dastlabki temir yo'l 1886-88 yillarda Farob stantsiyasidan Samarqandgacha yotkizilgan (Krasnovodsk-Chorjuy temir yo'lining davomi). Bu temir yo'l 1895-97 yillarda Qo'qongacha, 1899 yilda Toshkentgacha etkazildi. 1906 yilda Toshkent-Orenburg temir yo'li ishga tushirildi.

1994 yil noyabrda O'zbekiston Respublikasida joylashgan temir yo'l korxonalari va muassasalari negizida «O'zbekiston temir yo'llari» davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi mamlakat mustaqilligi va iqtisodiyoti uchun ulkan ahamiyatga ega bo'lgan, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Eron, Turkiya va G'arbiy Evropaning janubi bilan tutashtiradigan Transosiyo magistrali (Istanbul-Toshkent-Olmaoto-Pekin) qurilishida hissaboy ishtirok etmokda. Bu magistralning Tajan-Saraxs va Eronda Saraxs-Mashxad qismlari qurilib foydalanishga topshirildi (1996y. 13 may) va yo'lda poezdlar

[7] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. Халқ сўзи 24 январь 2020 йил.

qatnovi boshlandi. Respublika quruvchilari uzunligi 133 km bo'lgan Tojan-Saraxs yo'lini qurishda faol qatnashdi. O'zbekiston temir yo'li kelajakda bu katta yo'lning markaziy bo'g'ini bo'lib qoladi. Bu yo'ldan Buxora-Beynov orqali Evropaga, Tajan-Saraxs orqali Yaqin Sharq mamlakatlariga chiqish mumkin. Respublika temir yo'l transportini rivojlantirish istiqbollarining Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti mamlakatlari (Eron, Turkiya, Pokiston, Markaziy Osiyo davlatlari Afg'oniston, Ozarbayjon) o'rtasidagi katta rejasida belgilangan vazifalar bo'yicha hamkorlik yunalishlari ham ishlab chiqilmoqda.

«O'zbekiston temir yo'llari» 50 mingdan ortiq turli tipdagi yuk vagoni va Germaniyada tayyorlangan refrejeratorlarga, 1450 yo'lovchi tashiladigan vagonga ega. Kompaniyaning temir yo'ldan foydalanishga mas'ul bo'lgan Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Orol bo'yi, Qarshi temir yo'l bo'limlari bor. 2001 yil umumiy foydalaniladigan temir yo'l transportida 66,2 mln.t yuk tashildi. 20 tonnali konteynerlar bilan yuk tashish respublikadagi 12 stantsiyada (Shumilov, Jizzax, Kakar, Marg'ilon, Andijon, Rauston, Ulug'bek, Tinchlik, Buxoro-2, Qarshi, Urgench)da amalga oshiriladi, kelajakda Nukus temir yo'l stantsiyasi shular jumlasiga kiradi.

Tashiladigan yuklarning asosiy qismini qurilish materiallari (umumiy tashiladigan yuk hajmining 21%i), paxta tolasi (3%), neft va neft mahsulotlari (35%), g'alla, tsement, kimyoviy mahsulotlar va mineral o'g'itlar, ko'mir, sabzavot va boshqa xalq xo'jaligi yuklari tashkil etadi. Yuk tashishda teplovozlar, yo'lovchilar tashishda teplovoz va elektropoezdlar xizmat ko'rsatadi. 2001 yil temir yo'l transportida 18,4 mln. yo'lovchi tashildi. O'zbekistonda transport turlari bo'yicha yuk tashish tarkibi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida).

Temir yo'l transporti iqtisodiyotning asosiy qon tomiri hisoblanadi. Dunyo okeaniga chiqadigan dengiz yo'llaridan olisda joylashgan, xalqaro tranzit yo'llaridan chetda bo'lgan O'zbekiston uchun bu transport turi yanada muhim ahamiyatga ega. Shuni hisobga olib, istiqlolning dastlabki yillaridayoq

Temir yo'l transportidagi so'nggi islohotlar haqida to'xtaladigan bo'lsak Toshkentda 52 kilometrli er usti metrosi qurilishi 2017 yilda boshlandi. Ikki izli elektropoezd qatnovi loyihasi o'rniga qurilaetgan er usti metrosi 4 yilda bitishi kutilmoqda.

2017-2021 yilga mo'ljallangan loyiha besh bosqichda amalga oshiriladi. Dastlabki bosqichda Toshkent metropolitenining "Do'stlik" bekatidan Qo'yliq bozorigacha bo'lgan qismi quriladi. Uzunligi 11 kilometr bo'lgan ushbu qismida sakizta bekat bunyod etishi mo'ljallangan.

Ikkinchi bosqich Qo'yliq bozori bilan "Olmazor" bekatini bog'laydi. Uchinchi bosqichda "Olmazor" bilan "Beruniy" bekatigacha bo'lgan qismi barpo etiladi. Keyingi bosqichda inshoot "Beruniy" dan "Bodomzor bekatigacha quriladi, so'nggi bosqichda "Do'stlik" bekatiga ulanadi.

Halqa elektrichkasi 320,1 mln dollarga tushishi aytilgan edi. Yangi loyiha bahosi 422,3 mln. dollarni tashkil etdi.

52,1 kilometrli yangi er usti metrosi Yashnobod, Yakkasaroy, Uchtepa, Shayxontohur, Olmazor, Yunusobod, Chilonzor va Sergeli hududlaridan o'tadi. 2021 yilgacha – to'rt yil ichida 35 ta yangi metro bekati quriladi.

Avtomobil transporti va yo'llari.

Respublikamizda qariyib 200 ming kilometr uzunlikdagi avtomobil yillari mavjud bo'lib, shundan 426670 kilometr umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari hisoblanadi.

O'zbekiston avtomobil yo'llari:

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari;
- xo'jalik avtomobil yo'llari;
- - xo'jalik avtomobil yo'llari shaxarlar va boshqa aholi punktlarining ko'chalariga bo'linadi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari:

- xalqaro avtomobil yo'llari;
- davlat avtomobil yo'llari;
- mahalliy (viloyat) ahamiyatiga molik avtomobil yo'llariga bo'linadi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari va umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari tarkibiga kiruvchi barcha inshootlar bilan birgalikda davlat mulki hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi qonunida belgilangan tartibda foydalanishga topshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq xalqaro avtomobil yo'llari jumlasiga kiradi. Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 3979 kilometrga teng. O'zbekiston hududi bo'ylab 20 ta xalqaro transport yo'nalishlari bor, ular Rossiya, Ukraina, Evropa mamlakatlari, Kavkaz, Afg'oniston, Pokiston, Eron, Turkiya va Xitoyga yo'naltirilgan.

O'zbekistonda xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo'llariga quyidagilar kiradi:

M-34 Toshkent – Dushanbe (Toshkent – Yangiyo'l – Sirdaryo - Guliston – Xovos – Dushanve O'zbekiston respublikasi hududida).

M-37 Samarqand – Ashxobod – Turkmanboshi Buxoro – Chorjou – Mari orqali (Samarqand – Ishtixon – Kattaqo'rg'on – Karmana – Buxoro – Chorjou O'zbekiston respublikasi hududida).

O'zbekiston Respublikasi viloyatlari va tumanlarining ma'muriy markazlari, viloyatga bo'ysunuvchi shaxarlar, madaniyat va sanoat markazlari o'rtasida transport qatnovini ta'minlaydigan yo'llar davlat ahamiyatiga molik yo'llar jumlasiga kiradi. Ularning umumiy uzunligi 16909 kilometrni takshil etadi.

Tumanlarning ma'muriy markazlarini shaxarchalar, qishloqlar va ovullar bilan, shuningdek, davlat ahamiyatiga molik yo'llar bilan bog'laydigan yo'llar mahalliy ahamiyatga ega avtomobil yo'llari jumlasiga kiradi. Ularning umumiy uzunligi 21995 kilometrni tashkil etadi.

Respublika xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari va mamlakat aholisi ehtiyojlarini qondirish darajasida rivojlangan avtomobil transportiga ega. Xalq xo'jaligining sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, suv xo'jaligi, aloqa, savdo, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jaligi, madaniyat, mudofaa va boshqa tarmoqlarida ixtisoslashtirilgan yirik avtotransport korxonalari mavjud.

Transport-kommunikatsiya tarmog'ini modernizatsiya qilish va tranzit salohiyatini oshirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilishi mamlakatimizning xalqaro transport kommunikatsiyalariga integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda. 2015-2019 yillarda muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini

rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturiga muvofiq, 2016 yilda Respublika Yo'l jamg'armasi tomonidan 520,1 kilometr avtomobil yo'llari qurilishi va ta'mirlanishi yakunlandi.

Farg'ona vodiysini mamlakatimizning boshqa hududlari bilan ishonchli tarzda bog'lovchi, Qamchiq dovonidan 19,2 kilometr uzunlikdagi er osti yo'li orqali o'tuvchi yangi Angren–Pop elektrlashtirilgan temir yo'l tarmog'i qurildi. Mazkur temir yo'lning foydalanishga topshirilishi bilan mamlakatimizning barcha hududlarini qamrab oluvchi yagona temir yo'l tizimi to'liq yaratildi.

Toshkent–Buxoro va Buxoro–Toshkent yo'nalishi bo'yicha yuqori tezlikda harakatlanadigan «Afrosiyob» yo'lovchi elektr poezdlari qatnovi yo'lga qo'yildi. 291,5 kilometr uzunlikdagi Samarqand–Buxoro temiryo'l qismini elektrlashtirish loyihasi yakunlandi. Havo kemalari parki 2 ta zamonaviy «Boeing 787-800 Dreamliner» samolyoti bilan to'ldirildi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2016 yilda yuk tashish hajmi 5 foizga, shundan avtomobil transportida 5,3 foizga, havo transportida 8,8 foizga oshdi[8].

Davlatimiz rahbari shu yil 14 yanvarda bo'lib o'tgan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaganlaridek, "Hayotning o'zi va o'tgan yillar tajribasi hududlarni kompleks rivojlantirishni va infratuzilma faoliyatini tubdan o'zgartirishni ta'minlashdagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etishni talab qilmoqda.

Shu sababli yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha dasturlarning prognoz parametrlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni nazorat qilish hamda ularga erishish lozim.

Sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017—2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi muhim dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturining asosiy maqsadi - ushbu vazifalarni amalga oshirishdir. Unga muvofiq milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish uchun yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha aniq vazifalar rejalashtirilgan.

jadval

Avtomobil yo'llari holatini yaxshilash va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish tadbirlari

Amalga oshiriladigan tadbir	**Bajarish muddati**	**Sarf-xarajatlar (mln. so'm)**
«Talgo-250» rusumidagi 2 ta yuqori tezlikdagi yo'lovchi poezdini sotib olish loyihasini amalga oshirish	2017 yil 1-yarmi	42,0 mln.doll.
Qarshi-Termiz temir yo'l tarmog'ini elektrlashtirish	Yil davomida	160,3 mln.doll.
Buxoro-Miskin yangi temir yo'l tarmog'ini qurish	Yil davomida	143,0 mln.doll.
Pop-Namangan-Andijon temir yo'l tarmog'iini	2017 — 2019	18,0 mln.doll.

[8] www.gov.uz/uz/news/category/1

elektrlashtirish	yillar	
Temir yo'llarni qayta tiklash	2017 — 2019 yillar	51,1 mln.doll.
Yo'lovchi vagonlar tarkibini yangilash	2017 — 2019 yillar	8,1 mln.doll.
Toshkent shahar aeroporti yangi xalqaro yo'lovchi terminalini (Toshkent-4) qurish loyihasini amalga oshirish	2017 — 2019 yillar	jami — 343,6 mln.doll., shundan, 2017 yilda — 152,9 mln. doll.

Avtomobil yo'llari holatini yaxshilash va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida investitsiya dasturi doirasida Respublika yo'l jamg'armasining 1550000 million so'm mablag'lari o'zlashtirilishi qo'zda tutilgan bo'lib, u quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

umumiy foydalanishdagi xalqaro, respublika va mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruktsiya qilish;

xo'jaliklararo avtomobil yo'llarini ta'mirlash;

shahar ko'chalari, aholi punktlariga kirish va ichki yo'llarni qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash;

yo'l xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash;

qurilish materiallarining innovatsion turlaridan hamda zamonaviy ilg'or texnologiyalar va usullardan foydalangan holda, avtomobil yo'llari sifatini yaxshilashni belgilovchi standartlarni takomillashtirish.

Dasturning maqsadi – aholi farovonligi va hayot sifatini yanada oshirishdir. Mamlakatimizda transport kommunikatsiyalari, zamonaviy telekommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish, muhandislik-infratuzilma ob'ektlarini barpo etish bo'yicha izchil chora-tadbirlar rejalashtirilgan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish doirasida 2017 yilda axborot texnologiyalari vazirligi tomonidan mamlakatimiz hududlarida 2300 kilometr optik tolali aloqa tarmoqlarini qurishga 5,7 million dollar mablag' jalb etiladi. Buning natijasida mamlakatimiz aholisining yuqori tezlikda Internetga ulanishi, multimedia va IP-TV xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytiriladi.

2017-2018 yillar davomida "O'zbektelekom" kompaniyasi mablag'lari, xorijiy investorlar kreditlari hisobidan kommutatsiya markazlarini IMS texnologiyasi asosida modernizatsiya qilishga 44,7 million dollar investitsiyalar kiritish rejalashtirilgan bo'lib, uning amalga oshirilishi shaharlararo avtomatik telefon stantsiyalar sig'imini 17152 ta E1 portga oshirilishiga yordam beradi

Mobil aloqa operatorlarining tarmoqlari qamrovi hududlarini kengaytirishga erishish maqsadida «O'zbektelekom» AK va mobil aloqa operatorlari tomonidan 115,2 million dollar mablag' evaziga 1843 ta tayanch stantsiya o'rnatish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan.

2-jadval

O'zbekistonda transport turlari bo'yicha yuk tashish tarkibi (umumiy hajmga nisbatan % hisobida)

№	Soha	Yo'lovchi tashish	Yo'lovchi aylanmasi
1.	Avtomobil transporti	0,5	6,9

2.	Quvur transporti	0,03	11,6
3.	Temir yo'l	8,6	5,2
4.	Havo yo'llari	90,9	76,3

3-jadval

O'zbekistonda transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi tarkibi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

№	Soha	Yo'lovchi tashish	Yo'lovchi aylanmasi
1.	Temir yo'l	0,5	6,9
2.	Havo yo'li	0,03	11,6
3.	Shahar elektr transporti	8,6	5,2
4.	Avtomobil transporti	90,9	76,3

2018 yil respublikada umumiy foydalanadigan avtomobil transportida yo'lovchilar tashishga mo'ljallangan 16,7 ming avtobus, 5,5 mingdan ko'proq engil taksi mashinalari ishladi. Respublika bo'yicha 2992 avtobus marshrutlarida (jumladan, 623 shaxar, 1798 shaxar, 572 shaxarlararo) avtobuslar qatnadi. Avtobuslar bilan 6 mln. ga yakin yo'lovchi tashiladi. Respublikada 27 avtovokzal, 120 avtostantsiya xizmat ko'rsatadi. Faqat shaxarlardagi avtobus marshrutlarida turli markadagi 3,65 minga yakin avtobus qatnaydi.

O'zbekiston va Qoraqolpog'iston xalq xo'jaligi tasarrufida turli maqsadlarga mo'ljallangan 200 migga yakin yuk avtomobillari, 45,4 ming avtobus, 50,9 ming engil avtomobil xizmat ko'rsatadi. Shuningdek, fuqarolarning shaxsiy mulki bo'lgan 801,2 ming engil avtomobil bor.

Yuk va yo'lovchilar tashuvchi umumiy foydalaniladigan avtomobil transportining yirik korxonalari «O'zavtotrans» davlat aktsionerlik korporatsiyasi tarkibiga kiradi. Korporatsiya 1993 yil yanvarda tashkil etilgan. Tarkibida aktsiyadorlar jamiyatlariga aylantirilgan, yo'lovchi tashishni amalga oshiridigan 99, yuk tashish bilan shug'ullanadigan 99 va aralash 67 avtokorxona bor. Bu avtokorxonalarda 14 mingdan ortiq avtobus, 24,6 ming yuk avtomobili (10 mingga yakini o'zi ag'daruvchi mashinalar) bo'lib, ularda 2001 yili 420,6 mln.t ga yaqin yuk tashildi. Bu jami transport turlarida tashilgan umumiy yuk hajmining 24,7 foizini avtomobil transportida tashilgan yukning 36,8 foizini tashkil etadi.

Korporatsiyasining «O'ztashqitrans» savdo-transport birlashmasi va «O'zbekavtotur» firmasi xalqaro yuk tashish va yo'lovchilar qatnoviga xizmat ko'rsatadi. Keyingi yillarda korparatsiya aholiga avtotransport xizmati ko'rsatishni rivojlantirmoqda. Shaxarlararo yuk tashishni «O'zshaxarlararotrans» ishlab

chiqarish birlashmasi korxonalari amalga oshiradi. Avtomobil transporti tizimida «Yo'lovchi» O'zbekiston aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi yo'lovchilarni sug'urta qilish ishlari bilan shug'ullanadi. Keyingi yillarda bozor iqtisodiyotidan kelib chiqib, yuk avtomobillari gaz yoqilg'isi bilan ishlashga o'tkazilmoqda.

O'zbekiston va Qoraqolpog'iston Respublikasi rivojlangan, zamonaviy talablarga javob beradigan, xalqaro, respublika mahalliy ahamiyatliga molik yo'l xo'jaligiga ega. Yo'l xo'jaligi tarmoqlararo 43,5 ming ishchi va muxandis-texnika xodim band. Respublikadagi avtomobil yo'llarining jami uzunligi 175 ming km dan ortiq. Umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarining uzunligi 53,4 ming km. Ularning jumladan 3843 kilometri xalqaro, 1980 kilometri davlat (respublika) ahamiyatliga, 23439 km mahalliy (viloyat) ahamiyatga ega yo'llardir. Shuningdek, respublikada idoralar (korxona, jamoa xo'jaliklari, xo'jalik tashkilotlari) ga qarashli yo'llar ham mavjud.

1992 yil 3 iyulda «Avtomobil yo'llari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. 1992 yil fevralda O'zbekiston avtomobil yo'llarini qurish va undan foydalanish davlat-aktsiyadorlik kontserni («O'zavtoyo'l») tuzildi. Kontsern tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar avtomobil yo'llari boshqarmalari, 532 ta yo'llarni asrash va ulardan foydalanish bo'limlari, «O'zyo'lloyiha» respublika yo'l va inshootlar qurish, qayta qurish va tamirlash bo'yicha loyiha- qidiruv instituti, ko'prik temir – beton qurilmalari zavodi va boshqa korxonalar bor. XX-asr boshida O'zbekistonda 27 ming km yo'l bo'lib, asosan ot-arava, karvon va yo'lovchilarga mo'ljallangan, shundan faqat 2 ming km ga shag'al yotkizilgan edi. Respublika mustaqillikka erishgandan keyin mavjud avtomobil yo'llarni xalqaro andozalarga moslash, ularni saqlash va ta'mirlash, yangi barpo etilayotgan sanoat rayonlarini xalqaro magistrallar bilan bog'laydigan yo'llar qurilishi masalalariga etibor kuchaydi. Bu borada republika Xitoy va Pokistonga chiqish imkoniyatini beruvchi Andijon-Ush-Ergaitom-Qashqar avtomobil yo'lini ishga tushirishda (1997yil 21iyul) Hind okeaniga chiqishga imkon beradigan Termiz-Xirot-Karachi avtomobil yo'li qurilishida o'z ulushi bilan qatnashmoqda. Respublikaning o'zida Farg'ona vodiysi bilan Toshkent vohasini Kamchik davoni (tankel) orqali bog'laydigan yirik avtomobil yo'li Hamda Qo'ng'irot-Beynov avtomagistrali qurilishi jadal olib borilmoqda.

Respublikada jami yo'llarning 95,6% iga qattiq qoplamalar yotqizilgan, jumladan, tsement-beton qoplamali yo'llar 0,8%ni (336 km), asfalt-beton koplamali yo'llar 49,6% (21819km), qora shag'alli va qora qoplamali yo'llar 40,6% (17796 km)ni tashkil etadi.

Havo, suv va boshqa transport vositalari. O'zbekiston jahondagi ko'p mamlakatlarning poytaxtlari, yirik shaxarlar, sanoat markazlari bilan havo yo'llari orqali bog'langan.

Respublikaning havo transporti-fuqaro aviatsiyasi tarixi 1920 yillardan boshlanadi. 1924 yil 12 mayda uzunligi 800 km bo'lgan Toshkent-Avliyoota (Jambul)-Pishpek (Beshkek)-Olmaota marshrutida dastlabki yo'lovchilar tashish reysi amalga oshirildi. O'sha yili uzunligi 450 km bo'lgan Kogon-Oktukay-Darg'onota-Xiva hamda Buxoro-Termiz-Dushanbe havo yo'llari ochildi. 1930 yildan Toshkent –Moskva yo'lida samolyotlar muntazam qatnay boshladi.

Aviatsiyadan qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi ko'rashda va sanitariya maqsadlarida ham foydalanildi.

Respublika mustaqillikka erishganidan keyin 1992 yildan sobiq ittifoq tasarrufida bo'lgan O'zbekiston Fuqaro aviatsiyasi boshqarmasi, fuqaro aviatsiyasining 243-ta'mirlash zavodi, «Aviaqurilish» birlashmasiga qarashli «Aviamaxsusmontajsozlash» negizida «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi tashkil etildi.

Respublikaning, ayniqsa, xorijiy mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy, turistik aloqalarini yo'lga qo'yishda O'z havo transporti muhim rol o'ynamoqda. «O'zbekiston havo yo'llari»ning bir qancha Evropa va Osiyo, Amerika mamlakatlarida vakolatxonalari ochildi. 1993-95 yillarda 18 ta yangi xalqaro marshrutlarda samolyotlar qatnovi yo'lga qo'yildi: 1993 yildan Toshkentdan MDX dan tashqari London, Manchester, Frankfurt-Mayn, Tel-Aviv, Sharja, Jidda, Istanbul, Karachi, Dexli, Kuala-Lumpur, Bangkok, Pyokin, Afina, Amstyordam, Seul va Nyu-York shaxarlariga muntazam xalqaro aviareyslar, Xalab (Amppo), Singapur Hamda Osiyo va Evropaning ko'pgina mamlakatlariga yo'lovchi tashish reyslari bajariladi.

«O'zbekiston Havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi Germaniya, Frantsiya, Rossiya firmalari bilan turli sohalarda hamkorlik qilmoqda. 1993 yildan shunday hamkorlik natijasida Evropaning yirik «Erbas indastri» kontsernidan «O'zbekiston Havo yo'llari» milliy aviakopaniyasi sotib olgan «Erbas»-A-310-300 avtobuslari xalqaro marshrutlarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsata boshladi.

«O'zbekiston Havo yo'llari» aviakompaniyasi va Nukusdagi bo'linmasi xilma-xil tipdagi havo kemalariga ega: qishloq xo'jalik ishlariga mo'ljallangan «AN-2», mahalliy (respublika ichida) havo yo'llarida qatnaydigan «AN-24», «YaK-40», xalqaro klassdagi «IL-76», «IL-62», «IL-86», «TU-154», «A-310» kabi samolyotlar, vertolyot parkida «MI-2», «MI-8», «KA-26» kabi mashinalar bor. Respublikada «AN-2» samolyoti, «MI-2», «MI-8», «KA-26» vertolyotlaridan iborat maxsus maqsadlardagi aviatsiya parki qishloq xo'jaligi, tibbiy-sanitariya xizmati, meteorologiya, geologiya-qidiruv, gaz sanoati va boshqa sohalarda unumli ishlatiladi. 1996 yildan «BOING-757» va «BOING-764» samolyotlari, mahalliy havo yo'llarida IL-114, Rj-85 samolyotlaridan foydalanilmoqda.

«O'zbekiston Havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi tarkibida 12 zamonaviy aerovokzal (aeroport)bor. Bular Toshkent. Samarkand, Andijon, Buxoro, Navoiy, Namangan, Nukus, Termiz, Urganch, Farg'ona, Qarshi, Qo'qon shaxarlarida. Sergeli, Uchkuduq, Zarafshon, Sariosiyo, Shaxrisabz, Ko'ng'irot, Turtkul,

Mo'ynoq shaxarlaridagi aeroportlar viloyat markazidagi aeroportlarga qaraydi, «YaK-40», «AN-24» samolyotlarini qabul qilishga moslashtirilgan.

Viloyat markazlaridagi aeroportlar «TU-154»,Samarqand, Namangan, Urganch, Termiz aeroportlari «IL-62», «IL-76», Nukus aeroporti «IL-86», «A-313» aerobuslarni qabul qilishga qodir.

Toshkent, Samarkand, Termiz, Nukus aeroportlari xalqaro maqomga ega. Respublika Xukumati qaroriga ko'ra, yangi yirik xalqaro aeroport, Uchkuduqda jahondagi eng ilg'or andozalarga mos keladigan katta aeroport qurilishi boshlandi.

XX-asr boshlarida Amudaryo va Orol dengizidagi suv yo'llari bo'ylab yuklar va yo'lovchilarning ancha qismi tashilgan. 1924 yilda kema va qayiqlar qatnaydigan suv yo'llarining umumiy uzunligi 887 km edi. Amudaryo xarbiy floti, «Xiva», «Merkuriy» aktsiyadorlik jamiyatlari kemalarida, shuningdek xususiy qayiqlarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatilgan, zarur yuklar tashib berilgan. O'sha davrda O'rta Osiyo suv yo'llarida umumiy yuk ortish quvvati 7 ming t bo'lgan kema va 50 barja, umumiy yuk ortish quvvati 24 ming t bo'lgan 1500 kayik bor edi. 1980 yilda O'zbekistonda suv yo'llarining umumiy uzunligi 2800 km ga etdi. Amudaryo Panji (Tojikiston) bandargoXidan Mo'ynoqqa qadar paraxodlar qatnovi amalga oshirildi.

Daryo suvining kamayishi va Orol dengizining qurib borishi natijasida suv yo'llari keskin qisqardi, ammo shunga qaramay 1980 yili daryo transportida 1420 ming t. yuk tashildi. O'rta Osiyo respublikalari mustaqillikka erishganlaridan keyin O'rta Osiyo paroxodchiligi Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston o'rtasida taqsimlandi. 1994 yil may oyida O'zbekiston Respublikasida joylashgan daryo floti bo'linmalarini boshqarish tartibi qayta tashkil etildi. O'rta Osiyo paroxodchiligining O'zbekistondagi bo'linmalari negizida «Termiz daryo porti», «Xorazm daryo floti», «Qoraqalpog'iston daryo floti» ishlab chiqarish birlashmalari tashkil etildi. «O'zavtotrans» korparatsiyasi hududida daryo floti ishini muvofiqlashtirish bo'yicha bosh boshqarma (Toshkentda) tuzildi. Respublikada Termiz daryo porti, Sharlovuk, To'rtko'l, Beruniy, Qaratov, Xo'jayli bandargoxlari, Amudaryo orqali To'rtko'l-Xonka, Chalish-Beruniy suzma ko'priklari, Xo'jayli kema tamirlash zavodi ishlab turibdi. Termiz daryo porti yiliga 2,5 mln. t. yukni qabul qilish - jo'natish quvvatiga ega. U Afg'onistonning Xayraton bandorgoxi orqali eksport-import yuklarini etkazib berishda xalqaro ahamiyatga molik. Respublika daryo flotida 150 ga yaqin teploxod, shuningdek barjalar, zemlesoslar, suzuvchi ekskavatorlar, port kranlari va boshqa yordamchi kemalar, texnika vositalari bor. Respublika suv yo'llarining umumiy uzunligi 1000 km ga yakin. Xalq xo'jaligi yuklari asosan Termiz-Xayraton, Sharlovuk-To'rtko'l, Xo'jayli-To'rtko'l, Xo'jayli-Beruniy, Koratov-Taxiyatosh yo'nalishlarida tashilmoqda. O'zbekistonning port va bandorgoxlari temir yo'llar bilan bog'langan.

Respublikada truboprovod transporti ham alohida o'rin tutadi. O'zbekistonda 20 km uzunlikdagi birinchi nefteprovod 1905 yil Chimyon neft konidan Vannovsk (hozirgi Oltariq) neftni qayta ishlash zavodi tortilgan. Keyinchalik Farg'ona vodiysi, Surxondaryo viloyatida yangi neft konlari ochilishi bilan transportning bu

turi jadal rivojlantirildi. Neft konlaridan Farg'ona va Oltariq neftni qayta ishlash zavodlariga umumiy uzunligi 228,5 km bo'lgan nefteprovodlar qurildi. Respublika janubida-Surxondaryo viloyatida 1947 yil Lalmikor - Qumko'rg'on va 1969 yil Amudaryo- Amu-Zang liniyalari barpo etildi (umumiy uzunligi 40 km). Qashqadaryo yangi neft konlari ochilganidan keyin 1967 yil G'arbiy-Toshloq-Qashqadaryo statsiyasi (3,3 km) Shimoliy O'rtabulok-Oltingugurt zavodi (72 km) nefteprovolari ishga tushirildi. 1994-1997 yillarda uzunligi 100 km bo'lgan Ko'kdumaloq-Buxoro neftni qayta ishlash zavodi nefteprovodi qurilib, ishga tushirildi. Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini xom ashyo bilan uzluksiz ta'minlashga xizmat qiladigan Kamchik davoni orqali o'tadigan Xonobod-Angren nefteprovodi qurulishini loyihalash ishlari olib borilmoqda. Buxoro, Qashqadaryo viloyatlarida ulkan gaz konlarining topilishi va ishga tushirilishi bilan O'zbekistonda gazprovod transporti rivoj topdi.

Metropoliten yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishda tabora katta ahamiyat kasb etmokda. Respublikada metro qurilishi Toshkent shaxrida 1972 yildan boshlandi. Uning uzunligi 12,2 km bo'lgan «Sobir Raximov»-«Maksim Gorkiy» statsiyalari 1-yo'lining birinchi navbati 1997 yil 6 noyabrda, 4,6 km li 2-navbati 1980 yil 18 avgustda ishga tushirildi. Toshkent metropolitenining ikkinchi yo'li «Mashinasoz»-«Beruniy» statsiyalari 1984-91 yillarda 4 navbat bilan bosqichma-bosqich foydalanishga tushirildi (uzunligi qariyb 15 km). Toshket metropolitenining 3-yo'li shaxar markazini Yunusobod daxasi bilan bog'laydi. Uzunligi 14 km bo'lgan bu yo'l ham ishga tushirildi. Metropolitenda sutkasiga o'rtacha 300-500 ming yo'lovchi tashiladi.

O'zbekiston milliy avtomagistrali loyihasi tarkibiga kiradigan tsement-beton qoplamali 222 kilometrlik avtomobil yo'lini qurish va rekonstruktsiya qilish uchun Osiyo taraqqiyot banki bilan 600 million dollar miqdorida kredit mablag'larini jalb qilish to'g'risida shartnoma imzolandi.

Havo transporti va temir yo'l parklarini yangilash ishlari davom ettirilmoqda. O'tgan yili "Eyrbas indastri" kompaniyasining 6 ta A-320-200 rusumli samolyoti, 8 ta zamonaviy elektrovoz sotib olindi, 1 ming 790 ta yuk tashiydigan va 38 ta yo'lovchi tashiydigan vagonlar qurildi, ta'mirlandi va modernizatsiya qilindi.

Toshkent – Andijon avtomobil yo'lining «Qamchiq» dovoni orqali o'tadigan tog'li uchastkasini rekonstruktsiya qilish, bu erda 4 polosali, tsement-beton qoplamali yo'l qurilishi bo'yicha ishlarni jadallashtirish zarurligiga qaratmoqchiman. Biz Farg'ona vodiysi mintaqalarini mamlakatimizning boshqa mintaqalari bilan yil davomida ishonchli va kafolatli bog'lab turadigan transport aloqasini ta'minlandi.

Joriy yilda temiryo'lchilarimiz oldida ham ulkan vazifalar turibdi. Xususan, Jizzax – Yangier yo'nalishi bo'yicha elektrlashtirilgan ikki yo'lli temiryo'l tarmog'i va Yangier – Farhod yo'nalishi bo'yicha elektrlashtirilgan bir yo'lli temiryo'l tarmog'i qurilishini nihoyasiga etkazish, Maroqand – Qarshi va Qarshi – Termiz yo'nalishi bo'yicha strategik ahamiyatga ega bo'lgan temiryo'l

tarmoqlarini elektrlashtirish loyihalarini amalga oshirishga kirishish zarur. Bu, o’z navbatida, sarf- xarajatlarni 20 foizga kamaytirish va yo’lovchi hamda yuklarni manzilga etkazish tezligini 1,3 barobar oshirish imkonini beradi.

2010 yilda tashkil etilgan “Angren” logistika markazini yanada rivojlantirishni ko’zda tutish, joriy yilda “Qamchiq” dovoni orqali kamida 5 million tonna yuk tashishni ta’minlandi. Buning uchun Hukumat ushbu markazning konteyner bilan keladigan yuklarni qabul qilib olish, saqlash va jo’natish quvvatini oshirish, uni Samarqand avtomobil zavodida ishlab chiqarilayotgan “MAN” avtotyagachlari bilan ta’minlash bo’yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak.

Shuningdek, hozirgi vaqtda xalqaro transport logistikasining global tarmog’ida barqaror o’rin egallagan “Navoiy” aeroporti bazasidagi Xalqaro logistika markazini yanada rivojlantirishni ta’minlash darkor. Joriy yilda “O’zbekiston havo yo’llari” milliy aviakompaniyasi mazkur aeroport operatori bo’lmish “Korean Eyr” kompaniyasi bilan hamkorlikda havo qatnovlari geografiyasini yanada kengaytirish, aeroport infratuzilmasini takomillashtirish va hajmi tobora ortib borayotgan yuklarni tashish uchun samolyotlar sonini ko’paytirish ishlarini davom ettirishi zarur.

O’zbekiston milliy avtomobil magistralini qurish va rekonstruktsiya qilish bo’yicha loyihalar doirasida 302,5 kilometr uzunlikdagi yo’lga zamonaviy qoplama yotqizilib, rekonstruktsiya qilindi. Toshkent va Buxoro shaharlari aeroportlarining mahalliy yo’nalishlarda xizmat ko’rsatadigan yo’lovchi terminallari foydalanishga topshirildi.

Toshkent — Samarqand yo’nalishida mazkur ikki shahar o’rtasidagi 344 kilometr masofani atigi 2 soatda bosib o’tadigan, yuqori tezlikda harakat qiladigan “Talgo-250” yo’lovchi elektr poezdlari qatnovi yo’lga qo’yildi.

Bu poezdlardan foydalanish maqsadida temir yo’l infratuzilmasini modernizatsiya qilish va takomillashtirish bo’yicha keng ko’lamdagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 600 kilometr uzunlikdagi yo’llar qaytadan tiklandi, 68 kilometrdan iborat yangi temir yo’llar yotqizildi, Toshkent va Samarqand shaharlari temir yo’l vokzallari rekonstruktsiya qilindi va qaytadan jihozlandi.

O’tgan yil mobaynida telekommunikatsiya tizimini rivojlantirishga qaratilgan bir qator loyihalarni amalga oshirish ishlari davom ettirildi. Xususan, Jizzax — Bulung’ur yo’nalishi bo’ylab 73 kilometr uzunlikdagi optik tolali aloqa liniyasi o’tkazildi, mobil aloqa va Internet tarmog’i ko’lami tobora faol kengayib bormoqda. Yurtimizda aholiga raqamli televidenie xizmati ko’rsatish hajmi 38 foizga etgani ham shu boradagi ulkan ishlarimizning amaliy natijasidir.

2-savol bayoni: O’zbekiston Respublikasida umumiy foydalaniladigan yuk va yo’lovchilar tashuvchi transportning barcha temir yo’l, avtomobil, aviatsiya, shaxar elektr transport, daryo, truboprovod transporti, shuningdek, umumiy foydalanilmaydigan - temir yo’l, avtomobil, tasmali transport, osma arqon transporti rivoj topgan. Transport tarmoqlarida band bo’lgan ishchi-xizmatchilarning o’rtacha yillik soni 318,1 ming nafarni, jumladan, temir yo’l

transportida 62,1 ming, suv, daryo transportida 0,6 ming, avtomabil, shaxar elektr transporti, yuk ortish- tushirish korxonalarida 303,8 ming nafarni tashkil etdi. n.

Respublikada transportning xalq xo'jaligiga va aholiga xizmat ko'rsatishini tubdan yaxshilash va transport boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadlarida «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi», «O'zbekiston avtomabil transporti», davlat aktsiyadorlik korportsiyasi, «O'zbekiston temir yo'llari» davlat - aktsiyadorlik kompaniyasi va boshqa idoralar tashkil etildi. Mamlakat transport korxonalari davlat ishtirokidagi aktsionerlik kompaniyalari, korporatsiyalari, ochiq turdagi aktsionerlik, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga, jamoa korxonalariga aylantirildi.

Respublikada avtotransport vositalarining bir qismi jamoa xo'jaliklari, fuqarolarning mulki. Sanoat va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning o'sish, keng miqyosdagi kapital qurilishi va transport moddiy - texnika bazasining yuksalishi bilan yuk va yo'lovchilar tashish hajmlari ham orta bordi. Respublikamizning umumiy yuk oborotida transport turlarining solishtirma hissasi ham o'zgardi. Umumiy foydalanishdagi va sanoat transporti turlarida yuk, avtomobil tarnsportida esa yo'lovchilarning asosiy qismi tashildi.

Respublikada transport iqtisodiy rayonlar va korxonalar, xalq, xo'jaligi tarmoqlari o'rtasida, shuningdek, mamlakatlaro iqtisodiy aloqalarni ta'minlaydi.

Respublikaning transport tizimi temir yo'l, avtomobil yo'llari, zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan vokzallar, stantsiyalar, yuk omborlari va boshqa infratuzilma bo'linmalarini qamraydigan murakkab xalq xo'jaligi majmuini tashkil etadi.

Transport majmuini tartibga solishda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

tashiladigan yuklarning hajmi;

yuk oboroti;

yo'lovchi oboroti;

yuk tashishning o'rtacha masofasi

harakatdagi transport vositalaridan foydalanishning texnik ko'rsatkichlari.

Bu ko'rsatkichlar har bir transport turining xususiyatlariga qarab ajratiladi. Temir yo'l transporti texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ko'ra bo'linadi: a) 1-vagonga to'g'ri keladigan statik va dinamik og'irlik; b)vagonlarning aylanish vaqti; v) texnik va uchastka tizimi; g) yuk vagonlarining o'rtacha sutkalik mehnat unumdorligi.

Iqtisod qilish, yani tejash natijasida olingan moddiy yoki moliyaviy resurs, vaqt, foyda. Iqtisodiyotning asl ma'nosi uy xo'jaligini yuritish, xo'jalikni boshqarish san'ati.

Iqtisodiyot keng ma'noda esa:

-xizmat ko'rsatish mablag'larining korxona miqyosidagi boshqarish subektiga bog'liqligi;

-ishlab chiqarish munosabatlarining jami (tizimi), jamiyatning ijtimoiy bazasi;

-mamlakat, respublika, viloyat, tumanlar xo'jaligi, ayrim bir tarmoq, masalan transportning bir tarmog'i - avto transporti; sanoat; qishloq xo'jaligi;

-ishlab chiqarish munosabatlarini va xo'jalik tegishli tarmoqlari (transport, savdo, qurilish iqtisodiyoti va boshqalar) rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadigan fan sohasi, xo'jalikning tegishli bo'g'inlari (korxona kontsern, assotsiatsiya iqtisodiyotining iqtisodiy muammolarini, boyliklar, resurslar), masalan, mehnat resurslarining turli xillaridan foydalanishni o'rganadigan fanning mustaqil sohasi.

Iqtisodiyot fanlari ishlab chiqarish munosabatlarini, odamlar orasidagi munosabatlarni o'rganadi. Iqtisodiyot ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan munosabatlarning darajasi va tavsiflari bilan aniqlanadi.

Iqtisodiyot – bu, jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarni o'rganadigan iqtisodiy fanlar tizimi (tarmoq iqtisodiy fanlari – sanoat, transport va boshqalar; vazifasi, ishi, xizmati yoki funktsiyasiga oid iqtisodiy fanlar – moliya, hisobchilik hisobi, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti va boshqalar).

Iqtisodiyotning aniq turlarini va amal qilish mexanizmini talqin qilishdagi bosqich - boshqaruvning tashkiliy tuzilmalarini va ularning vazifalarini tahlil qilishdir. Xo'jalikni boshqarish – umumlashtirilgan mehnatning mahsuli va zaruriy shartidir. [9]

Mehnat taqsimoti uning ijtimoiy xususiyati kuchayishi jarayonida boshqaruv faoliyatining mustaqil bir turi sifatida ajralib chiqdi. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari va maxsus organlari shundan kelib chiqadi. Umumlashtirish mantiiqiga muvofiq faqat shunday tuzilmalar va boshqaruv organlari yashash huquqiga ega bo'ldiki, bularsiz ishlab chiqarish bo'g'inlari (transport xizmati, aholi transporti vositalariga TXK korxonalari va uning bo'linmalari)ning o'zlari (korxonalar, kontsernlar, assotsiatsiyalar, korporatsiyalar) muayyan o'zaro aloqasidan kelib chiquvchi tarmoq jarayonlarini yagona ijtimoiy jarayonga qo'shish vazifalarini hal etishga qodir bo'lmay qolmaydi.

Iqtisodiyot mulkchilik shaklidan, tarmoq va hududlarning tarixiy davrlaridan qat'i nazar xo'jalik yuritishning bir qancha tamoyillariga rioya qilinishi mustasno etadi. Bu – natijalar va harakatlarni o'lchab bo'lish, boyliklarni hisobga olish va ulardan oqilona foydalanish, ishlab chiqaruvchilar uchun ma'lum rag'batlantirish imkonini yaratish, demakdir.

Iqtisod aholining turmush darajasini ko'tarish, jamiyatning ijtimoiy va boshqa hayot faoliyatlarini taraqqiy ettirish bilan tavsiflanadi. Shunday ekan, O'zbekiston aholisining hozirgi darajasiga nisbatan ancha yuqori, jamiyatimizning esa ijtimoiy faolligi o'ta baland. Shu tufayli xalqimizning shaxsiy mulki, shu jumladan, shaxsiy avtomobillar ortib bormoqda.

Korxona faoliyati deganda uning bajaradigan ishi, ma'lum bir yo'nalishda ishlashi, avtomobil transporti yoki avtomobillarga TXK, korxona jamosining ijtimoiy harakati, maqsadga erishish uchun jamoa a'zolariga ta'sir etish, ishlab

[9] Mc Connell, Brue. Economics. 17th edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2014

chiqarish yoki xizmat ko'rsatish dasturining bajarilishiga harakat qilish, xo'jalikni yuritish, xo'jalikni boshqarish, aqliy va jismoniy kuchlardan, korxona mablag'laridan foydalanish kabi vazifalar tushiniladi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun korxonani tashkil etuvchi odamlar guruhlarining faoliyatlari o'zaro muvofiqlashtiriladi.

Korxonaning iqtisodiy va xizmat ko'rsatish faoliyati darajasi foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari - mablag'dan olinadigan daromad, xizmat ko'rsatish sifati, daromad yoki tushumning o'sish sur'ati, mehnat unumdorligi, foyda, bajariladigan xizmatlar harakati va shu kabilar bilan baholanadi.

Korxonaning faoliyati ko'p qirrali va uni boshqarish san'ati uning iqtisodiyotidadir. Har qanday korxona tizim qurishini ifodalaydi:

-boshqarish tizimi, ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish), ta'minot, zaxira, jo'natuvchi, qabul etuvchi va shunga o'xshashlar.

Korxonaning maqsadi unumdorlikni oshirishda va xarajatlarni pasaytirishda, xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda, iste'mol bahosini va doirasini kengaytirishda va xizmat ko'rsatishni reklama qilishda, xizmat yoki mahsulot turini topishda, ehtiyojni qondirishda ifodalanadi.

Korxonaning iqtisodiy faoliyatini yaxshilash uchun xizmat ko'rsatuvchilar, ayniqsa uning menejerlari ko'pgina qoidalarni, jarayonlar va tavsiflarni bilishlari kerak. Ular natijasida mehnat (xizmat ko'rsatish)ning tartibi birlashsin, shakllari rivojlansin, xizmat ko'rsatishning unsurlari provard natijaga ijobiy ta'sir etib, samaradorlik oshsin. Korxonaning samaradorligini oshirish va foydani ko'paytirish kabilar yordami bilan xizmat ko'rsatish tamoyillari, unsurlari va vositalari korxona menejmenti mohiyati va mazmunini ifodalaydi.

Albatta, korxona faoliyati murakkab tizim va har xil ko'rinishdagi faoliyatdir: tashkiliy-boshqarish, muxandislik-menejerli, hisobga olish-iqtisodiy, nazorat-taftish, tadqiqot loyihali- tadqiqot va boshqa faoliyatning umumiy savollaridan tuzilgan.

Korxona bo'linmalari ichida o'zaro bir-biriga bog'liq tizim biri-biriga ta'sir ko'rsatadi, shu jarayonlarga, ya'ni ta'sir etuvchi tashqi omillar ham bor. Korxonaning ichki faoliyati xizmat ko'rsatishni bajarishda, xodimlar, uskunalar, vositalar, asboblar va binolar bilan ta'minlashda namoyon bo'ladi.

Tashqi omillar (mijozlar, yo'lovchilar, mulkdorlar, ehtiyot qismlar materiallar) dan birortasi bo'lmasa, korxona faoliyati qiyinlashadi, ba'zi hollarda korxonada ish to'xtab qoladi, korxona mablag'lari (avtoransport, uskunular)ning texnik tayyorlik darajasi pasayadi.

Korxonaning xizmat ko'rsatish faoliyatini takomillashtirish xizmat jarayonlarini tashkil etishni yaxshilash, me'yoriy–texnik ta'minlash, egiluvchan yoki epchil boshqarish tizimini yaratish, ehtiyot qism va materiallar bilan ta'minlash, bajariladigan ish sifatini oshirish, korxona xodimlarining malakasini oshirish va bajariladigan ishlarni sifati va unumi oshishidan xodimlar manfaatdorligini ta'minlash, ularni rag'batlantirish, chora-tadbirlarini ishlab chiqishda namoyon bo'ladi.

Korxonaning xizmat ko’rsatish va boshqarish tarkibini tanlash, shakllantirishda tizimning tarkibiy usullari orasidagi nisbatan va o’zaro ta’sirni aniqlash, xizmat ko’rsatish jarayonlarini maqbullashtirish hamda zamonaviy texnologik jarayonlar yaratishda o’z ifodasini topadi.

Korxonaning xizmat ko’rsatish faoliyatini samarali tashkil etishda quyidagilarga e’tibor berish o’ta muhim; ish tartibini tanlash; xizmat ko’rsatish va boshqa ishlar bir maromda bajarilishini ta’minlash; eng qo’lay bo’linmalar tuzilishini ishlab chiqish; korxonaning barcha bo’linmalari bilan eng samarali boshqariladigan usullarni ishlab chikish va amalga joriy etish; korxona zaxiralarini maqbul darajada boshqarish.

Korxonani maqsadga muvofiq faoliyat ko’rsatishini ta’minlash masalalarining ko’pchiligini ommaviy xizmat ko’rsatish nazariyasi usullarini qo’llash orqali hal qilinishi mumkin.

Bu jarayonda, shuningdek, hujjatlarning shakl va aylanish jarayonlarini to’g’ri tanlash va takomillashtirish, xizmat ko’rsatishni boshqarishga, mulkning turli shakllarini ishlatishga va mehnatni ilmiy asosda tashkil etish usullariga e’tibor berish zarur. Bunda, to’g’ri tanlangan boshqaruv apparati xodimlariga ko’p narsa bog’liq. Ularning maqsadga muvofiq ish yuritishi korxonaning xizmat ko’rsatish faoliyatini ta’minlaydi.

Yuk va yo’lovchilarni tashish, avtomobillarga texnik xizmat ko’rsatishni tashkil etish, korxona menejmentining muhim vazifasi.

Korxonaning istiqbolda muvaffaqiyatli faoliyat ko’rsatishini ta’minlashda quyidagilarga rioya qilish kerak:

-transport va texnika xizmati ko’rsatish jarayonini texnologik jihatdan qayta qurish va avtomatlashtirish ish jarayoniga, yuqori malakali xodimlarni jalb etishga o’tish;

-korxona xodimlari uchun qulay mehnat sharoitni yaratish, yuqoriroq ish haqi belgilash, bir qancha nomoddiy rag’batlantirish shakllarini joriy qilish;

-korxona faoliyatining samaradorligini doimiy nazorat qilish, uning barcha bo’linmalari ishini muvofiqlashtirish;

-muntazam izlanish va yangi bozorlarni o’zlashtirish.

Shu bilan birga korxonaning taraqqiy etish maqsadlarini aniqlash, bunda quyidagilarga alohida e’tibor berish lozim:

-eng muhim masalalarni, ular navbati va echimining ketma-ketligini aniqlay bilish;

-korxonaning ustuvor rivojlanish ishlanmasini tayyorlash – xo’jalik masalalari tizimi va ularni echish yo’llari;

- har xil davrlarga mo’ljallangan muammolarni echmoq uchun chora-tadbirlar tizimini tayyorlash;

-zarur bo’lgan ne’matlarni va ularni ta’minlash manbalarini baholash;

-qo’yilgan masala va topshiriqlarning bajarilish ustidan qattiq nazorat o’rnatish.

Korxona istiqbolli faoliyat ko’rsatishi uchun ustuvor boshqarishga alohida e’tibor berish lozim. Buning uchun biznesning bosh maqsadini ishlab chikish,

omillar ta’sir ko’rsatib turgan sharoitda korxonaning taraqqiy etish natijalarini bashorat qila bilish, natijalar parametrlaridan og’masligi uchun ustuvor rivojlantirishni qo’llash kerak. Yuqoridagi chora-tadborlar kundalik faoliyatda tezkor boshqarish orqali ro’yobga chiqarilishi shart.

O’zbek milliy avtomagistralini modernizatsiya qilish nafaqat mamlakatimiz, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ulkan strategik ahamiyatga ega ekanini inobatga olgan holda, ushbu loyihani amalga oshirishda Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Arab Muvofiqlashtirish guruhi a’zolari singari xalqaro moliya tuzilmalari faol ishtirok etmoqda.

Mazkur tashkilotlar tomonidan 742 kilometrlik avtomobil yo’llarini qurish va rekonstruktsiya qilish, yo’l qurilishi bo’yicha zamonaviy texnika sotib olish uchun 1 milliard 400 million dollarga yaqin imtiyozli kreditlar ajratildi.

Faqat 2012 yilning o’zida ushbu maqsadlar uchun 109 million dollar miqdoridagi mablag’ni o’zlashtirish, 165 kilometr tsement-beton qoplamali yo’llarni foydalanishga topshirish, jumladan, Qamchiq dovoni orqali o’tadigan yo’lni rekonstruktsiya qilish mo’ljallanmoqda.

“O’zavtoyo’l” davlat aktsiyadorlik kompaniyasi, Respublika yo’l jamg’armasi, Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga ajratilayotgan mablag’larni samarali o’zlashtirish hamda avtomobil yo’llarini qurish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash yuzasidan belgilangan ko’rsatkichlarni so’zsiz bajarish bo’yicha amaliy choralar ko’rish vazifasi topshiriladi.

Temir yo’llar kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish, Maroqand — Qarshi va Qarshi — Termiz temir yo’l uchastkalarini elektrlashtirish bo’yicha loyihalar amalga oshirilishini jadallashtirish zarur. Shu bilan birga, Toshkent — Samarqand temir yo’l liniyasi uchastkasida obodonlashtirish ishlarini davom ettirish hamda yuqori tezlikda harakatlanadigan yo’lovchi poezdlarning ishonchli va xavfsiz qatnovini ta’minlashga alohida e’tibor qaratish darkor. “O’zbekiston temir yo’llari” kompaniyasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda mazkur ishlarni amalga oshirish bo’yicha tarmoq jadvallarini ishlab chiqishi va tasdiqlatishi, ularning o’z vaqtida bajarilishini ta’minlashi lozim.

O’zbekiston Respublikasida umumiy foydalaniladigan yuk va yo’lovchilar tashuvchi transportning barcha temir yo’l, avtomobil, aviatsiya, shaxar elektr transport, daryo, truboprovod transporti, shuningdek, umumiy foydalanilmaydigan - temir yo’l, avtomobil, tasmali transport, osma arqon transporti rivoj topgan.

Respublika mustaqillikka erishgandan keyin transportning xalq xo’jaligiga va aholiga xizmat ko’rsatishini tubdan yaxshilash va transport boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadlarida «O’zbekiston havo yo’llari» milliy aviakompaniyasi», «O’zbekiston avtomabil transporti», davlat aktsiyadorlik korportsiyasi, «O’zbekiston temir yo’llari» davlat - aktsiyadorlik kompaniyasi va boshqa idoralar tashkil etildi. Mamlakat transport korxonalari davlat ishtirokidagi aktsionerlik kompaniyalari, korporatsiyalari, ochiq turdagi

aktsionerlik, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga, jamoa korxonalariga aylantirildi.

6-mavzu: Respublika qurilish majmui

Reja:

1. Qurilish, uning xalq xo'jaligida tutgan o'rni va ahamiyati.
2. Qurilish industriyasi.
3. Qurilish tizimi.

Tayanch so'z va iboralar: qurilish industriyasi, qurilish moddiy-texnika bazasi, qurilish materiallari, kapital qurilish, kapital sarflar, qurilish ishlarining samaradorligi, moliya-qurilish korporatsiyalari.

1- savol bayoni: Qurilish respublikadagi moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan biri. Respublika iqtisodiyotida yalpi ijtimoiy mahsulot tarkibida solishtirma hissasiga ko'ra sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin 3-o'rinda turadi. Yalpi ichki mahsulotning 7,8%i, xalq xo'jaligida band bo'lgan ishchi va xizmatchilarning 10,34% i qurilish ishlari bilan mashg'ul.

Qurilish xalq xo'jaligining barcha tarmoqlariga xizmat ko'rsatib, asosiy fondlarning qayta takror ishlab chiqarish uchun sharoitlarni ta'minlaydi, xalq xo'jaligining maqbul tarkibini barpo etish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni maqsadga muvofiq joylashtirish, respublikaning yangi tabiiy boyliklarini o'zlashtirish, bo'sh mehnat resurslarini ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etishga yordam beradi. [10]

Respublikada qurilish ishlari pudrat, subpudrat va qisman xo'jalik usullarida olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasida qurilish majmuiga respublikadagi qurilishga xizmat qiladigan barcha muassasa, tashkilot, ishlab chiqarish boshqarmalari va korxonalari, ya'ni loyihalashtirishdan tortib, bino va inshootlarni foydalanishga topshirguncha xizmat qiluvchi bosqichlar kiradi. Turli xo'jalik sohalari aloqalarining kuchayishini tarmoqlararo qurilish sanoati ta'minlaydi.

Hozirda, respublikada qurilish sanoati qishloq xo'jaligi va transport singari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qurilish sanoati zavod- fabrikalar, kon-kar'erlar, kanal-suv omborlari, yo'l-tunnellar, muassasa-korxonalar, uy-joylar va hokazolar qurishni o'z ichiga oladi.

Qurilish sanoati qurilish va doimiy kadrlar bilan ish ko'radi. Uning mahsulotlari bitkazilgan va foydalanishga topshirilgan bino va inshootlardir. Bularning hammasi respublikaning jug'rofiy muhiti, joylarning iqlimi, tuzilishi, er osti suvlari, geologik va seysmik holati va boshqa omillar hisobga olinadi. Masalan,

[10] Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus. Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies. USA. 2015.

respublikamiz seysmik faol rayonda joylashganidan bino va inshootlarni 9 va 10 balli silkinishlarga bardosh beradigan qilib qurish talab etiladi.

Qurilish sanoatining mahsulotlari sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va hokazolarga hamda uy-joy xo'jaligi, madaniy-maishiy, maorif va sog'liqni saqlash muassasalari rivojlanishga xizmat qiladi.

Qurilish sanoati taraqqiyoti tabiiy va mehnat resurslarining jug'rofiy xususiyatlarini chuqur ilmiy tahlil qilish va ulardan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

O'zbekistonda qurilish ishlarining muvaffaqiyati barpo etilgan qurilish tashkilotlari faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

2-savol bayoni: O'zbekiston Respublikasida qurilish industriyasining negizini davlat, aktsiyadorlik, shirkat, xususiy, qo'shma va boshqa pudrat qurilish-montaji tashkilotlari, shuningdek, o'z moddiy-texnika va ishlab chiqarish bazasiga, malakali ishchi va mutaxassis kadrlarga ega bo'lgan korxonalar, transport va boshqa yordamchi xo'jaliklar tashkil etadi. O'zbekistonda 245 montaj-qurilish tresti, 196 qurilish sanoati korxonasi, 1882 quyi pudrat tashkiloti, 3 mingga yaqin kichik korxona, 64 loyiha va ilmiy hamda qurilish sohasiga moslashtirilgan ilmiy-tadqiqot instituti faoliyat ko'rsatadi. Qurilish-montaj ishlarining deyarli barchasini ixtisoslashtirilgan qurilish tashkilotlari amalga oshiradi.

Respublikaning qurilish tashkilotlari ixtisoslashtirilgan korporatsiya, kompaniya, birlashma, trestlar va boshqarmalarga uyushgan. Qurilish moddiy-texnika bazasining muhim tarkibiy qismini qurilish materiallari sanoati tashkil etadi.

Qurilish industriyasida yig'ma temir-beton konstruktsiyalari va detallaridan ko'proq foydalanilmoqda. Bino va inshootlarning yirik qismlarini, uy poydevorlari, devor panellari, zinopoyalar va boshqalarni zavod usulida tayyorlaydigan yangi tarmoqlar paydo bo'ldi. Qurilish tobora bino va inshootlarni montaj qilish jarayoniga aylanib bormoqda. Binolarning zilzilabardoshligi ta'minlangan. Qishloq joylarida loyihalash-qurilish tamoyillari o'zgardi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish bo'yicha sanoat majmualari o'rniga kichik firmalar qurilmoqda. Imoratlarni tiklashda engil konstruktsiyalar ko'proq qo'llanilmoqda, xo'jaliklar qo'rg'onlarini qurishda uy-joylar bilan bir paytda madaniy-maishiy muassasalar, ishlab chiqarish binolari kompleks foydalanishga topshiriladi. Qurilishda jami jarayonlarni qamrab olgan qishloq qurilish kombinatlari barpo etilgan.

O'zbekistonda qudratli iqtisodiy salohiyatni barpo etishdagi muvaffaqiyatlar bevosita qurilish bilan bog'liq..

2018 yilda jami manbalardan o'zlashtirilgan kapital mablag'lar 82,2 mlrd. so'mni, jumladan uning 47,0 mlrd. so'mini qurilish-montaj ishlariga sarflangan mablag'lar tashkil etdi. Kapital mablag'lar tarkibida davlat hissasi 57%ga tushdi.

Uy-joy qurilishi keng miqyoslarda olib borildi va moliyalashning jami manbalaridan foydalanildi.

Respublika mustaqillikka erishganidan so'ng kapital qurilish yangi dastur asosida davom ettirildi. Respublika iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan avtomobil, oltin qazib olish, neft va boshqa sanoat tarmoqlarida yangi korxonalarni qurish boshlandi. Barcha viloyatlarda sanoat korxonalari, uy-joylar, madaniy-maishiy binolar, bozor va sado rastalari, hammom, choyxona, kasalxona, mahalla markazlari, masjidlar qurildi, O'nlab me'moriy majmualar, tarixiy yodgorliklar, madrasalar, masjidlar ta'mirlandi.

Kapital mablag'larning 66,8%i ishlab chiqarish, 33,2%i noishlab chiqarish ob'ektlari yo'nalishda sarflandi. Qurilish sohasida xalqaro hamkorlik yaxshi samara bermoqda. Xorijiy firmalar bilan hamkorlikda Toshkent, Samarkand, Buxoro shaxarlarida xalqaro klassdagi mehmonxonalar qurilishi va ta'mirlash ishlari boshlandi. Respublika tarixida birinchi marta kapital qurilishi sohasiga chet el investitsiyalari jalb etildi. Kapital mablag'lar tarkibidagi xorijiy investitsiyalar hissasi 16%ni tashkil etdi.

Qishloq joylarda xususiy uy-joylarni qurish bo'yicha keng ko'lamli dastur amalga oshirila boshlaganidan buyon, ya'ni so'nggi ikki yil davomida 15 mingdan ziyod oila har tomonlama qulay yangi uy-joylarga ega bo'ldi.

Faqat o'tgan yilning o'zida namunaviy loyihalar asosida umumiy maydoni 1 million 100 ming kvadrat metrga teng bo'lgan 7 ming 400 ta xususiy uy-joy qurib bitkazildi. Bu maqsad uchun 576 milliard so'mlikdan ortiq investitsiyalar yo'naltirildi, ularning 63 foizdan ziyodini markazlashtirilgan manbalar va "Qishloq qurilish bank" mablag'lari tashkil etadi.

Joriy yilda umumiy turarjoy maydoni 1 million 200 ming kvadrat metrdan ortiq bo'lgan 8 ming 510 ta yakka tartibdagi uy-joy qurilishi rejalashtirilgan, bu esa o'tgan yilga nisbatan 15 foiz ko'pdir.

3-savol bayoni: Qurilish tizimining organlari quyidagilardan iborat: «O'zsanoatxo'jalikqurilish» korporatsiyasi, «O'zmontajmaxsusqurilish» uyushmasi, «O'zdehqonchilikqurilish», «O'zjamoaxo'jalikqurilish» davlat shirkat birlashmalari, «Toshkentuy-joyinvestqurilish» korporatsiyasi va boshqalardir. Suv xo'jaligi va meliorativ ishlarni «O'zsuvqurilish» davlat kontserni olib boradi. «O'ztransqurilish», «O'zavtoyo'l» kontserni, Energetika va elektrlashtirish vazirligi ham qurilish ishlarini bajaradi.

«O'zsanoatxo'jalikqurilish» davlat korporatsiyasi respublika sanoat qurilishi, uy-joy va boshqa ijtimoiy maqsadlardagi ob'ektlarni qurish bilan shug'ullanadi. qurilish tashkilotlari, qurilish industriyasi korxonalari, transport, loyiha-konstruktorlik va boshqa tashkilotlarni ixtiyoriy asoslarda birlashtiradi.

«O'zmontajmaxsusqurilish» uyushmasi respublika xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida montaj va maxsus qurilish ishlarini olib boradi. Texnologik jihozlar, elektr ta'minoti ob'ektlari, avtomatika, aloqa tizimlari, metall va yig'ma temir-beton konstruktsiyalari, issiqlik izolyatsiyasi jihozlari, lift va ko'targichlar, sanoat pechlari hamda quvurlari va boshqalarni montaj qiladi, ko'radi. Uyushma tarkibida

ixtisoslashtirilgan trest, «O’zelektrmontaj», «O’zsantexgazmontaj», «O’zissiqlikmontaj», «O’zsanoatventilyatsiya», «O’zpo’latkonstruktsiya», «Farg’onaneftkimyomontaj» trestlari, «O’zbekneftmontaj» boshqarmasi, Toshkent engil metall konstruktsiyalari, To’ytepa metall konstruktsiyalari, Toshkent sanitariya jixozlari zavodlari, «O’zmontajloyiha» instituti va boshqalar bor.

«O’zdehqonchilikqurilish» birlashmasi qishloq joylarida ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadlaridagi qurilish ishlarini olib boradi. Respublika qishloq qurilishi vazirligi va «O’zjamoaxo’jalikqurilish» birlashmasining ayrim tashkilotlari negizida tashkil etilgan. Birlashma qishloq xo’jaligining moddiy-texnika bazasini yaratish va mustahkamlash, jamoat binolari, maktablar, yirik kasalxonalar, savdo markazlari, klub va madaniyat saroylari, bog’chalar, maishiy xizmat ko’rsatish kombinatlari va boshqalar qurilishida katta yutuqlarni qo’lga kiritdi.

«O’zjamoaxo’jalikqurilish» shirkat birlashmasi qishloq tumanlarida, jamoa xo’jaliklarida uy-joy, jamoat va madaniy-maishiy ob’ektlar, ishlab chiqarish korxonalari qurilishi bo’yicha bosh pudratchi.

O’zbekiston Respublikasi ko’p tarmoqli qurilish materiallari sanoatiga ega. Tsement, asbest-tsement, devorbop materiallar, yumshok yopg’ich va gidroizolyatsiya materiallari, tabiiy toshlardan qoplama materiallar, noruda qurilish materiallari, qurilish keramikasi, issiqlik izolyatsiyasi materiallari, ohak, gips, bog’lovchi materiallar va ulardan buyumlar, sanitariya-gigiena jihozlari, polimer xom ashyodan qurilish materiallari va buyumlar, temir beton konstruktsiyalari va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari mavjud. Tarmoq korxonalarida 100 dan ortiq nomdagi asosiy mahsulot turlari tayyorlandi.

Qurilish materiallari sanoati tarmoqlari yuksak mexanizatsiyalashgan va xalq xo’jaligining qurilish materiallariga bo’lgan talabi to’la qondiradi. Xorijiy investorlar ishtirokida yangi qo’shma korxonalar qurilmoqda, ishlab to’rgan korxonalar zamonaviy texnologiya bilan jihozlanib, kengaytirilmoqda.

O’zbekistonda tabiiy xom ashyodan qurilish materiallari sifatida foydalanish tarixi uzoq o’tmishga borib taqaladi. Ayniksa, binolar qurilishida xom g’isht, guvala, yog’och, sinch, oddiy tuproqdan tiklanadigan paxsa asrlar davomida asosiy qurilish materiallari bo’lib kelgan. Xumdonlarda pishirilgan g’isht, sopol, chinni koshin, ganch, yo’nilgan granit, marmar toshlar saroy, madrasa, masjid, rabotlar qurilishida keng qo’llanilgan.

Tsement sanoati. Respublikadagi qurilish industriyasining birinchi korxonasi 1913 yil qurila boshlagan Xilkovo tsement zavodidir. Respublikada tsementga ehtiyoj oshib borganidan keyin 1932 yilda Quvasoy tsement zavodi ishga tushirildi.

Respublika tsement sanoati tarmog’ida yiliga 5 mln. tonnadan ko’proq tsement ishlab chiqaradigan 5 yirik korxona ishlaydi. Tsementning hamma asosiy turlarini ishlab chiqarish o’zlashtirildi. Tsement korxonalarida shifer, abotsement quvurlar, mineral paxta va undan tayyorlanadigan buyumlar, tsement-qum cherepitsalari va boshqa mahsulotlar ham ishlab chiqarish yo’lga qo’yilgan.

Toshtaroshlik (toshga ishlov berish). Tabiiy toshlar (marmar va granit) dan ishlangan qoplama materiallari va banklar Markaziy Osiyo me'morchiligida ko'p ishlatilgan.

Qoplama toshlar zaxiralari, xilma-xilligi va rangi bo'yicha O'zbekiston MDX mamlakatlari orasida etakchi o'rinda. Respublikada 30 dan ortiq marmar, granit, trovertin, tuf va boshqa jinslar konlari topilgan. Respublikada noruda va qoplama materiallar tarmog'ida toshga ishlov berishadigan 19 ta korxona faoliyat ko'rsatmoqda.

Devorbop materiallar sanoati sohasida qurilishda ishlatiladigan olovbardosh va imorat g'ishtining asosiy qismi yalang'och 2-g'isht zavodi, Yangiyo'l 8-g'isht zavodi va boshqa zavodlarda chiqariladi. 1990 yillar boshidan g'ishtni yangi texnologiya asosida tayyorlash bo'yicha ekspremental tsexlar ishga tushirildi.

Keramika sanoati tarmoqlarida Angren keramika kombinati va Toshkent qurilish materiallari kombinatida barcha turdagi sopol qoshinlar, sanitariya-qurilish foyansi, gips, kanalizatsiya quvurlari, maloyiha buyumlari va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Shisha-oyna sanoti sohasida «Quvasoyshisha» ishlab chiqarish birlashmasi va G'azalkent shisha-oyna zavodi ishlaydi. Bu korxonalarda yo'liga 212 mln. dona konserva shisha idishlari, 80 mln. dona butilka, 2 mln.m2 deraza oynasi ishlab chiqariladi.

7- mavzu: Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya siyosati

Reja:

1. Milliy iqtisodiyotga investitsiya jalb qilishning ahamiyati.
2. Investitsiya faoliyatining shakllanishi va tartibga solinishi.
3. Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'llari.

Tayanch so'z va iboralar: investitsiya, kapital qurilish, investitsiyalar, bozor infratuzilmasi, qurilish dasturi, ishlab chiqarish quvvatlari, kapital qurilish, asosiy fondlar, noishlab chiqarish fondlari, kapital qo'yilmalar.

1- savol bayoni: Investitsiya - iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga qo'yiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar va ularga nisbatan bo'lgan mulkchilik. **Investitsiya turlari.**

Kapital investitsiyalar-asosiy fondlarni yaratish va takror ishlab chiqarish uchun qo'yiladigan investitsiyalar

Investitsiyali investitsiyalar-texnika va texnologiyaning yangi avlodiga yaratish va tadbiq etishga qo'yilgan qo'yilmalar

Ijtimoiy investitsiyalar-inson salohiyati, bilimi va ishlab chiqarish tajribasini rivojlantirishga qo'yilgan qo'yilmalar

Investor - o'z mablag'lari, qarz mablag'lari va jalb qilingan boshqa mablag'larni sarmoyalaydigan hamda mulkiy boyliklarni va investitsiya faoliyati ob'ektlarini sarmoyalaydigan shaxs .

Investitsiya faoliyati sub'ektlari:

1) jismoniy va yuridik shaxslar-o’z rezidentlari;
2) joylardagi davlat xokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlari;
3) xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar chet-el yuridik shaxslari va fuqarolari, hamda fuqaroligi yo’q bo’lgan shaxslar;

Investitsion faoliyat– investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog’liq bo’lgan investitsion faoliyat sub’ektlari harakatining yig’indisi

Investitsion resurslarga quyidagilar kiradi:

1) pul va boshqa moliyaviy mablag’lar, kreditlar, aktsiyalar va boshqa qimmatli qog’ozlar;
2) harakatdagi ko’chmas mulk;
3) intellektual mulk ob’ektlari;
4) er va boshqa tabiiy resurslarga bo’lgan egalik va foydalanish huquqi;
5) respublika qonunchiligiga to’g’ri keladigan boshqa boyliklar.

Investitsiyalar –asosiy fondlarni kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta’minlaydigan jarayondir (resurslar xarajatlarga aylanadi). Investitsiyalar qisqa muddatli (1 yilgacha) va uzoq muddatli (1 yildan ortiq) investitsiyalarga bo’linadi.

Investitsion faoliyat ob’ektlari:

- asosiy fondlar va aylanma mablag’lar;
- qimmatli qog’ozlar;
- fan-texnika mahsuloti;
- maqsadli pul mablag’lari;
- mulkiy huquq va intellektual mulkka huquq

Investitsion faoliyat sub’ektlari:

- investorlar;
- buyurtmachilar;
- ishni bajaruvchilar;
- investitsion faoliyat ob’ektlaridan foydalanuvchilar;
- investitsion faoliyatning boshqa ishtirokchilari.

Investirlash jarayoni - pul mablag’larini jamg’arish, ya’ni moliyalash manbai mablag’larning ishlatilishi

Mamlakatda 2019 yil yakunlari bo’yicha to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar 4,2 milliard dollarni tashkil etib, 2018 yilga nisbatan – mana shu raqamga e’tiboringizni qaratmoqchiman – 3,1 milliard dollarga yoki 3,7 barobar o’sdi. Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 37 foizga etdi.

Mamlakatimiz ilk bor xalqaro kredit reytingini oldi va jahon moliya bozorida 1 milliard dollarlik obligatsiyalarini muvaffaqiyatli joylashtirdi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan O’zbekistonning kreditga doir tavakkalchilik reytingi oxirgi 10 yilda birinchi marta yaxshilandi.

Energetika, neft-gaz, geologiya, transport, yo'l qurilishi, qishloq va suv xo'jaligi, ichimlik suvi va issiqlik ta'minoti hamda boshqa qator tarmoqlarda chuqur tarkibiy islohotlar boshlandi. Sanoatning 12 ta etakchi tarmog'ida modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish dasturlari jadal amalga oshirilmoqda. Natijada o'tgan yili iqtisodiy o'sish 5,6 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, eksport – 28 foizga ko'paydi. Oltin-valyuta zaxiralarimiz 2019 yil davomida 2,2 milliard dollarga ortib, 28,6 milliard dollarga etdi.[11]

Sanoat tarmoqlarini uzluksiz xomashyo va zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlash zarur. Iqtisodiyotning qator muhim tarmoqlari, jumladan, kimyo, neft va gaz, energetika, elektrotexnika, qurilish materiallari, zargarlik sanoatini xomashyo bilan ta'minlash uchun, avvalo, geologiya-qidiruv sohasini tubdan rivojlantirish lozim. 2020 yilda istiqbolli konlarni aniqlash va mavjud zaxiralarni ko'paytirish uchun byudjetdan 2 trillion so'm mablag' ajratilmoqdaIqtisodiyotni modernizatsiyalash, islohotlarni chuqurlashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlarni yaratish, amalda faoliyat yuritayotgan texnika va texnologiyalarni yangilash, ularni qo'llab-quvvatlash investitsion jarayonlarni nechog'liq to'g'ri va samarali amalga oshirishga bog'liq.

2016 yilda Investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 5,2 milliard dollarlik 164ta yirik ishlab chiqarish ob'ekti ishga tushirildi. Jumladan, Talimarjon IESda 450 MVt quvvatli ikkita bug'-gaz turbinasi va Angren IESda ko'mir kukunidan foydalanishga mo'ljallangan 130-150 MVt quvvatli energiya bloki qurish, Jizzax viloyatidagi tsement zavodi quvvatini kengaytirish, «Indorama Qo'qon tekstil» xorijiy korxonasi va «Fanteks» MChJda yigiruv ishlarini tashkil etish, «GM O'zbekiston» aktsiyadorlik jamiyatida «T-250» rusumidagi engil avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil qilish», shu bilan birga, «Sirdaryo viloyatidagi «Guliston Med Texnika» qo'shma korxonasida steril shpritslar ishlab chiqarish" va boshqa loyihalar shular jumlasidandir[12].

2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobidan uning raqobatdoshligini oshirish yo'nalishida korxonalarning mablag'lari, O'zTTJ, tijorat banklari krediti, xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan 2017 - 2021 yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSh dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlari amalga oshiriladi.

Natijada kelgusi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 barobar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizga, qayta ishlash

---

[11] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи 24 январь 2020 йил.

[12] www.gov.uz/uz/news/category/1

tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizga oshadi. 2017 yilda 75 dan ortiq yangi turdagi raqobatdosh tayyor mahsulotlar o'zlashtiriladi.

Jumladan, yiliga 50 mingta avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan "M-300" rusumidagi engil avtomobil ishlab chiqarishni o'zlashtirish", 200 ming tonna kaliy o'g'itlari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan "Dehqonobod kaliy o'g'itlari zavodi qurilishi", "Xonjiza konida polimetall rudalarga ishlov berish" kabi yirik loyihalar, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, "Navoiyazot" kompaniyasining bir qator yangi ob'ektlarini barpo etish ishlari va boshqa loyihalar nihoyasiga etkazilganini ta'kidlash joiz.

"Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida xorijiy investorlar bilan erishilgan bitimlar doirasida 19 ta investitsiya loyihasini amalga oshirishga kirishildi. Ana shu loyihalar doirasida jahon bozorida xaridorgir bo'lgan zamonaviy mahsulot ishlab chiqaradigan 7 ta korxona foydalanishga topshirildi.

Iqtisodiyotimizning real sektoriga qariyb 2 milliard 900 million dollar hajmida xorijiy investitsiyalar jalb qilindi, ularning 78,8 foizi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.

Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari va ulardan foydalanish borasida ijobiy sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda.

Jami investitsiyalarning 73 foizdan ortig'i mamlakatimizning ichki manbalari hisobidan — korxonalar va aholi mablag'lari, investitsiya jarayonlarida tobora faol ishtirok etayotgan tijorat banklari kreditlari, shuningdek, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan shakllantirilmoqda.

Jami investitsiyalarning 73,5 foizidan ortig'i ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirilmoqda. Investitsiyalarning qariyb 45,3 foizi zamonaviy, yuksak samarali asbob-uskunalar xarid qilishga yo'naltirilgani, ayniqsa, muhimdir.

Mamlakatimizda faol investitsiya siyosati olib borilishi natijasida hisobot davrida o'nlab zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. Jumladan, "Jeneral Motors Pavertreyn O'zbekiston" qo'shma korxonasida yuqori texnologiyalar asosida avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, avtomobil generatori va kompressorlari ishlab chiqarish bo'yicha quvvatlar barpo etildi, energiyani tejaydigan lampalar ishlab chiqarish bo'yicha uchta loyiha amalga oshirildi.

Shular qatorida "Zenit elektroniks" qo'shma korxonasida "Samsung" kir yuvish mashinalari ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Ayni paytda maishiy gaz plitalari, konditsionerlar, elektr pilesoslar va bir qancha boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

"Muborak gazni qayta ishlash zavodi" unitar sho''ba korxonasida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish maqsadida propan-butan aralashmasi qurilmasining birinchi navbatini, Samarqand viloyatida "MAN" yuk tashish mashinalari ishlab chiqarish bo'yicha yangi majmuaning dilerlik markazini bunyod etish ishlari yakuniga etkazildi.

Navoiy issiqlik elektr stantsiyasida bug'-gaz qurilmasini barpo etish, O'zbekiston — Xitoy gaz quvurining uchinchi yo'nalishi kabi yirik loyihalarni amalga oshirishda qurilish-montaj ishlari qizg'in pallaga kirdi.

Navoiy shahridagi erkin industrial-iqtisodiy zona muvaffaqiyatli faoliyat yurita boshladi, uning hududida yangi tashkil etilgan korxonalarda spidometrlar, avtomobillar uchun o'tkazgichlar, kompressorlar, raqamli televizion tyunerlar, energiyani tejaydigan lampalar, yoritish uskunalari, diodli lampalar, modemlar, polietilen va polipropilen quvurlar, kosmetika vositalari hamda tibbiyot mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

2- savol bayoni: Investitsiyalarning mazmun-mohiyati bo'yicha zamonaviy qarash nuqtai nazarlarining o'rganilishi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy fanlarning turli bo'limlari va amaliy faoliyatda ular turlicha talqin etiladi. Investitsiyalash maqsadlari, sohalari, safarbar etilish ob'ektlari, harakat yo'nalishlaridan kelib chiqib, investitsiyalash tushunchasi o'ziga xos ma'noda ishlatiladi. Moliya nuqtai nazaridan, faqat kapitalni yo'qotish riski mavjud bo'lgan pul shaklidagi investitsiyalar yangi aktivlarini vujudga keltiradi.

Investitsiyalarning tasnifi (klassifikatsiyasi)ga muvofiq va ular moliyalashtirish manbalarining ishonchliligiga qarab risklar majmuasi o'zgarib boradi.[13]

Investitsiyalar kapitalning barcha shakllari (ssuda, aktsiyadorlik, tadbirkorlik)dan farqli o'laroq, butun risklar majmuini his etadi va kapital qiymatining yo'qotish riskini minimallashtirishni nazarda tutadi. Kapitaldan farqli o'laroq, investitsiyalar aniq va noaniq bo'lgan risklar bilan ongli ravishda to'qnashadi va bog'lanadi. Investitsiyalarning mamlakatlararo ko'chib yurishi noaniq risklar va noaniqlik darajasini oshiradi.

Investitsiyalar investitsiyalash maqsadlari va ular bilan bog'liq risklardan kelib chiqib quyidagi turlarga bo'linadi: venchur; bevosita; portfel; annuitet. Qo'yish ob'ekti bo'yicha: mol-mulk; investitsiya; moliyaviy. Investitsiyalash sub'ektlari bo'yicha: davlatga qarashli; korporativ; xususiy. Qayta ishlab chiqarish bo'yicha: sof; puturdan ketishni qoplovchi; yalpi. Qaratilgan soha va ob'ektlari bo'yicha: kapital; innovatsiya; yalpi. Harakat yo'nalishi bo'yicha: yangi loyihalarga; kengaytirishga investitsiyalar; investitsiyalar.

Investitsiyalarning mazmuni, aniq manbalardan mablag' olishga, kapital qiymatini saqlanish riski darajasi va bo'lajak samaraga erishishni hisobga olgan holda ularning asosli qo'yilishini bildiradi. Ana shu belgilarga ko'ra, investitsiyalar boshqa qo'yilmalardan farq qilishi mumkin. Bular barchasining asosida kapitalning harakatlanish jarayoni yotadi. Kapitalningn harakat qilish jarayoniga jalb etilishi investitsiyalar mohiyatini aks ettiradi. Investitsiyalash joriy qiymati saqlash, kelgusi jamg'armalarni ta'minlash maqsadida kapitallashuvga qaratiladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, investitsiyalar nazarda tutilgan va tutilmagan, ammo ehtimoli bor risklar hamda ko'zlanayotgan samaralarni baholash asosida,

[13] N. Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA 2016

o’z va o’zga mablag’lar qiymatining kapitallashuvi va jamg’arilishini ta’minlash maqsadida moliyaviy va real aktivlarga bog’lanishidan dalolat beradi.

3- savol bayoni: Hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’lgan muhim ustuvor yo’nalish – chet el investitsiyalarini keng jalb qilish, xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratishdir.

O’zbekistonda investorlar uchun, aytish mumkinki, ko’p jihatdan beqiyos, o’ta qulay investitsion muhit, imtiyoz va preferentsiyalar tizimi yaratilgan, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib borayotgani ham buning yorqin dalilidir.

So’nggi yillarda 18 ta davlatlararo rasmiy tashriflar amalga oshirildi va 52 milliard dollarlik 1 ming 80 a loyiha bo’yicha kelishuvlarga erishildi.

Jahon banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom va Osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi investitsiyalar hajmi 8,5 milliard dollarni tashkil etdi.

Bugungi kunda yurtimizda, chet el investitsiyalari hisobidan qiymati 23 milliard dollarlik 456ta loyiha amalga oshirilmoqda.

2019 yilda barcha manbalar hisobidan qariyb 138 trillion so’mlik yoki 2018 yilga nisbatan 16 foiz ko’p investitsiyalarni o’zlashtirildi.

Bu borada to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar miqdori joriy yilga nisbatan qariyb 1,5 barobar oshirilib, 4,2 milliard dollarga etkaziladi. Natijada 142 ta zamonaviy korxona ishga tushirildi.

Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo’yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin.

Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida biznes sub’ektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferentsiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozim.

Birinchi navbatda, eksportga mahsulot chiqarayotgan, innovatsion va yuqori texnologik ishlab chiqarishni yo’lga qo’ygan tadbirkorlarga va chet ellik investorlarga shunday imkoniyat yaratish kerak.

Xalqaro moliya institutlari va xorijiy kompaniyalar bilan tuzilgan shartnoma va bitimlar asosida iqtisodiyotning real sektoriga 3 milliard dollardan ortiq investitsiya kiritish ko’zda tutilmoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, bu mablag’ning 2 milliard 200 million dollardan ortig’i yoki 73 foizdan ziyodini to’g’ridan-to’g’ri chet el investitsiyalari tashkil etadi.To’g’ridan-to’g’ri chet el investitsiyalari hisobidan iqtisodiyotimizning ko’plab tarmoqlarida 70 tadan ortiq investitsiya loyihasini amalga oshirish mo’ljallanmoqda. Bu, avvalambor, gazni qayta ishlaydigan zamonaviy zavod qurishni o’z tarkibiga olgan Qandim guruhi konlarini, shuningdek, Xauzak va Shodi konlarini o’zlashtirish, istiqbolli uglevodorod xomashyo konlarida geologiya-qidiruv ishlarini olib borish bo’yicha yirik loyihalardir.

Ayni vaqtda Navoiy viloyatida ammiak va karbamid ishlab chiqarish kompleksi barpo etish, Qoraqalpog’iston Respublikasida tsement zavodi qurish,

Toshkent viloyatida turli mato va tikuvchilik mahsulotlari, tayyor dori preparatlari ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha loyihalar ham shular qatoriga kiradi. Bular – to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan barpo etiladigan istiqbolli ob'ektlarning bir qismi, xolos.

Jami investitsiyalarning qariyb 74 foizi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratilgan dastur va loyixalarni amalga oshirishga yo'naltirildi.

O'zida umumiy qiymati 1 milliard 600 million dollardan ortiq bo'lgan kapital qo'yilmalar o'zlashtirilib, 205 ta yirik investitsiya ob'ekti qurib bitkazildi.

Mustaqillik yillarida qurilishi nixoyasiga etkazilgan eng yirik ob'ektlar Navoiy issiqlik elektr stantsiyasida Yaponiyaning "Mitsubisi" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan 478 megavolt quvvatga ega bo'lgan bug'-gaz qurilmasining ishga tushirildi.

8-mavzu: Respublikada boshqarish tizimini takomillashtirish yo'llari

Reja:

1. O'zbekistonning davlat iqtisodiy asoslari
2. Hukumat va uning iqtisodiyotni boshqaruv vazifalari

Tayanch so'z va iboralar: davlatning iqtisodiy asoslari, yalpi ishlab chiqarish, iqtisodiy siyosat, iqtisodiy mustaqillik, xukumat, xukumatning iqtisodiy vazifalari, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy xokimiyat organlari, munitsipial mulk.

1-savol bayoni: Davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini, davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minoti darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni boshqarishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali isloh qilish.

Globallashuv va tezkor rivojlanish sharoitida davlat qurilishini takomillashtirish, davlat boshqaruvini jamiyat tarqqiyotining bugungi ehtiyojlariga mos ravishda modernizatsiya qilish o'ta dolzarb vazifa sifatida maydonga chiqmoqda. Mamlakatimiz ravnaqini ta'minlash, jamiyatni ijtimoiy-siyosiy boshqarish, shu jumladan, unga davlat hokimiyati vositasida ko'maklashuv mexanizmlarini takomillashtirish yangi-yangi imkoniyatlarni izlashni taqozo etadi.

Shu bois davlat boshqaruvini oqilona tashkil etish, uning samaradorligini oshirish zamonaviy ilm-fan va tafakkur yutuqlarini joriy etishga tayanmog'i lozim. Mustaqil davlatchiligimiz taraqqiyoti yillari mobaynida izchillik va sobitqadamlik bilan amalga oshirib kelinayotgan islohotlar tufayli bugungi kunda

mamlakatimizda demokratik qadriyatlar asosida shakllangan va faoliyat yuritadigan xalqchil davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimi qaror topdi.

Demokratiya tamoyillariga tayanuvchi davlat hokimiyati xalq manfaatini ifoda etib, jamiyatni boshqarish hamda rivojlantirishga xizmat qiluvchi bunyodkor kuch sifatida namoyon bo'ladi. Davlat hokimiyati jamiyatga siyosiy rahbarlik qilib, unga yaxlitlik va barqarorlik baxsh etadi. O'zbekistonda hokimiyat idoralarining xalq manfaatlariga bo'ysundirilgani konstitutsiyaviy printsip tarzida ular faoliyatining asosiy mezoniga aylandi.

Mustaqillikka erishgach, jamiyat va davlat hayotining konstitutsiyaviy huquqiy asoslarini mustahkamlash yo'lidan borib, mamlakatimiz o'z Konstitutsiyasini qabul qildi, uning zamirida milliy qonunchilik tizimi shakllandi. Konstitutsiya va qonunlar davlat va jamiyat qurilishini demokratlashtirish va liberallashtirishning huquqiy asoslarini tashkil etdi. Avvalo, davlat organlarini shakllantirish va faoliyat yuritishi sohasiga hokimiyatlar taqsimlanishi printsipi joriy etildi: hokimiyat tuzilmalarining vakolatlari samarali konstitutsiyaviy mexanizm asosida mutanosib holga keltirilib, ularning faoliyati inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga yo'naltirildi.

Amalga oshirayotgan konstitutsiyaviy modernizatsiya qilish va davlat qurilishi sohasidagi izchil islohotlar natijasida ratsional davlat boshqaruvi tizimi shakllandi, hokimiyat tuzilmalari o'rtasida vakolatlarning mutanosib taqsimlanishiga erishildi.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasida ta'kidlanganidek, mustaqillik yillarida yurtimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida salmoqli islohotlar amalga oshirildi. Davlat boshqaruvida jamiyatga rahbarlik qilish bilan bog'liq siyosiy qarorlar qabul qilish va ularni hayotga joriy etishga yo'naltirilgan ma'muriy-tashkiliy faoliyat muhim o'rin tutadi. Bu davlat boshqaruviga siyosiy mazmun baxsh etadi.

Kontseptsiyada jamiyatimizning istiqboldagi taraqqiyotini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlarni belgilash barobarida, bu boradagi muhim vazifalarni hal etishda davlat hokimiyati tarmoqlarini, xususan, parlamentni yanada rivojlantirish va mustahkamlash, siyosiy partiyalarning rolini oshirish, mamlakatimiz fuqarolik jamiyati institutlarini, sud-huquq tizimini, saylov qonunchiligini takomillashtirish, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan bir qator qonunchilik tashabbuslarini ilgari surildi.

Jamiyat va davlat qurilishi sohasida parlament tizimini rivojlantirish, kuchli ijro hokimiyati, mustaqil sudni shakllantirish, ko'ppartiyaviylikni vujudga keltirish, mustaqil fuqarolik jamiyati institutlarini va ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish hamda ular faoliyatining kafolatlarini kuchaytirish borasida tub demokratik o'zgarishlar qilindi.

Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotini va davlat hokimiyati tizimini demokratlashtirish hamda zamonaviy asoslarda modernizatsiya qilish bugungi taraqqiyotimizning ustuvor yo'nalishini tashkil etmoqda. Davlatchilik tizimi,

hokimiyatning mazmuni, faoliyat shakllari jamiyatning ob'ektiv taraqqiyot qonuniyatlariga muvofiq belgilanadi. Bu qonuniyat jamiyat hayoti, ijtimoiy boshqaruv shakllarining tobora yangilanib, rivojlanib, ilgarilash yo'lidan borishidir[14].

Davlat hokimiyati institutlarini yanada xalqqa yaqinlashtirish, ularning faoliyatida xalq manfaatlarini izchil tarzda to'liq ifodalash mexanizmlarini yaratish vazifasi mamlakatimiz taraqqiyotidagi hozirgi modernizatsiya bosqichining markaziy yo'nalishini belgilab bermoqda.

2-rasm

2-savol bayoni: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan davlat boshqaruv organlari quyidagicha:

1. O'zbekiston fuqarolarining umumiy saylov yo'li bilan tanlanadigan Prezident.
2. Umumxalq saylovi saylaydigan—O'zbekiston Xalq deputatlari, ularning Oliy Majlisi, shu oraliqda Oliy Majlis Prezidiumi, tegishli hay'at va qo'mitalari.
3. Vazirlar Mahkamasi—uning raisi Prezident hisoblanadi.

Xukumat iqtisodiy vazifalarining asosiylarini quyidagicha ifodalash mumkii:

Iqtisodiy tizim (ya'ni bozor iqtisodiyoti)ning huquqiy asoslarini va ijtimoiy muhitni yaratib berish.

Mulk dahlsizligini ta'minlash.

Raqobat halolligini saqlash va uni himoya qilish

Daromad va milliy boyliklarni taqsimlash va qayta taqsimlash

Milliy mahsulot tarkibini o'zgartirish maqsadida resurslar taqsimotini tartibga solish

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ish bilan ta'minlash, inflyatsiya jarayonlarini nazorat qilish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish

[14] *Юсупов Э. ва бошқалар.* Ижтимоий бошқарув тизимининг тадрижи ва давлатнинг шаклланиши. – Т., 2005. – 75-бет.

Bozor iqtisodiyotiga o’tish sharoitida o’tish davrining xususiyatlarining hisobga olgan holda tegishli chora-tadbirlar, xususan, aholining ma’lum bir tabaqalarini ijtimoiy himoyalashni ta’minlash

Konstitutsiyaga kiritilgan tuzatishlar davlat hokimiyatining yanada demokratlashuvi, uning mustaqil tarmoqlari o’rtasida vakolatlarning qayta taqsimlanishi, ular o’rtasida o’zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimi rivojlanishi, shuningdek, saylov tizimining yanada takomillashuvining muhim omiliga aylanishi tabiiy.



3-rasm

Shuningdek, Konstitutsiyaga o’zgartirish kiritish to’g’risidagi Qonun bilan 98-modda Bosh vazir lavozimiga nomzod O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida uning nomzodi ko’rib chiqilayotgan va tasdiqlanayotgan paytda Vazirlar Mahkamasining yaqin va uzoq istiqbolga mo’ljallangan *harakat dasturi*ni taqdim etishini nazarda tutadigan yangi qoidalar bilan to’ldirildi. Konstitutsiyaga kiritilgan ushbu norma konstitutsiyaviy rivojlanishning xalqaro amaliyotiga to’liq mos keladi. Hukumatning faoliyat (harakat) dasturini tahlil qilish ko’plab demokratik davlatlar tajribasidan o’rin olgan konstitutsiyaviy institut hisoblanadi. Xususan, Germaniya Asosiy qonuniga binoan, parlament a’zolari nafaqat hukumat rahbari va a’zolarini tasdiqlaydilar, balki hukumat dasturi loyihasi bo’yicha o’z munosabatlarini ham bildiradilar. Ushbu dastur qonun chiqaruvchi idora a’zolari tomonidan tasdiqlanishi yoki rad etilishi mumkin. Dasturning rad etilishi bir vaqtning o’zida hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirilishini anglatadi. Finlyandiya Konstitutsiyasiga muvofiq, deputatlar Bosh vazir nomzodi tasdiqlangunga qadar hukumat dasturi loyihasini ko’rib chiqadilar hamda uning mazmunini o’rganganlaridan so’ng Prezidentga Bosh vazir lavozimiga nomzodni qo’llab-quvvatlash mumkinligi borasida o’z fikrlarini bildiradilar.

Darhaqiqat, Konstitutsiyaga kiritilgan tuzatishlar, xususan ularning parlament tomonidan hukumatning harakat dasturi ko’rib chiqilishiga oid qismi deputatlar va siyosiy partiyalar fraktsiyalari uchun yangi shakllanayotgan Vazirlar Mahkamasining mamlakatni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta’minlash bo’yicha kelgusi faoliyatining barcha jihatlaridan xabardor bo’lishlari, Bosh vazir nomzodi, hukumatning tutgan yo’li bo’yicha o’z yondashuvini belgilab olishlariga imkon yaratadi.

Yana bir demokratik normaga ko'ra, Vazirlar Mahkamasiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan *ma'ruzalar taqdim etish* vazifasi yuklanmoqda. Asosiy Qonunimizning avvalgi tahririga ko'ra, bunday ma'ruzalarni parlamentning ko'rib chiqishi uchun taqdim etish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatiga kirar edi.

Mamlakat davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimida barqarorlik, izchillikni ta'minlash, ijro etuvchi hokimiyatning mustaqil faoliyat ko'rsatish kafolatlarini kuchaytirish maqsadida amaldagi Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qilishi bo'yicha Konstitutsiyaning 98-moddasida belgilangan normalar mamlakat Prezidentining qaroriga ko'ra, hukumat ayni shu davrda, *Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi shakllantirilgunga qadar o'z faoliyatini davom ettirib turishi* haqidagi qoidalar bilan to'ldirildi. Bu jiddiy norma bo'lib, davlat boshqaruvida izchillik, uzviylik hamda davomiylikni ta'minlaydi.

9-Mavzu: Bank moliya tizimi

Reja:

1. Davlat byudjeti: asosiy ko'rsatkichlar va miqdoriy baholash muammolari.
2. Davlat byudjetining birlamchi taqchiligi va qarzning o'z-o'zini yaratish mexanizmi.
3.
4. O'zbekiston bank tizimidagi islohotlar.

Tayanch so'z va iboralar: moliya tizimi, pul-kredit siyosati, moliya-kredit tizimi, davlat byudjeti, byudjet taqchilligi, ijtimoiy sug'urta jamg'armalari, sug'urta, markaziy bank, ihtisoslashtirilgan banklar, fond birjalari, valyuta birjalari.

1- savol bayoni: Davlat qarzi–avvalgi davlat byudjeti taqchilligiga teng bo'lgan davlatning qimmatli qog'oz egalari oldidagi davlat qarzlari, davlat ichki qarzlari- davlatning qimmatli qog'oz egalari bo'lmish fuqarolar firmalar, tashkilotlar odidagi qarzlaridir. Tashki qarzlar- davlatning chet el fukarolari, firmalari va tashkilotlari oldidagi qarzlari. Xususiy qarzlar- nodavlat sektorining xususiy qimmatli qog'oz egalari oldidagi qarzlarining umumiy hajmi.

Davlat qarzlari va xususiy qarzlar- "Daromad-xarajat" aylanmasining tarkibiy elementidir. Daromadlar ortgan sayin, uy ho'jaliklari, firmalar, davlat va boshqalar tomonidan ishlatilishi lozim bo'lgan jamg'armalar ham ortib boradi.

Qarzlarni tashkil qilish- xarajat qiluvchi shaxslarga jamg'armalarni berish mexanizmidir. Agar iste'molchilar va biznes qarz berishga layoqatli bo'lmasalar, xususiy qarzlar ortib borayotgan jamg'armalar hajmini absorbirovka qilish uchun etarli tezlikda o'smaydi va vazifa davlat qarzining oshishi hisobiga amalga oshiriladi. Aks holda iqtisodiyot resurslarining to'liq bandlik sharoitidan chiqib qoladi.

Byudjet taqchilligi–davlat daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farqdir.[15] Byudjet taqchilligi va qarzni baholash quyidagi omillar ta'sirida murakkablashadi:

Odatda davlat xarajatlari hajmini baholashda iqtisodiyotning davlat sektoridagi amortizatsiya hisobga olinmaydi, Bu esa byudjet taqchilligi va davlat qarzlarini ob'ektiv tarzda oshishiga olib keladi.

Davlat xarajatlarining muxim moddalaridan biri qarzlar bo'yicha % larni to'plab asta-sekin asosiy qarzni o'chirish. Davlat xarajatalri davlat qarzining nominal foizlarini emas, balki real foizlarini o'z ichiga olishi shart.

Byudjet taqchilligining ortishi, davlat xarajatlari qarz bo'yicha to'lanadigan inflyatsion foizlarning ko'payishi hisobiga o'sishidan yuzaga keladi. Ba'zan bir vaqtning o'zida davlat byudjetining nominal taqchilligi va qarzi o'sib, real defitsit va qarz esa pasayib borayotganini ham kuzatish mumkin. Bu xil vaziyat davlatning byudjet soliq siyosati samaradorligini baholashda qiyinchiliklar keltirib chikaradi. Shuning uchun ham byudjet defitsitini baholashda inflyatsiya ham hisobga olinishi lozim.

Odatda, davlat byudjeti defitsitlarini makroko'lamda baholashda, orttirmalariga ega bo'lishi mumkin bo'lgan mahalliy byudjetlar hisobga olinmaydi. Ko'p hollarda mahalliy hokimiyat organlari federal byudjet hisobiga undiriluvchi soliqlarni pasaytirish maqsadida ataylab mahalliy byudjetlarga tegishli ma'lumotlarni buzib ko'rsatadilar. Bu xil qonuniyat fiskal detsentralizayiyalash ko'zatilgan barcha o'tish davridagi iqtisodiyotlar uchun hos. Natijada esa federal byudjet taqchilligini baholashda oshirib ko'rsatilishi kuzatiladi.

Industrial va o'tish davridagi iqtisodiyotda baholanayotgan (rasmiy) davlat byujeti taqchilligidan tashqari uning Markaziy bank hamda davlat tashkilotlari va tijorat banklarining kvazi-fiskal faoliyatiga asoslangan yashirin defitseti ham mavjud. Kvazi fiskal operatsiyalari qatoriga quyidagilar kiradi:

A) To'liq banlikning davlat tashkilotlari tomonidan moliyalashtirilishi va bank ssudalari yoki o'zaro qarzlarni to'plash hisobiga ish haqining bozor stavkalarida yuqori ravishda to'plash;

B) Iqtisodiy isloxatlarning boshlang'ich davrida Markaziy bankda ajralib chiqqan notijorat banklari jamg'armalari, ya'ni hozirda ishlamayotgan ssudalar (uy

[15] Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus. Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies. USA. 2015.

ho'jaliklari, firmalar va hokazolarga ajratilgan kreditlar). Bu kreditlar asosan Markaziy bankning imtiyozli kreditlari hisobiga to'lanadi, bunda "yomon qarzlarning" o'tish davridagi iqtisodiyoti uchun ahamiyati kattadir.

V) Markaziy bank tomonidan valyuta almashinuvi kursini barqarorlashtirishdan yuzaga kelgan chiqimlarini, davlatga foizsiz imtiyozli kreditlar (bug'doy, gurunch, kofe va boshqalar xarid uchun) bo'yicha xarajatlarning moliyalashtirishi;

Yashirin byudjet taqchilligi haqiqiy byudjet taqchilligi va davlat qarzining hajmini kamaytirib ko'rsatadi, kupincha ataylab (masalan, saylovdan oldin) hamda davlatning har bir yil uchun muvozanatlashtirilgan byudjetning "qattiqqo'l" kursi qoliblaridan kelib chiqqan holda. Demak byudjet taqchilligi va davlat qarzining mutlaq o'lchamlari o'zoq muddatga ishonchli makroiqtisodiy ko'rsatkich bo'la olmaydi, ustiga-ustak YaMM bilan bir qatorda qarzlarning ham o'sishi hisobga olinsa...

Byudjet taqchilligini turg'unlikka va davlat qarzi oshishiga olib keluvchi assosiy sabablar quyidagilar:

A) harbiy yoki boshqa ijtimoiy kelishmovchiliklar sharoitida davlat xarajatlarining oshishi. Byudjet taqchilligini uzoq muddat davomida moliyalashtirish, pul massasining ortib ketishi holatini chetlab o'tgan holda, inflyatsion bosimning yumshatish imkonini beradi;

B) iqtisodiyotning davriy pasayishlari va o'rnatilgan stabilizatorlar;

V) iqtisodiyotni stimullashtirish maqsadida soliqlarning qisqartirilishi.

2-savol bayoni: Iqtisodiy o'sish omillaridan biri qarzning YaMM nisbatidir. Bu nisbat dinamikasi quyidagi omillarga bog'liq: qarz bo'yicha to'lanadigan %lar kattaligini belgilovchi, real % stavkasi kattaligi; real YaMMning o'sish sur'atlari; davlat byudjetining birlamchi taqchilligi umumiy defitsit va qarzlar bo'yicha to'lanadigan %lar yigindisi o'rtasidagi farqdan iborat.

Davlat byutjetining birlamchi taqchilligini qarz bo'yicha moliyalashda qarz ham, u bo'yicha xizmat ko'rsatish koeftsienti ham ortadi, ya'ni iqtisodiyotdagi "qarz salmog'i" ham ortib boradi.

Birlamchi ortiqchalikning ortishi qarz o'z-o'zini yaratishning oldini olishi mumkin.

VD umumiy(G+N+F)-T

Birlamchi VD=(G+F)-T

N=D+Rr

bu erda: G- davlat xaridi; F-transfertlar; T-byudjetga kelib tushuvchi soliqlar; N-qarz bo'yicha tulovlar; D-qarz kattaligi; Rr–real % stavkasi. Davlat qarzining o'z-o'zini yaratish mexanizmini quyidagicha ifodalash mumkin: birlamchi qarzdorlikning o'sishi davlat zayomlarining emissiya qilinishiga olib keladi, bu esa davlat qarzining yanada oshishiga olib keladi. Natijada qarz bo'yicha to'lovlar ko'tariladi, umumiy taqchillik yuzaga keladi, davlat yana yangi zayomlarni chiqaradi, bu hol esa qarzning va u bo'yicha to'lovlvrni oshishiga olib keladi.

Agar real % stavkasi YaMMning o’sish sur’atidan yuqori bo’lsa, davlat qarzining ortib borishi boshqarib bo’lmaydigan bo’lib qoladi, chunki real YaMMning har bir o’sishi qarz bo’yicha %larni to’lash uchun sarflanib, qarz og’irligini ifodalovchi qarz YaMM nisbatining ortib ketishiga sabab bo’ladi.

Qarzning YaMM nisbatini kamaytirish uchun quyidagi ikkita sharoit mavjud bo’lishi lozim: real foiz stavkasi, real YaMMning o’sish sur’atidan kichik bo’lishi shart.

YaMMdagi birlamchi byudjet ortiqchaligining o’sishi doimiy bo’lishi kerak. Davlat byudjeti birlamchi taqchilligining mavjudligi «qarz salmog’i» ortishining omili hisoblanadi.

Soliqlarning ortishini o’sib borayotgan qarz bo’yicha xizmat ko’rsatish sharti bo’lib kelishi mexnatga, yangilik kiritishga, investitsiyalashga bo’lgan layokatning pasayishiga olib keladi.

Qarz bo’yicha xizmat ko’rsatish grafigiga rioya qilish uchun davlat soliqlar ko’rinishida N dan kam bo’lmagan summani yig’ishi lozim. Bu esa Nning YaMM nisbati daromadga solinadigan soliq stavkasining quyi chegarasi ekanligini bildiradi.

$$NY \leq TG'Y$$

bu erda: U-jami daromad.

Davlat qarzi bo’yicha xizmat ko’rsatishdan tashqari boshqa xarajatlar ham moliyalashtirilishi kerakligi uchun

$$TG'Y \nless GG'Y+NG'Y+FG'Y$$

holati byudjet sohasida bosim ortib borishini isbotlaydi.

Soliqlarning ortishini o’sib borayotgan qarz bo’yicha xizmat ko’rsatish sharti bo’lib kelishi mexnatga, yangilik kiritishga, investitsiyalashga bo’lgan layokatning pasayishiga olib keladi.

Shuning uchun yirik davlat qarzlarining mavjudligi nisbatan iqtisodiy o’sish imkoniyatlarini chegaralaydi.

Bu chegaralashlarni chetlab o’tish uchun, davlat zayomlarni bosib chiqarib, ulardan kelgan daromaddan «eski qarzlarni» qoplash maqsadida foydalanish mumkin.

Davlat doimo soliqlarni oshirish, davlat qarzini qayta moliyalash yoki byudjet taqchilligining monetarizatsiyasi o’rtasida tanlash imkoniyatiga egaligini hisobga olib, davlatga salmoqli qarzlarning mavjud bo’lishiga qaramasdan uning inqirozga yuz tutishi havfi deyarli yo’q.

Davlat byudjet defitsitini uzok muddat davomida moliyalash % stavkasini oshiradi, bu esa o'z navbatida, investitsion xarajatlar kamayishiga olib keladi. Xususiy sektorda yo iste'mol, yo investitsion tovarlar ishlab chikarilishi siqib chiqarsa, bugungi avlodning yashash darajasiga ta'sir qilmaydi. Lekin kelajak avlodga kichik xajmdagi asosiy ishlab chiqaruvchi fondlar meros bo'lib qoladi va o'z navbatida bu daromadlar darajasining pasayishiga olib keladi. Bu xil ta'sir davlat xarajatlarni asosan ist'mol xarajatlari (ijtimoiy transfertlar, uquvchilar uchun subsidiyalar va xokazo) ni ko'tarish hisobiga oshiridganda ro'y beradi. Davlat invenstitsiyalari (sarmoyalari) xususiy sarmoyalar kabi iqtisodiyotning ishlab chiqarish potentsialini mustahkamlaydi. Agar davlat xarajatlari, investitsion xarajatlar (masalan, sarmoyalarning avtostradalar kurilishiga, sog'liqni saqlash tizimiga, ta'limga jalb etilishi) ko'rinishga o'tsa, u holda kelajak avlod ko'liga o'tadigan ishlab chiqaruvchi kuchlar kamayadi. Ularning tuzilishi, tarkibi esa davlat kapitali ulushining foydasiga o'zgaradi. Lekin shu bilan birga iste'mol uchun muljallangan xususiy investitsiyalar siqib chiqarilishi mumkin, bu esa aholining joriy iste'moli chegaralanishiga olib keladi.

3-savol bayoni. 2020 yil 12 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF -5992–sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni qabul qilindi.

Farmon bilan 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi tasdiqlandi.

Strategiyada bank tizimida hozirgi kunda saqlanib qolayotgan muammo va dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

1. Bank tizimida davlatning yuqori darajada ishtiroki natijasida moliyaviy va inson resurslaridan samarasiz foydalanilayotganligi, ularda korporativ boshqaruv va tavakkalchilikni boshqarish tizimlari to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi.

2. Davlat ishtirokidagi banklarning ustuvor dasturlar, sohalar va davlat ulushiga ega korxonalarga bozor stavkalaridan kam bo'lgan stavkalarda kreditlar ajratuvchi an'anaviy "taraqqiyot banklari" vazifasini bajarishi.

3. Kreditlashni yuqori sur'atlarda o'sib borayotganligi va buning natijasida banklarning barqarorlik darajasini ifodalovchi likvidlilik va kapital etarlilik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etganligi.

4. Imtiyoz kreditlar ulushining yuqori darajada saqlanib qolayotganligi natijasida moliya bozorida narx signallarining noto'g'ri shakllanishi, shuningdek pul-kredit siyosatining transmission mexanizmlarining ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi.

5. Yuqori darajadagi dollarlashuv, shuningdek kredit va depozitlarning yirik korxonalar va iqtisodiyotning alohida sohalarida jamlanganligi natijasida bank tizimining valyuta, kredit va likvidlilik xatarlariga bardoshliligini zaifligi.

6. Davlat ishtirokidagi banklar biznes-modellarining asosan korporativ mijozlarga xizmat qilishga yo'naltirilganligi, nobank moliya tashkilotlarining roli sustligi, shuningdek innovatsiyalar va axborot tizimlarining yaxshi

rivojlanmaganligi sababli moliyaviy ommaboplik darajasining pastligi tizimda tub islohotlarni amalga oshirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Xorijiy davlatlarda amalga oshirilgan bank tizimidagi ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganishga qaratilib natijada muhim xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, bank tizimida davlat ulushining qisqartirilishi bank tizimini rivojlantirishning muhim omili.

Ikkinchidan, davlat ishtirokidagi banklarni xususiylashtirish jarayoni ilg'or texnologik echimlar va bank ishining ilg'or tajribasi, shuningdek etarli moliyaviy imkoniyatlarga ega nufuzli va sifatli aktsiyadorlarga yo'l ochishi lozim.

Uchinchidan, islohotlar muvaffaqiyatining asosiy shartlaridan biri bu – banklarni qisman emas to'liq xususiylashtirish.

To'rtinchidan, davlat ishtirokidagi banklar va real sektor korxonalarini paralel ravishda isloh qilish iqtisodiy islohotlarning samaradorligida muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga davlat ixtiyoridagi korxonalarni restrukturizatsiya qilish va xususiylashtirish ularning iqtisodiy imkoniyatlarini oshirib, banklar faoliyatiga davlat aralashuvini keskin qisqartiradi.

Beshinchidan, islohotlar davrida davlat ishtirokidagi korxonalarning kreditlashga bo'lgan talabini cheklab qo'ymaslik hamda moliyaviy ommaboplikni ta'minlash uchun ayrim banklarda davlat ulushini saqlab turish maqsadsha muvofiqdir.

Strategiya doirasida keyingi besh yillikda bank moliya tizimini isloh qilish va rivojlantirishning to'rtta ustuvor yo'nalishlari belgilangan. Jumladan:

1. Bank tizimining samaradorligini oshirish banklarni iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sirini kuchaytiradi. Bunda:

- bank tizimiga zamonaviy echimlarni joriy qilishga, moliyaviy va inson resurslarini samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan moliyaviy barqaror va nufuzli investorlarni jalb qilish;
- imtiyozli va subsidiyalashgan kreditlarni qisqartirish, kreditlashni pul-kredit siyosati signallari asosida faqat bozor shartlarida amalga oshirishga o'tish;
- kredit resurslaridan erkin foydalanish imkoniyatlarini oshirish maqsadida banklarning davlat mablag'lariga qaramligini pasaytirish;
- banklarning samarali infratuzilmaisni yaratish, bank faoliyatida zamonaviy texnologik echimlarni keng joriy etish nazarda tutiladi.

2. Banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish rejalashtirilgan islohotlar muvafaqqiyatining hamda bank tizimiga ishonchni saqlab turishning asosiy omili hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda xususan:

- xalqaro standartlar va ilg'or tajribani qo'llagan holda banklar korporativ boshqaruvni takomillashtirish;
- kreditlashning mo''tadil darajada o'sishini ta'minlash va kredit portfeli sifatini yaxshilash;
- bank nazoratini va banklarda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlarini rivojlantirish, shu jumladan riskka asoslangan nazorat tizimini tatbiq etish ishlarini amalga oshiriladi.

3. Bank xizmatlari ommabopligini oshirish aholi va tadbirkorlik sub'ektlari, shu jumladan etarli darajada xizmat ko'rsatilmaydigan 9past darajadagi jismoniy shaxslar, qishloq aholisi, mikrofirma va kichik korxonalar) qatlamning bazaviy bank xizmatlariga bo'lgan talabini qondirishni nazarda tutadi. Moliyaviy ommaboplik:

- Jahon banki hamkorlikda moliyaviy ommabopdlikni oshirishning aniq yo'nalishlari va chora-tadbirlarini belgilovchi Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish milliy strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish;
- davlat ishtirokini aholi va kichik biznes sub'ektlarining etarlicha xizmat ko'rsatilmaydigan va zaif qatlamlariga yo'naltirish;
- mavjud bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida moliyaviy vositachilik ekotizimini rivojlantirish hisobiga ta'minlanadi.

4. Bank tizimida davlat ulushini qisqartirish tizimni tubdan isloh qilishning eng muhim komponentidir. Ushbu maqsadda:

- shaffof tanlov asosida banklardagi dalvat ulushini nufuzli xorijiy investorlarga sotish;
- xususiylashtirilayotgan banklarda davldat ishtiroki va aralashuvidan to'liq voz kechish;
- bank tizimini transformatsiya qilish va xususiylashtirish davrida hosil bo'ladigan iqtisodiy bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida davlat ishtirokini uchta bankda saqlab turish nazarda tutilgan.

Strategiya doirasida banklarning biznes-modellarini o'zgartirish orqali faoliyatlarini tijoratlashtirish va mijozga yo'naltirilganligini oshirish, ularning korporativ boshqaruv va risk-menejment tizimlarini takomillashtirish, xizmatlar sifatini va ko'lamini oshirish maqsadida xalqaro moliya institutlari va saga ixtisoslashgan konsultantlarni jalb etgan holda davlat ishtirokidagi barcha banklar faoliyati transformatsiya qilinadi.

Bank tizimini isloh qilish davrida barcha aholi qatlamlarining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabini qondirish, bank xizmtalarining hududiy qamrovini ta'minlash va davlatning ijtiomiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirish maqsadida davlat ishtiroki uchta bankda – Milliy bank, Agrobank va Mikrokreditbankda saqlab qolinadi.

Milliy bank faoliyati ustuvor ravishda strategik korxonalar va investitsion loyihalarga bozor shartlarida xizat ko'rsatuvchi, shuningdek keng qamrovli bank mahsulotlarini taqdim etuvchi tizimli ahamiyatga molik bank sifatida belgilandi.

Agrobank va Mikrokreditbank filiallari tarmog'ining hududiy qamrovini inobatga olgan hrolda, ularning faoliyati aholi, kichik biznes sub'ektlari hamda qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan kredit orqali qo'llab-quvvatlashga, hududlarda, shu jumladan moliyaviy xizmatlar qiyin bo'lgan olim tumanlarda jismoniy shaxslar va kichik biznes sub'ektlariga xizmat ko'rstaish orqali barcha hududlarda bank xizmatlari ommabopligini oshirishga yo'naltiriladi.

Ipoteka-bank, O'zsanoatqurilishbank, Asaka bank, Aloqabank, Qishloq qurilish bank va Turonbankdagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich

xususiylashtirish, bunda birinchi bosqichda banklar faoliyatini xxalqaro moliya institutlari ko'magida transformatsiya qilish, ikkinchi bosqichda esa davlat aktsiyalari paketini strategik investorlarga sotish nazarda tutiladi.

Mazkur startegiyani amalga oshirish doirasida Xalq banki va Aziya alyans bank davlat aktsiyalari paketini xorijiy strategik invetsorlarga sotish rejalashtirilgan. Shunga muvofiq, Xalq bankini xususiylashtirishga tayyorlash jarayonida jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini boshqarsh Moliya vazirligiga o'tkaziladi. Bundan tashqari, O'zagroeksportbank va Poytaxt bankning faoliyati qayta ko'rib chiqiladi.

Strategiya doirasida amalga oshiriladigan islohotlar natijasida:

- davlat ulushi bo'lmagan banklar aktivlarining bank tizimi jami aktivlaridagi ulushini joriy 16 foizdan 2025 yil yakuniga qadar 60 foizgacha oshirish;
- banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlarining umumiy majburiyatlaridagi ulushini joriy 28 foizdan 2025 yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish;
- davlat ulushiga ega kamida uchta bank kapitaliga 2025 yilga qadar etarli tajriba, bilim va obro'ga ega kamida uchta strategik xorijiy investorlarni jalb qilish;
- umumiy kreditlash hajmida nobank kredit tashkilotlarining ulushini joriy 0,35 foizdan 2025 yil yakuniga qadar 4 foizgacha oshirish;
- banklar depozitlarining majburiyatlariga nisbatini joriy 41 foizdan 2025 yil yakuniga qadar 50 foizga oshirish;
- banklarning xorijiy valyutadagi majburiyatlarining jami majburiyatlaridagi ulushini joriy 58 foizdan 2025 yil yakuniga qadar 40 foizgacha kamaytirish rejalashtirilgan.

Mamlakat bank-moliya sektori rivojlanish darajasi va barqarorligini baholash maqsadida 2024 yilning yakuniga qadar Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon bankining dasturi (FSAP)asosida moliyaviy sektor holatini baholash nazarda tutilmoqda.

10-mavzu: Respublikada bozor infratuzilmasining asosiy yo'nalishlari

Reja:

1. Bozor iqtisodiyotini tartibga solish zarurligi va yo'llari.
2. Bozor munosabatlarining Respublika iqtisodiy mustaqilligiga ta'siri.
3. Bozor iqtisodiyotiga o'tish dasturi va uning asosiy yo'nalishlari.

Tayanch so'z va iboralar: bozor iqtisodiyoti, sof bozor iqtisodiyoti, davlat korxonalari, davlatning soliq siyosati, mehnat unumdorligi, ishsizlik, inflyatsiya, pul muomalasi, davlat byudjeti, iqtisodiy islohotlar, siyosiy barqarorlik, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgarishlari.

1- savol bayoni: Hozirgi kunda birorta ham mamlakatda sof bozor mavjud emas. Barcha mamlakatlarda iqtisodiyot ozmi-ko'pmi tartibga solinadi. Agar iqtisodiyot davlat tomonidan tartibga solinmas ekan, ishlab chiqarish sohasida albatta inqiroz holatlari vujudga keladi. Hozirgi kunda rivojlangan bozor xo'jaliklarida davlatning u yoki bu darajada iqtisodiyotga aralashuvi mavjud. Lekin barcha rivojlangan mamlakatlarda ham davlatning iqtisodiyotga aralashuvi bir xil emas. Masalan, Shvetsiya, Finlyandiya kabi mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi keng miqyosda bo'lib, bu asosan ijtimoiy sohaga tegishli yangi ijtimoiy demokratizm siyosatidir. Angliya, Italiyada esa davlat iqtisodiyotga ham aralashadi.[16]

Bozor iqtisodiyotining asosi tovar ishlab chiqaruvchilarning qay darajada erkinligi bilan belgilanadi. Agar tovar ishlab chiqaruvchilar mutlaqo erkin bo'lishsa, bozor munosabatlari rivojlangan bo'ladi va shu bilan birga inqirozga olib kelishi mumkin. Masalan, AQShda qishloq xo'jaligining rivojlanishiga davlat uch xil usulda: qonun yuli bilan, ma'muriy yul bilan, iqtisodiy yo'l bilan aralashadi. Shuni ta'kidlash kerakki, agar iqtisodiyotni samarali iqtisodiyotga aylantirmoqchi bo'lsak, bozor sharoitida ham uni tartibga solish albatta lozim bo'ladi.



Soliqlar orqali tartibga solish shunga asoslangan: birorta mahsulot ko'proq ishlab chiqarilishi lozim bo'lsa, shu mahsulot ishlab chiqaruvchilarga kamroq soliq solinadi, agar shu mahsulotni kamroq ishlab chiqarish lozim bo'lsa, ko'proq soliq olinadi.

Kredit orqali esa ishlab chiqaruvchilarga kredit berish miqdorini kamaytirish yoki ko'paytirish, foizini o'zgartirish natijasida ta'sir ko'rsatiladi.

Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda baholar ayniqsa katta o'rin tutadi. Davlat tomonidan olib borilayotgan narx siyosatiga qarab maqbul ravishda iqtisodiyotni boshqarish mumkin.

2-savol bayoni: Bozor iqtisodiyotiga o'tishning boshlang'ich davrida salbiy oqibatlardan qochib bo'lmaydi. Ishlab chiqarishning birmuncha pasayishi asosan «A» guruh mahsulotlari va sanoat qurilishida ko'zga ko'rinadi. Ishsizlar soni bir oz ortadi. Aholining moddiy ahvoli baholar oshishi natijasida yomonlashadi.

Faqat O'zbekistonning o'zida bozor munosabatlariga o'tish bilan ishsizlar soni, hisob-kitoblarga qaraganda, 2—2,5 barobar ko'payishi mumkin. Bu salbiy oqibatlarning oldini olish uchun esa ijtimoiy himoya qilinish mexanizmi zarurdir. Bu ijtimoiy himoya doirasiga asosan ishsizlar, mehnatga yaroqsiz kishilar, ko'p

[16] Mc Connell, Brue. Economics. 17th edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2014

bolali oilalar kiradi. Davlat bu toifa kishilarni ijtimoiy himoya qilishni ikki yo'l orqali amalga oshirishi mumkin:

Kam ta'minlangan kishilarning mehnat bilan o'zlarining moliyaviy ahvollarini birmuncha yaxshilashlari uchun sharoit yaratish.

Markazlashgan holda nochor kishilar va oilalarni mablag' bilan ta'minlash.

Agar birinchi yo'l rag'batlantirishga asoslansa, ikkinchisi ijtimoiy kompensatsiya qilishga asoslangan. Bu o'rinda asosiy masala ishsizlikni yo'qotish muammosidir. O'zbekiston aholisini ish bilan ta'minlashning oqilona yo'llarini topish uchun avvalo faol tarkibiy siyosat o'tkazish lozim. Buning uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish va yangi ish joylarini tashkil etish bilan chet el davlatlari sarmoyalarini jalb qilish kerak.

3-savol bayoni: O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy dasturining eng asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: bozor munosabatlariga o'tish; iqtisodiy dasturning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu printsipga muvofiq bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish kerak. Avvalambor, o'zini oqlamagan ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruv printsiplaridan, o'ta markazlashtirilgan taqsimlash tizimidan, shakllangan tekischilik va boqimandalik kayfiyatidan qat'iyan voz kechish lozim; bozor munosabatlariga o'tish insonning ijodiy va mehnat salohiyatini namoyon qilishga, boqimandalikni bartaraf etishga, yo'qolib ketgan egalik tuyg'usini qayta tiklashga imkon beradi. Faqat bozorgina mahsulot ishlab chiqaruvchining hukmini bartaraf etib, respublikaning g'oyat katta boyliklaridan samarali foydalanishni ta'minlay oladi.

Bu borada bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyoti oldida turgan eng muhim masalalar quyidagilardan iborat:

— davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish yo'li, yangi paydo bo'layotgan nodavlat, ya'ni ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanayotgan va aholiga xizmat ko'rsatayotgan xususiy, aktsionerlik, jamoa va boshqa korxonalarni qo'llab-quvvatlash bilan aralash ko'p tarmoqli iqtisodiyotni shakllantirish;

—narx-navolarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish, monopoliyaga qarshi qattiq siyosat o'tkazish, davlat korxonalarning faoliyatini tijoratlashtirish hisobiga raqobat muhitini vujudga keltirish;

—bevosita xo'jalik aloqalarini har tomonlama rivojlantirish, tovarlar, sarmoya, ish kuchi va boshqa bozorlarni shakllantirish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish, bozor infratuzilmasini vujudga keltirish, bozor sharoitida ishchi kadrlar tayyorlash.

11-mavzu: Iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi

Reja:

1. Davlatning iqtisodiy funktsiyalari va uning bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga aralashuvi zarurligi.
2. Davlat tomonidan yuritiladigan makroiqtisodiy siyosatning ko'rinishlari.
3. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvining o'sishi.

Tayanch so’z va iboralar: iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarilishi, davlatning iqtisodiy vazifalari, fiskal siyosat, monetar siyosat, makroiqtisodiy siyosat, byudjet, pul-kredit siyosati, dotatsiya, subventsiya, subsidiya, xalq xujaligi balansi..

1-savol bayoni: Davlatning iqtisodiy vazifalari ko’p va turli xildir. Shuning uchun bizning tahlilimizga asos sifatida davlatning qo’yidagi iqtisodiy faoliyatlarini qarab chiqamiz.

Birinchidan, davlatning ayrim iqtisodiy vazifalari bozor tizimi rivojlanishini engillashtirish va qo’llab-quvvatlash maqsadiga egadir. Bu sohaga davlatning quyidagi ikki faoliyatini kiritishimiz mumkin:

1. Bozor tizimi samarali faoliyat ko’rsatishini ta’minlaydigan huquqiy baza va ijtimoiy muhitni ta’minlash;
2. Raqobatni himoya qilish;

Ikkinchi guruh vazifalarini bajarishda davlat bozor tizimi faoliyatini kuchaytiradi va turlaydi. Bu erda davlatning qo’yidagi uchta vazifasi asosiy ahamiyatga ega.

1. Daromad va boyliklarni qayta taqsimlash;
2. Milliy mahsulot tarkibini o’zgartirish maqsadida resurslar taqsimotini tartibga solish;
3. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya’ni iqtisodiy kon’yukturaning egiluvchanligi natijasida paydo bo’ladigan ishsizlik va inflyatsiya darajalarini nazorat qilish hamda iqtisodiy o’sishni rag’batlantirish;

Davlat bozor iqtisodiyotining samarali faoliyat ko’rsatishi uchun asos bo’ladigan ayrim xizmatlarni va huquqiy bazani ta’minlash vazifalarini oladi. Huquqiy bazalarni ta’minlash asosan xususiy korxonalarga xaq-huquqlar berish, xususiy mulkchilikni aniqlash va shartnomalarni bajarishni nazorat qilish va shuningdek boshqa sohalarda namoyon bo’ladi.

Bozor iqtisodiyotida raqobat asosiy tartibga soluvchi mexanizm bo’lib hisoblanadi. Bu ishlab chiqaruvchilar va resurslarni etkazib beruvchilarni o’ziga bo’ysintiradigan yagona kuchdir. Bozor tizimiga bo’ysinadigan ishlab chiqaruvchilar raqobat natijasida foyda olishni rejalashtiradi. Kimki bu qonunni buzsa zarar ko’radi va oqibatda batamom tugatilishi mumkin. Raqobat sharoitida iste’molchi-bu xo’jayin, bozor-ularning ta’minotchisi (agenti), korxona esa-ularning xizmatkori hisoblanadi.

Monopoliyaning o’sishi bu vaziyatni tezda o’zgartiradi. Monopoliya raqobat bilan almashinar ekan sotuvchilar bozorga ta’sir qilishi mumkin yoki o’zlarining manfaatlaridan kelib chiqqan holda narxlarni oshirish orqali mamlakatga zarar olib keladi.

Bozor tizimi rivojlanishi bilan mamlakat aholisi oladigan daromadlar va qiladigan xarajatlari o'rtasida nomutanosibliklar paydo bo'ladi. Bu kabi muammolarni hal qilishda davlat asosiy ahamiyatga egadir. Ya'ni, davlat jamiyatdagi daromadlar nomutanosibligini kamaytirish vazifasini bajaradi. Bu vazifalar bir nechta siyosiy tadbirlar va dasturlarda o'z echimini topgan. Birinchidan, transfert to'lovlari orqali yordamga muxtoj, boqimanda, nogiron va ishsizlarni nafaqalar bilan ta'minlaydi. Ikkinchidan, davlat bozorga aralashuvi orqali daromadlar taqsimlanishini o'zgartiradi. Fermerlarga kafolatlanadigan baho va minimal ish haqi to'g'risidagi qonunchilik davlatning ayrim gurux aholilarining daromadlarini tenglashtirish maqsadida bahoni tartibga solib turishga misol bo'la oladi. Bundan tashqari aholidan olinadigan daromad soliqlarining foizlar bo'yicha tabaqalanishi ham kam ta'minlangan axolini qo'llab-quvvatlash maqsadida olib borilaetgan dasturlardan biridir.

Iqtisodchilarga bozor faoliyati buzilishining ikki holati ma'lum. Birinchidan, kerak bo'lmagan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda qanday resurslar bo'lishidan qat'iy nazar iqtisodiy jihatdan foydaliligini aniqlashda ajratib ko'rsata olmaydi. Birinchi holatda resurslarni tuslanishi bilan yoki qo'shimcha samara, ikkinchidan esa davlat yoki ijtimoiy manfaatga bog'liq.

Oldingi mavzularda ko'rdikki raqobatli bozor tizimining qulayliklaridan biri bo'lib resurslarni samarali taqsimlash ekan. Yoki boshqacha aytganda, har bir turdagi tovar va xizmatlarlarni ishlab chiqarishda resurslar to'g'ri yoki maqbul taqsimlanadi. Shu bilan birga raqobatli bozordagi resurslarning samarali taqsimlanishida yashirincha ravishda kamchiliklar ham mavjud. Ya'ni, har hil turdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish yoki iste'mol qilishda qo'shimcha samara yoki tovlanish bo'lmaydi deb hisoblanadi. Tovlanish tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish yoki is'temol qilish bilan bog'liq bo'lgan imkoniyat va xarajatlar uchunchi bir tomonga ya'ni bevosita sotuvchi yoki sotib oluvchi bo'lmagan tomonga o'tadi. Tovlanish shuningdek qo'shimcha samara deb ham yuritiladi. Chunki, u bozor oldi-sotdisida qatnashayotgan individ yoki guruxlar hisobiga to'g'ri keladigan imkoniyat va xarajatlarni bildiradi.

Tovlanish xarajatlari tovarlarni ishlab chiqarish yoki iste'mol qilishda uchinchi bir tomondan kutilmagan xarajatlar paydo bo'lishi tovlanish xarajatlarini bildiradi. Bu xarajatlarning ko'pgina qismi atrof muhitning ifloslanishi bilan bog'liq. Davlat xarajatlarining tovlanishi natijasida resurslarning nomutanosib taqsimlanishini oldini olish uchun qonunlar va o'ziga xos soliqlar qabul qiladi.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga aralashuvidan asosiy maqsadi, iqtisodiyotga yangi demokratik usullar bilan rahbarlik qilish, barcha xorijiy mamlakatlar bilan samarali iqtisodiy integratsiyaga o'tish, ITT yutuqlaridan samarali foydalanish asosida resurslardan samarali foydalanish yo'lga qo'yish va aholining turmush darajasini yuksaltirishdir.

2-savol bayoni: Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat mamlakat iqtisodiyotiga bevosita aralashadi. Davlatning mamlakat iqtisodietiga aralashuvi makroiqtisodiy

siyosat orqali amalga oshiriladi.[17] Bu siyosatlarga biz asosan qo'yidagilarni kiritamiz: 1. Byudjet; 2. Pul-kredit; 3. Dotatsiya; Subventsiya; Subsidiya; 4. Xalq xo'jaligi balansi;
5. Soliq mexanizmi; 6. Chegaralangan baholar va boshqalar.

Davlat byudjet xarajatlarini (davlat xarajatlari va transert to'lovlari) ko'paytirilishi yoki qisqartirilishi orqali mamlakat iqtisodiyotiga aralashadi. Davlat tomonidan tartibga solishning bevosita usullari yoki byudjet siyosatiga tovar va xizmatlarning davlat xaridi, YaMM ni taqsimlash va qayta taqsimlash ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqarish va amalga oshirish davlat byudjetining daromadlar va xarajatlar qismidagi mutanosiblikni ta'minlash, ishlab chiqaruvchilarga moliyaviy yordam shakllarini ko'rsatish, narxlar ustidan nazorat o'rnatish, eksport va import qilinadigan tovarlarga kvotalar o'rnatishdan iborat. Avvalom bor u mamlakatda pul massasini tartibga solishga qaratilgan va uning asosiy vazifasi bo'lib narxlar va real milliy ishlab chiqarish hajmining o'sishiga mos keladigan pul emissiyasidan iborat. Bu siyosatning asosiy vositasi bo'lib, Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan hisob stavkasini tartibga solish, tijorat banklarining majburiy ravishda Markaziy bankda saqlaydigan rezerv normasini o'zgartirish, qimmatbaxo qog'ozlar bo'yicha ochiq bozordagi operatsiyalarni yo'lga qo'yish va shuningdek boshqa tadbirlardan iborat.

Davlat tomonidan xo'jaliklarga ko'rsatiladigan moliyaviy erdamlar dotatsiya, subventsiya va subsidiya shakllarida olib boriladi.

Dotatsiya-byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan qaytarib olmaslik sharti bilan xo'jaliklarning zararlarini qoplash, shuningdek mahalliy byudjetlar mutanosibligini ta'minlash uchun ajratilgan pul mablag'laridir.

Subventsiya-qat'iy maqsadlar uchun beriladigan dotatsiya turi bo'lib, undan foydalanish sharti buzilganda ularni qaytarib olish mumkin.

Subsidiyalar - bu pul yoki natura ko'rinishidagi yordam turi bo'lib, byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan ko'rsatiladi. Subsidiyalar bevosita va bilvosita bo'lish mumkin. To'g'ri subsidiyalar kapital qo'yilmalar, ilmiy tadqiqotlar, kadrlarni qayta tayyorlashlarga ajratilgan mablag'lar. Egri subsidiyalar soliq imtiyozlari, imtiyozli shartlarda kreditlar berish, pasaytirilgan bojxona bojlari.

Balans - bu ikki qismdan iborat bo'lgan iqtisodiy hisob-kitobdir. Birinchi bo'limda, resurslarni tashkil etish manbalari, ikkinchisida ulardan foydalanish yo'llari ko'rsatiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'p qirrali soliqlar tizimidan foydalaniladi. Aholi davlat byudjetiga har oyda olgan daromadlariga qarab daromad solig'i to'laydi, korxonalar esa olgan foydasiga qarab foydadan soliq to'laydilar. Davlat bozor tizimining faoliyat ko'rsatishida baho mexanizmidan, xususan chegaralangan baholardan keng foydalaniladi. Jumladan chegaralangan baholar aholini himoya qilish maqsadida ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga belgilangan. Chegaralangan baho uning haqiqiy qiymatlaridan bir necha barovariga

[17] N. Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA 2016

kam bo'lishi mumkin. Davlat chegaralangan bahoni belgilashda uning bozor bahosidan yuqori va kam belgilashi mumkin.

3-savol bayoni: Tovar va xizmatlarning individual iste'moldagi xususiyatlarini qarab chiqadigan bo'lsak, avvalom bor bu tovarlar ma'lum bir miqdorda bo'ladi, ya'ni individual sotib oluvchilar uchun qulaydir. Bundan tashqari bu tovarlarni sotib oluvchilar tovar qiymatiga mos ravishda narxlarni to'lasagina unga ega bo'lishi mumkin, aksincha bo'lgan sharoitda esa ushbu tovardan olishi mumkin bo'lgan imkoniyatga ega bo'lmaydi.

Ayrim turdagi tovar va xizmatlar mavjud, ya'ni davlat yoki ijtimoiy manfaat deb ataladigan tovarlarni bozor tizimi umuman ishlab chiqarishni mo'ljallamagan chunki ularning xususiyatlari individual iste'molchilarga mo'ljallangan tovarlarning xususiyatlari teskaridir. Bundan tashqari ijtimoiy manfaatlar bo'linmaydi va ularni individual iste'molchilarga sotish mumkin emas. Masalan bunday tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga davlat himoyasi suv toshqinlarini tartibga solish, hashoratlarga qarshi va boshqalar. Jamiyat ushbu xizmatlardan manfaaat olish uchun ularni davlat ishlab chiqarishi kerak.

Bundan tashqari shunday xizmat turlari mavjudki. ularga qandaydir miqdorda narx belgilash mumkin. Masalan, ko'cha va avtomagistrallar, militsiya va yong'inga qarshi kurash, kutubxona va muzey, profilaktik meditsina xizmatlari va boshqalar.

Demak, bozor tizimidagi baho ijtimoiy manfaatlarni ko'zlab ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarga bo'lgan resurslarni ajratmas ekan, u holda ularni ishlab chiqarish mexanizmi qanday olib boriladi.

Ushbu tovar va xizmatlarning ishlab chiqarishga zarur bo'ladigan resurslar taqsimoti asosan Davlat orqali gurux yoki jamoa qarorlarida qabul qilinadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak demokratik davlatlarda siesiy usul ya'ni ovoz berish orqali aniqlanadi. Ijtimoiy manfaatlar iste'molini hajmi davlat siyosatini bildiradi. Siyosiy arenalarda qabul qilingan bu gurux qarorlari uy xo'jaliklari va korxonalarining beshta fundamental savollarga bergan javoblariga qo'shimcha bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy manfaatlarining ishlab chiqarish uchun shaxsan individual iste'moldagi qanday resurslar qayta taqsimlanadi? To'liq bandlik sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiyotda davlat oldida ijtimoiy manfaatdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun individual iste'moldagi tovarlarning ishlab chiqarishdan resurslarni ajratish muammosi turadi. Oddiy usul bo'lib, xususiy tarmoqdan tovarlarni ajratib olish uchun xususiy talabni qisqartiriladi. Bunga asosan uy xo'jaliklari va korxonalardan soliqlarni olish orqali erishiladi. Uy xo'jaliklari va korxonalar kam daromad olish natijasida o'zlarining investitsion va iste'mol xarajatlarini kamaytirishadi. Qisqacha aytganda, soliqlar xususiy iste'moldagi tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni qisqartiradi, bu o'z navbatida resurslarga xususiy talabni qisqarishiga olib keladi.

Davlat bu soliqlarni taqsimlashda ijtimoiy manfaatdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni e'tiborga oladi va shu sohaga ma'lum bir qismini yo'naltiradi.

12-mavzu: Davlat siyosatida ijtimoiy majmua

Reja:

1. Aholining ijtimoiy muhofazasini ta'minlash.
2. Sog'liqni saqlash sohasini boshqarish va iqtisodiyotda tutgan o'rni.
3. Sog'liqni saqlash sohasini xalqaro amaliyoti va istiqboli.

Tayanch so'z va iboralar: ijtimoiy himoya, hayriya jamg'armasi, ijtimoiy siyosat, moddiy himoya, ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, ijtimoiy himoya shakllari, pensiya jamg'armasi, otaliq yordam, ijtimoiy yordam tashkilotlari, ijtimoiy ta'minot.

1-savol bayoni: Mamlakatimizda vujudga kelayotgan makroiqtisodiy vaziyatga hamda iqtisodiyotning amalda yuksalishiga asoslanib, biz eng avvalo, birinchidan, ish haqining eng kam miqdorini 3,5 barobar oshirishni o'z oldimizga vazifa qilib qo'yishimizga haqlimiz. Ish haqi eng kam miqdorining bunday oshirilishi iqtisodiy yuksalishning Boshqa omillari bilan qo'shilib, shu davrda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadni 1,8-2,0 barobar oshirishga imkon beradi.

Ikkinchidan, aholii daromadlarini oshirish bilan bir qatorda ularning harid quvvatini ham oshirish zarur. Buning uchun pulning qadrsizlanishiga qarshi qaratilgan qat'iy choralarni kurish va yaqin besh yil ichida pulning qadrsizlanish darajasini 6-8 % kamaytirishga erishish zarur. Asosan mamlakatimizda ishlab chiqarishni yuksaltirish hisobiga ichki iste'mol bozorini kundalik zarur tovarlar bilan muntazam va ishonchli tarzda to'ldirish chora- tadbirlarini amalga oshirish darkor. Shu maqsadda sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmida iste'mol tovarlarining ulushini yaqin besh yil ichida 60 % ga etqarzish zarur.

Uchinchidan, aholini ijtimoiy muxofazalashning amaldagi mexanizmini tanqidiy baholash va mustahkamlash, uning aniq toifadagi kishilarga qaratilishini kuchaytirish lozim.

Davlat tomonidan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hajmi va miqdorini ko'paytirish bilan bir vaqtda haqikatda yordamga muhtoj bo'lgan kishilar va oilalarni ijtimoiy yordam olishlarini ta'minlash lozim.

Aholini ijtimoiy muxofaza qilish tizimida yolgiz qariyalar, nafaqaxo'rlar va nog'ironlarning talablari va ehtiyojlariga alohida e'tibor berish lozim.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot organlari yaqin besh yil ichida yolgiz nafaqaxo'rlar va nog'ironlarnining uy-joy, maishiy sharoitlarini yaxshilash, ularni dori-darmonlar va maxsus muolaja bilan ta'minlash, qariyalar va nog'ironlar uylarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarini ishlab chiqishlari zarur.

Nogironlarni to'laqonli faol hayotga qaytarish uchun ularning jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, uqitish, qayta uqitish va ishga joylashtirishni tashkil etish lozim.

Shuningdek, nog'iron bolalarni tibbiy, ijtimoiy jihatdan madad berish va mexnat qobiliyatini tiklashni, kasb o'rgatish va sungra ishga joylashtirishning ko'zda tutadigan maxsus Davlat dasturini ishlab chiqish va qabul qilish zarur.

To’rtinchidan, yangi ish joylarini barpo etish va aholining ish bilan oqilona bandligini ta’minlash bo’yicha faol siyosat o’tkazish kerak. Bu borada ishsizlikning oldini olish, mexnatga yaroqli har bir fukaro o’z mexnatidan daromad topib, ehtiyojlarini qondirishi, turmush darajasini, oilasi va bolalari faravonligini oshirishi uchun zarur shart-sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega.

Beshinchidan, ijtimoiy infratuzimani, avvalo, qishloq joylarida yanada rivojlantirish, aholini tabiiy gaz va ichimlik suv bilan ta’minlash yuzasidan qabul qilingan Davlat dasturini bajarish kerak.

2- savol bayoni: Sog’liqni saqlash sohasini isloh qilish va ushbu tizimda sifat o’zgarishlarini amalga oshirishni ta’minlash borasidagi ishlar davom ettirildi. Hozirgi kunda mamlakatimizda sifat jihatidan yangi, eng yuksak talablarga javob beradigan va respublika hamda viloyatlar shoshilinch tibbiy yordam ko’rsatish markazlarini o’z ichiga olgan tibbiyot muassasalari tarmog’i shakllandi.

Barcha viloyatlar markazlarida kattalar va bolalar uchun ko’p tarmoqli tibbiyot markazlari, har bir tumanda eng zamonaviy meditsina asbob-uskunalari bilan jihozlangan qishloq vrachlik punktlari faoliyati yo’lga qo’yildi. Ushbu qishloq vrachlik punktlarining soni 2000 yilga nisbatan 2 barobar ko’payib, 3 ming 200 tadan oshdi.

So’nggi yillarda mamlakatimizda onalik va bolalikni muhofaza qilish bo’yicha yuksak samarali zamonaviy tibbiyot muassasalarining mustahkam tizimi yaratilgani shu yo’ldagi muhim qadam bo’ldi.

Viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida skrining markazlari tashkil etildi va ularning faoliyatini ta’minlash uchun 2015 yilning o’zida 4 million dollardan ortiq mablag’ yo’naltirildi. 2015 yilda 116 ming nafardan ziyod bo’lajak ona skrining markazlarida tibbiy ko’rikdan o’tkazildi.

Shu bilan birga, perinatal markazlar tarmog’i ham jadal rivojlanmoqda. O’tgan o’n yil davomida yurtimizda 11 ta perinatal markaz tashkil etildi. 2018 yilda ularda 158 ming nafardan ortiq, ya’ni 2000 yilga nisbatan 10 barobar ko’p ona va bola tibbiy ko’rikdan o’tkazildi.

Buning natijasida keyingi o’n yilda mamlakatimizda onalar o’limi koeffitsienti 33,1 promilledan 19,7 promillega, bolalar o’limi koeffitsienti esa 18,9 promilledan 10,1 promillega tushdi. Tug’ma va irsiy kasalliklar bilan tug’iladigan bolalar soni qariyb ikki barobar kamaydi.

Shu yillarda aholining yuqumli kasalliklar, jumladan, sil, gepatit kabi og’ir turdagi va boshqa xastaliklarga chalinishining umumiy darajasi ancha pasaydi. Bunday natijalarga erishishda shifokorlar va tibbiyot xodimlarining mehnatini moddiy rag’batlantirishni kuchaytirish, ularning kasb tayyorgarligi darajasini oshirish, mamlakatimiz farmatsevtika sanoatini jadal rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham muhim omil bo’lmoqda. Birgina 2018 yilning o’zida 32 nomdagi yangi dori preparatlarini ishlab chiqarish o’zlashtirildi va bu 2009 yilga qaraganda 23 foizga ko’pdir.

2018 yilda statsionar tibbiyot muassasalarida qo'shimcha ravishda 1 ming 630 ta yoki 2014 yilga nisbatan qariyb 2,5 marta ko'p davolanish o'rinlari foydalanishga topshirildi.

Hisobot davrida sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish uchun jami 2 trillion so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi, buning 1 trillion 700 milliard so'mi byudjet

3-savol bayoni: Sog'liqni saqlash rivojlanishining halkaro amaliyotini tahlili etish tibbiyot tuzilmasini o'z vaqtida qarab chiqish va uni tartibga solish masalalarini xal etish zarurligini ko'rsatadi.

Masalan, ingliz tilida so'zlashadigan beshta yirik mamlakat (Avstraliya, Buyuk Britaniya, Kanada, Yangi Zellandiya, va AQSh) sog'liqni saqlash tizimi keyingi un yillik mobaynida davlat xizmatchilari va vrachlarning faoliyatidan norozilik tufayli jidiy o'zgarishlarga uchradi. Ushbu mamlakatlar ko'pchiligining rasmiy shaxslari konsensusga erishish va o'zgarishlarni qo'llab quvvatlash maqsadida koalitsiyani shakllantirish uchun isloxatlarni modellashtirish va strategiya bilan shug'ullanadilar. Sog'liqni saqlashga xarajatlar kamaytirilishiga urinish uning sifat jihatdan yaxshilanishiga e'tibor ortishi bilan muvofiklashtirilishi kerakligi to'g'risidagi nuqtai nazar kuchaymokda.

Rivojlangan mamlakatlar tizimlarining eng so'ngi ko'rsatkichlarini takkoslash shuni ko'rsatadiki, bunda bir necha yil mobaynida sog'liqni saqlash to'g'risidagi baxslarda ustunlik qiluvchi uch parametr qo'llanadi. Ular qiymat, xizmatlardan foydalanish va natijalar. Ayrim solishtirishlar uchun ma'lumotlar bazasiga kiritilgan 29 mamlakat ma'lumotlaridan, ayrimlari uchun esa faqat «katta ettilik» mamlakatlari (Kanada, Frantsiya, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya va AKSh) ma'lumotlaridan foydalanildi.[18]

Sog'liqni saqlash ijtimoiy yunaltirilgan soha tarmogi sifatida bozor mexanizmi amal kilinishini buzib ko'rsatuvchi bir qancha xususiyatlarga ega. Ular orasida tibbiy xizmatlarning ko'pchilik turlari «ijtimoiy tovar» xossasiga ega ekanligi, mijozlarning bu sohada tegishli ma'lumotlarga ega emasligi, tibbiy yordamning asosiy turlarini olishdagi tenglik tamoyilini alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

Sog'liqni saqlashni bozor munosabatlari asosida yo'naltirish halkaro tajribasini qo'llash ushbu sohaning qat'iy jihatdan xarakterli bir qancha yangi belgilarida o'z aksini topadi.

Davolash-profilaktika muassasalarini rekonstruktsiya qilish, ularni zamonaviy laboratoriya, diagnostika va davolash jihozlari bilan ta'minlash uchun qiymati qariyb 137 milliard so'mlik byudjet mablag'lari hamda 136 million dollarlik xorijiy imtiyozli kredit va grantlar yo'naltirildi.

Umuman olganda, keyingi o'n yil mobaynida sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan byudjet mablag'lari hamda imtiyozli kredit va grantlar 750 million AQSh dollaridan ziyodni tashkil etdi.

2020 yil 20 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmonini

[18] Mc Connell, Brue. Economics. 17th edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2014

imzoladi. Hujjat bilan ijtimoiy-iqtsiodiy sohalarda qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilandi. Jumladan: ijtimoiy sohada:

1. Koronavirus infektsiyasi bilan kasallanganligi yoki kasallik yuqtirganda gumonlanib karantinga joylashtirilgan ota-onalarga, shuningdek ularning 14 yoshga to'lmagan farzandiga qaraetgan shaxslarga o'rtacha ish haqining 100 foizi miqdorida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi to'lanadi.

2. Koronavirus infektsiyasini yuqtirgan yoki karantinga joylashtirilgan farzandining hamda 14 yoshga to'lmagan bolaning ota-onasi bo'lgan xodim bilan mehnat shartnomaisni ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish ta'qiqlanadi.

3. 2020 yil 1 apreldan 14 yoshgacha bo'lgan farzandlari bor ijtimoiy nafaqa oluvchi oilalar sonini 10 foizga oshirish, bolani ikki yoshga to'lgunga qadar boqish va moddiy yordam berish bo'yicha O'R Moliya vazirligi choralar ko'radi.

4. Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda tibbiy, sanitariya-epidemiologiya va boshqa xodimlarga koronavirus infektsiyasining tarqalishiga qarshi kurashish tadbirlarida ishtirok etganliklari uchun oylik maoshning 6 foizi miqdorida kunlik qo'shimcha to'lov joriy etilsin.

5. Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda bir hafta ichida aholiga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik to'g'risidagi hujjatlarni berishning soddalashtirilgan tizimini tashkil etish choralarini ko'radi.

2020 yil 26 mart kuni Prezident Sh.Mirziyovning "Koronavirus infektsiyasi tarqalishiga qarshi kurashga jalb qilingan tibbiyot va sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlarini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi.

Qarorga asosan, koronavirus infektsiyasidan zararlangan bemorlar joylashtirilgan ob'ektlarda hamda koronavirus infektsiyasini aniqlash laboratoriyasida faoliyat olib borayotgan qator toifa xodimlarga har 14 kunlik faoliyat davri uchun quyidagi miqdorlarda (soliqlardan tashqari) maxsus qo'shimcha rag'batlantirish to'lovi belgilandi:

- vrachlar va vrach-laborantlarga 25 million so'mdan;
- o'rta tibbiyot xodimlariga, hamshira-laborantlarga 15 million so'mdan;
- kichik tibbiyot xodimlariga 10 million so'mdan;
- boshqa xodimlarga 5 million so'mdan.

Koronavirus bilan kasallangan bemorlarni davolash paytida virusni yuqtirib olgan tibbiyot, sanitariya-epidemiologiya xizmati va boshqa xodimlarga bir martalik to'lov miqdori 100 million so'm etib belgilandi.

Shuningdek, bemorlar bilan ishlagan vaqtida koronavirus yuqtirish natijasida og'ir ahvolga tushgan va sog'lig'i tiklanmagan taqdirda tibbiyot va sanitariya-epidemiologiya xizmati va boshqa xodimlarga yoki ularni oila a'zolariga 250 million so'm to'lab beriladi.

BMT taraqqiyot dasturi birinchilardan bo'lib O'zbekistonda koronavirus tarqalishini oldini olish bo'yicha aniq maqsadli sa'y-harakatlarni amalga oshirish uchun 250 ming dollar miqdorida moliyaviy-texnik yordamni ajratdi. Shuningdek, BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi tomonidan koronavirus pandemiyasining ijtiomiy-iqtisodiy oqibatlarini yumshatish borasida O'zbekison Hukumatiga ko'mak berish maqsadida qo'shimcha ravishda 1 million dollar miqdoridagi grant mablag'lari ajratishi masalasini ishlab chiqdi.

O'zbekistonda koronavirusdan davolanayotganlar, gumon qilinganlar va karantinda saqlanayotganlarning barchasi bepul, davlat byudjeti hisobidan davolanmoqda. O'rta ahvoldagi har bir bemorga 32 million so'm, og'ir ahvoldagi bemorga esa o'rtacha 62 million so'm, jonlantirish bo'limida yotgan bemorlarga 64 million so'm sarflanmoqda.

Karantinda bo'lib turgan fuqarolarning har biri uchun 14 kunlik karantinda davri uchun 2,4 million so'mdan, koronavrusdan tuzalib, reabilitatsiyaga olingan har bir bemor tiklanishi uchun 2,8 million so'mdan sarflangan.

13-mavzu: Mehnat bozorini tartibga solish va aholini ish bilan bandligi muammolari

Reja:

1. Mehnat resurslari, tarkibi, unumdorligi ularning ahamiyati.
2. Qishloq xo'jaligida mehnat bozori.
3. Mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Tayanch so'z va iboralar: mehnat resurslari, tarkibi, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarishning davriyligi, mehnat bozori, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ishsizlarni ijtimoiy himoyalash, mehnat qilish ekvivalenti, mehnat resurslarining ortiqchaligi, mehnat resurslarining etishmasligi.

1-savol bayoni: Aholining mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kishisi mehnat resurslari hisoblanadi. Ularga 15 ga kirgan o'smirlar, 16-55 yoshgacha bo'lgan ayollar, 16-60 yoshgacha bo'lgan erkaklar hamda pensiya yoshidagi mehnatga qobiliyatli bo'lgan fuqarolar kiradi. Shu masala «Mehnat kodeksida» «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida» kodeks va qonunda batavsil yoritilgan.

Mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan korxonalarda, tarmoqlarda iqtisodiyot darajasi yuqori sur'atlar bilan rivojlangan bo'ladi. Shuning uchun bu masalaga ya'ni mehnat unumdorligini yuksaltirishga respublikamiz hukumati doimo katta e'tibor bermoqda. Mehnat resurslardan foydalanish masalalarini hal etishda uning bir qancha xususiyatlariga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Mehnat resurslaridan foydalanish uning unumdorligi ob-havo sharoitlarga bevosita bog'langan. Ishlab chiqarishning davriyligi (sezonligi) undagi ishlarni mexanizatsiyalashganlik darajasining nisbatan pastligi ham muhim masaladir. Qishloq xo'jaligida fuqarolarning mehnat qilish qobiliyati tor doirada ixtisoslashmagan. Bu tarmoqda mehnat qilayotganlarning asosiy qismini xotin-qizlar tashkil etadi. Mehnat resurslari o'zlarining ancha vaqtini, qobiliyatni shaxsiy xo'jalik tashkil etadi va boshqalar. Bu ularni bir qancha misollar bilan isbotlash juda zarur.

2018 yilda yangi ish o'rinlari tashkil etish orqali aholi bandligini ta'minlash masalasini hal qilish ham e'tiborimiz markazida bo'ldi. Hududiy bandlik dasturlarining amalga oshirilishi natijasida yaratilgan 1 millionga yaqin ish o'rnining 68 foizdan ko'prog'i qishloq joylarda tashkil etildi.

Ta'kidlash joizki, yangi ish o'rinlarining 64 foizdan ortig'i kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik rivojini rag'batlantirishni yanada kuchaytirish, xususan, ularga yangi imtiyoz va preferentsiyalar berish, 28 foizdan

ziyodi esa yangi korxonalar tashkil etish, kasanachilikning turli shakllarini kengaytirish hisobidan yaratildi.

2-savol bayoni: Qishloq xo'jaligida fuqarolarning mehnat qilish qobiliyatini taklifi hamda ularni ishga olish (sotib olish) ya'ni ish bilan ta'minlovchilar o'rtasida yuz beradigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimini amalga oshiradigan manzil (hudud) mehnat bozori ekanligini dalolat beradi. Mehnat bozorida o'zlarining mehnat qilish qobiliyatini taklif etuvchi fuqarolar bir tomonda ularni is'temol etuvchi, ya'ni ishga oluvchi korxonalar ikkinchi tomonda uchrashib mehnat olmashuv (mehnatni oldi-sotdi) jarayonini amalga oshiruvchilar qatnashdilar. Mehnat bozori iqtisodiy munosabatlarini amalga oshiruvchi bozorlar tizimining muhim tarkibiy qismidir.

Mehnat bozorida talab va taklif qonunlarining talablarini bajarilishini ta'minlash maqsadida qo'yidagi holatga shakllantirilishi lozim.

1. Mehnat bozorida har qanday bozordagidek,kishini mehnat qilish qobiliyatini oldi-sotdi qilish jarayoni erkin raqobat asosida ta'minlanishi lozim (mehnat qilish qobiliyatini sotishni hohlaganlar sotishga) berishga,uni sotib oluvchi korxonalarga esa olish, sotib olishi imkoniyatlariga sharoit yaratilishi kerak.

2. Masalan mehnat qilish qobiliyatini oldi-sotdi jarayonini amalga oshirilishi natijasida mehnat qilish qobiliyatini beruvchilar (sotuvchilar) unga egalik qilish huquqlarini sotish evaziga ish xaqqi (bahosini) olishlari, mehnat qilish qobiliyatini oluvchilar esa xaq to'lash evaziga mehnatga egallik qilish huquqini sotib olish imkoniyati yaratilishi zarur. Sotib oluvchi ishchini mehnat qilish qobiliyatiga egalik qilish, undan unumli foydalanish xuquqiga ega bo'lishi lozim.

3-savol bayoni: Mehnat resurslari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ulardan yil davomida to'liq, samarali foydalanish lozim. Ulardan qanday foydalanilayotganlikni bir qancha ko'rsatkichlar yordamida aniqlash mumkin. Eng avvalo mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsienti. U haqiqatda ishlab chiqarishda ishlagan mehnat resurslarining miqdorini (kishilarni) mehnat resurslarining mavjud bo'lgan miqdoriga taqsimlashsh yuli bilan aniqlanadi. Unda qo'yidagi formuladan foydalanish mumkin.

MRq MRi/MRm;

bunda: MRi - xaqiqatda ishlagan mehnat resurslari(kishi);

MRm - mavjud bo'lgan mehnat resurslari.

Mehnatga qobiliyatli bir kishining 1 yilda, 1 oyda o'rtacha ishlab chiqarishda qatnashgan vaqti. Uni aniqlash uchun ishlab chiqarish jami sarflangan ish vaqtini (kishi kunlari, soatlarida) shuni sarflangan (ishlagan) jami mehnat resurslarining umumiy miqdoriga taqsimlash lozim. Uni qo'yidagi tenglik yordamida aniqlash mumkin:

$$MRiv\ q\frac{\sum Ñèâ}{\sum ì\ Ðè};$$

unda: MRiv - o’rtacha ishlab chiqarishda qatnashgan vaqti (kG’kG’s);

$\sum$Ñèâ - jami sarflangan ish vaqti (kG’kG’s).

Yuqoridagi ko’rsatgichlar qishloq xo’jaligi mehnat resurslaridan foydalanish hamda uchun unumdorliginni mehnat unumdorligi darajasi qanday ahvolda ekanligini aniqlash va ularni to’liq tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shuncha asoslangan holda kelajakda mehnat resurslaridan yaxshi foydalanish oshirish chora-tadbirlarini belgilashga juda katta yordam ko’rsatadi.

14-mavzu. Milliy iqtisodiy rivojlanishining makroiqtisodiy dasturlarini tuzish

Reja:

1. Iqtisodiy tizimlar tavsifi va ularning modellarini turlari.
2. Makrostrategiyalar tanlashning xorijiy tajribasi. Makrostrategik dasturlar.

Tayanch so’z va iboralar: iqtisodiy tizimlar, iqtisodiy modellar, iqtisodiyotning barqarorligi, doiraviy modellar, bozor mexanizmi, makrostrategiya, makrostrategik dasturlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, amerikacha model, yaponcha model, shvedcha model.

1-savol bayoni: Inson va jamiyatning faoliyati uchun ma’lum shart sharoitlar zarur bo’ladi. Bunday sharoitlar korxona va tashkilotlar, boshqaruv idoralari, uy xo’jaligi faoliyatida yaratiladi va amalga oshiriladi. Insoniyat uchun zarur bo’lgan ne’matlar va ob’ektiv tarzda tark topgan iqtisodiy munosabatlarni takror ishlab chiqarish uchun umum jarayoni iqtisodiy tizimni tashkil topadi. Hamda insoniyat tuzilishining asosi hisoblanadi.



Har bir mamlakat o’zini ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy va milliy xususiyatlarini ob’ektiv aks ettiruvchi iqtisodiy tizimni aks ettiradi. Iqtisodiy tizimlar asosan ishlab chiqarish vositalariga bo’lgan mulkchilik shakllari va iqtisodiy faoliyatni boshqarish usuli bilan farqlanadi. Ularni shartli ravishda 3 turga ajratish mumkin:

1. Ustun darajada mulkka asoslangan bozor tizimi bo’lib, unda xo’jalik yurutuvchi sub’ektlarning faoliyatlari davlat tomonidan umuman tartibga solinmaydi, Iqtisodiyotning barqarorligi va taraqqiy etish bozor mexanizmi yordamida amalga oshiriladi. Erkin narxlar va raqobat bozor mexanizmini harakatga keltiruvchi kuch bo’lib hisoblanadi.

2. Ma’muriy buyruqbozlik tizimi hisoblanib, birinchisiga butunlay qarama qarshi. Bu tizimda ishlab chiqarish vositalari asosan davlat mulki hisoblanadi. Davlat tomonidan resurslar, mahsulotlar va daromadlarning barcha doiraviy aylanishi ko’rsatmali solishtirish vositasi orqali qat’iy boshqarib boriladi.

3. Aralash tizim hisoblanib hozirgi zamon taraqqiy etgan mamlakatlariga tegishli. Bu tizimda mulkchilikning barcha shakllari (hususiy, jamoa, davlat va boshqalar) teng huquqga ega bo'lib, unda iqtisodiy faoliyatni boshqarish bozor mexanizmi va davlatning keng aralashuvi yordamida amalga oshiriladi.

Turli mamlakatlarda bozor va davlat munosabatlari bir hil emas. Masalan: Ko'pchilik Evropa mamlakatlarida iqtisodiyotni boshqarishda davlat sezilarli o'rin egallasa, AQSh da aksincha, keng imkoniyatlar hususiy tadbirkorlikka berilgan.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, agarda iqtisodiy tizimlar mulkchilikning qandaydir bir shaklga ustun darajada asoslangan bo'lsa, ular barqarorlik va o'z-o'zida rivojlanish xususiyatiga ega bo'lmaydi. Bunda u hoh xususiy hoh u davlat mulki bo'lmasin. Shuning uchun ham aralash iqtisodiy tizimni shakllantirish va yanada rivojlantirish jahonning barcha mamlakatlariga xos bo'lgan yo'nalish hisoblanadi hamda bunda davlatga taqsimlash va qayta taqsimlashda keng vakolatlar beriladi.

2-savol bayoni: Hozirgi zamonda sof iqtisodiy sistemaga asoslangan davlatni topib bo'lmaydi. Har bir tizim xo'jalik yuritishning milliy modeliga ega. Ma'muriy buyruqbozlik sovet, xitoy modellari mavjud edi. Shulardan eng mashhurlarini sanab o'tamiz.

Amerikada model - tadbirkorlik faolligini taqdirlash, faol aholini boyitish asosiga tuzilgan. Kam ta'minlanganlarni qisman engillashtirish va yordam berish kuzda tutilgan. Bu model mehnat unumdorligini yuqori bo'lishiga va shaxsiy muvaffaqiyatga erishishga asoslanadi.[19]

Yaponcha model - aholini yashash darajasini (shu jumladan ish haqi darajasi) mehnat unumdorligidan orqada qolish bilan xarakterlanadi. Shu asosda dunyo bozorida tannarxni pasayishiga erishiladi. Bu model milliy o'z-o'zini anglashga, millatni qiziqish bilan har bir insonning qiziqishdan ustun bo'lsa mamlakatning gullab yashnashida ma'lum yo'qotishlar hisobiga bo'ladi.

Shvedcha model-kuchli ijtimoiy siyosatga asoslanadi. Bu davlat qo'lida asosiy foidalarning 4 foizgina bo'ladi, davlat xarajatlari esa YaIMning 70 foizni tashkil etadi. Xarajatlarning yarmidan ko'proq ijtimoiy ehtiyojlarga ishlatiladi. Shvetsiyada soliqlar miqdori juda yuqori, shuni hisobiga aholi turmush darajasi eng yuqori davlat hisoblanadi. Bunday model «funktsional ixtisoslash» degan nom olgan. Hususiy korxonalarga yuklatilgan, aholini yuqori turmush darajasini ta'minlash esa (bandlilik, ta'lim, ijtimoiy sug'urta) davlatga yuklatilgan.

Rejali iqtisod 1990 yillarga o'zini imkoniyatlarini yo'qotdi.

O'zbekiston 1991 yil mustaqil bo'lgandan keyin bozor iqtisodiyotiga o'tishning reformasi ishlab chiqiladi. Aralash iqtisodiyot vujudga keldi.

Birinchi Prezidentimiz tomondan aralash tizimning milliy modeli ishlab chiqildi. Ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlatni qurishga kirishildi. Yuqorida ko'rsatilgan modellar asosida makrostrategiyalar tanlash mumkin.

---

[19] Mc Connell, Brue. Economics. 17th edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2014.

Respublikamizda sotsial-iqtisodiy rivojlanishda 5 tamoyilga asoslanadi:
1. Iqtisodni siyosatdan ustunligini ta'minlash.
2. Huquq ustuvorligini ta'minlash.
3. Davlat asosiy islohatchi.
4. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish.
5. Kuchli ijtimoiy himoya.

Makrostrategik dasturlar ishlab chiqishning asosiy yunalishlari.

Makrostrategik dasturlarga:

-davlatning ijtimoiy siyosati bo'yicha - dasturlar:

-aholini turmush darajasini strategik rivojlantirish.

-aholini takror ishlab chiqarish ishchi kuchi va bandlilik dasturlari.

-ijtimoiy soha tarmoqlarni rivojlantirish dasturlari.

-ilmiy-texnika taraqqiyoti dasturlari.

-ekologiya bo'yicha dastur va hoqazolar.

15-mavzu: Strategik va indikativ rejalashtirish

Reja:

1. Hududiy strategiyani roli.
2. Hududiy strategiyani tarkibi va tuzilishi.
3. Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muqobil strategiyani izlash.

Tayanch so'z va iboralar: Hududiy innovatsion strategiya, hududiy ilmiy-texnik faoliyat, innovatsion rivojlanish, hududiy strategiyalar, mehnat potentsiali, takror ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi, ilmiy-texnika resurslari, ilmiy-texnik jihozlash, mahsulotlar hajmi.

1-savol bayoni: Hududiy–innovatsion strategiya makro va mikroinnovatsion strategiyalari oralig'idagi strategiya hisoblanadi. Uning roli shundan iboratki, har qanday ishlab chiqarish va innovatsion jarayon o'zining hududiy joylashuviga egadir.[20] Davlat darajasidagi makrostrategiya markazlashgan resurslarni aniq, hududdagi korxona va tashkilotlarga joylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu korxona va tashkilotlar mahalliy ashyolar, ishlab chiqarish va mehnat resurslar, ishlab chiqaradi, ilmiy infratuzilmalardan foydalanadilar. Agar ko'rsatilgan elementlardan birontasi etarli darajada rivojlangan bo'lmasa, unda mazkur hududda makroinnovatsion strategiyani amalga oshirish chegaralanib qoladi.

Makrodarajadagi hududiy muommolarni hisobga olishni zaruriy qirralaridan biri bu-har qanday davlatki alohida hududlarni rivojlantirishga ahamiyat berishidir.

Hududiy strategiyani shakllantirish va amalga oshirish zarurligini muvofiqlashtiruvchi to'rtta asosiy omilni ajratish mumkin:

-makroinnovatsion strategiyalarni hududiy aspekti;

-hududni rivojlantirishni davlat siyosati;

[20] Mc Connell, Brue. Economics. 17th edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2014.

-hududlar rivojlanishini shahsiy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik maqsadlari;

-korxonalarni mikroinnovatsion strategiyalari;

Hududiy rivojlanish darajasi va ilmiy-texnik komplekslar funktsiyasi:

-ilmiy-texnik parklar texnopolislarni qurish va moliyalashtirish, joylashtirish rejalarini ishlab chiqadi;

-ilmiy-texnik faoliyatni hududiy boshqaruv organlariga rahbarlik qiladi.

Yangilik kiritish kompleksi vazifalari va tuzilishidagi farqlar ko'proq hududni ilmiy-texnik rivojlanish darajasiga bog'liq buladi. Hududlarni bu belgilarga ko'ra shartli ravishda 3 ta guruxga bo'lish mumkin: yuqori, o'rta va kuchsiz rivojlagan.

Yuqori darajadagi hududlarni ilmiy-texnik strategiyasi avvalo ilmiy potentsialdan foydalanishga yo'naltirilgan. Boshqa yo'nalish esa ilmiy-texnik qarorlarni shakllantirish va ekologik vaziyatni yaxshilashdan iboratdir. Chunki yaxshi rivojlangan hududlarda ekologik vaziyat talabga javob bermaydi. O'rta darajada rivojlangan hududlar eng avvalo o'zini ilmiy-texnik sohalarini va sanoatini ko'tarish, rivojlantirishdan manfaatdordirlar. Bu hududlar eng muvofiq strategiyalar birikmasini topishlari kerak:

-texnologik sanchish;

-yuqori darajadi rivojlangan hududlarda samarasiz hisoblanadigan, lekin bozorda barqaror talabga ega bo'lgan ishlab chiqarishni oraliq sinfini o'zlashtirish.

Kuchsiz rivojlangan hududlar o'zini strategiyasi mavjud tabiiy resurslardan, iqlimiy xususiyatlardan ishga qaratiladi. Asosiy vazifa - shuning asosida malakali kadrlar va mehnat resurslar bilan ta'minlash. Agar hududda mehnat resurslari kerakli darajadan ortiq bulsa, bunda qo'shimcha ish joylarini tashkil etish va ko'p ishchi talab etiladigan korxonalarni barpo etish vazifasi vujudga keladi. Oxirgi vazifa yuksak darajada rivojlangan hududlardagi korxona filiallarini rivojlantirish hamda litsenziya va patentlardan foydalanish hisobiga hal qilinishi mumkin.

2-savol bayoni: Hududda mehnatni takror ishlab chiqarish imkoniyatlari koeffitsienti qo'yidagicha aniqlanishi mumkin:

Ktvv q Chst/Ch3 (1)

bu erda:

Chst-ishlab chiqarishda band bo'lgan talabalar soni.

Ch3-noishlab chikarish sohasida band bo'lgan talabalar soni.

Koeffitsent kattaligi malakali ilmiy kadrlar rezervi mavjudligini ko'rsatadi. Agar Ktvv ko'rsatkichi yuqori bo'lsa hududiy markazni oliy o'quv yurtlarini o'zida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy-pedagogik kadrlarni rivojlanishi koeffitsenti professor-o'qituvchilar sonini hududdagi band bo'lgan aholi soniga bo'lish orqali topiladi:

Krips q Chps/Ch3 (2)

bu erda:

Chps-professor o'qituvchilar soni.

Ch3-band bo’lgan aholini soni.

Krips kattaligicha hududdagi ilmiy-texnik darajasi potentsialini asosiy indikatori hisoblanandi.

Ilmiy-tekshirish mehnat potentsiali darajasi qo’yidagicha topiladi.

Krpis q Chnii/Ch3 (3)

bu erda:

Chnii - ITI va Kb da band bo’lganlarning soni

Ch3- band bo’lganlarning umumiy soni.

Bu koeffitsent tarmoq va akademik ilmiy izlanish va konstruktorlik tashkilotlar bazasida markazlarni tashkil etish imkoniyatlarini baholashga yordam beradi. Aholini umumiy ma’lumotlilik darajasi quyidagicha aniqlanadi:

Kou q Chvo/Ch3 (4)

bu erda:

Chvo-oliy ma’lumotlilar soni.

Ch3-band aholini umumiy soni.

Mazkur koeffitsent hududni umumiy intellektual muhitini tavsiflaydi.

Kadrlarni ilmiy texnik kontsentratsiya darajasi qo’yidagicha aniqlanadi:

Kknk q Ch3n/Pr (5)

bu erda:

Chzn-ilmiy sohada band bulgan soni shuningdek ilmiy pedogogik kadrlar ham.

Pr-hudud maydoni.

Kknk koeffitsenti hudud maydonini ilmiy texnik mehnat resurslar bilan ta’minlanganligini ko’rsatadi.

ojlanishi koefitsentini aniqlang.

3-savol bayoni: Hududni ishlab chiqarish-texnik va ilmiy-texnik resurslar bilan jihozlanganligi ko’rsatkichlari.

Mazkur ko’rsatkichlar guruxi qo’yidagilarni aniqlaydi:

-ishlab chiqarish - texnik jihozlanganlik darajasi:

Kpto q Fso/Fp (6)

bu erda:

Fso - korxonani asosiy fondlarini kiymati. Bular ishlab chiqarish-texnik jihozlanish uchun murakkab mahsulotlar ishlab chiqaradi.

Fp - hududdagi ishlab chiqarish ob’ektlaridagi asosiy fondlarning umumiy qiymati.

Mazkur koeffitsent korxonani ishlab chiqarish apparatini Hududga yangiliklar kiritishini shakllantirishda foydalanish imkoniyatini tavfsiflaydi:

-ilmiy-texnik jihozlanganlik darajasi:

Kito q Fnt/F (7)

bu erda:

Fnt - ITI va KB lardagi asosiy fondlar qiymati, shuningdek alohida oliy o'quv yurtlaridagilar ham.

F-hududdagi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish ob'ektlarining asosiy fondlari qiymati.

Kito yordamida hududning ilmiy-texnik bazasini baholash mumkin bo'ladi.

-tajriba sinov quvvatlari bilan ta'minlanganlik:

$$Koeo\ q\ Foe/Fn \quad (8)$$

bu erda:

Foe - tajriba sinov korxonalarning asosiy fondlari kiymati.

Fn - ITI, KB, oliy o'quv yurtlarining asosiy fondlarini qiymati.

16-mavzu. Iqtisodiy rivojlanishda pullik xizmatlar

Reja:

1. Pullik xizmatlar sohasining iqtisodiy rivojlanishdagi roli va uni tartibga solish usullari.
2. O'zbekiston Respublikasida pullik xizmatlarni rivojlantirish ko'rsatkichlari tahlili.
3. Pullik xizmatlar sohasini isloh qilish va yanadi rivojlantirish yo'nalishlari.

Tayanch so'z va iboralar: pullik xizmatlar, bozor infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilmasi,yalpi ichki mahsulot, xususiy korxonalar, pulliu xizmatlar dinamikasi, pullik xizmatlar tarkibi, pullik xizmatlar hajmi, xizmatlar eksporti, xizmatlar importi.

1-savol bayoni: Agar an'anaviy iqtisodiyotda xizmatlar sohasi ishlab chiqarish elementlarining harakatiga ko'mak berib kelgan bo'lsa, iqtisodiyotning o'sish va murakkablashuvi ilmiy-texnika taraqqiyoti jadallashuvi bilan bu soha juda zarur, hattoki istiqbolda iqtisodiyotning asosiy omiliga aylanadi. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va raqobatlashtirish birinchi navbatda ishlab chiqarishning texnologiyalarga, axborotga va aloqa vositalariga, faqat shundan so'nggina xom ashyo va mehnat resurslariga talabini oshirdi.

O'zbekiston iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o'tkazish ma'lum qiyinchiliklar bilan boradi va ba'zida yangi muammolarni tug'diradi. O'tish davrida respublika iqtisodiyotida muammolar quyidagilar bilan belgilanadi:

-ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish;

-iqtisodiyot nisbatan bir tomonlama – xom ashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi sharoitida resurslardan optimal foydalanish, shuningdek, ularni maksimal foydali eksport qilish;

-milliy iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, yuqori texnologiyani, tarmoqlarni rivojlantirish;

-asosiy texnikasi jismoniy va ma'naviy eskirgan korxonalarni qayta jihozlash;

-kadrlarni bugungi talablardan kelib chiqib tayyorlash va qayta qurish;

-kapital va yangi texnologiyalar etishmasligi tufayli xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

-iqtisodiyotning ijtimoiy strukturasini o'zgartirish, mulkdorlar va tadbirkorlar sinfini shakllantirish;

-iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi tarmoqlarni himoya qilish, ijtimoiy beqarorlikni kamaytirish uchun aholining yaxshi ta'minlanmagan tabaqalarini muhofaza qilish;

-bozor va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish.

Shuni ta'kidlash zarurki, direktiv iqtisodiyot davriga nisbatan davlatning iqtisodiy jarayonlarga ta'siri kamayishi natijasida davlat iqtisodiyotni boshqarish va boshqa xizmatlar ko'rsatishni yangi shakllangan institutlariga topshiradi. Shu tufayli aynan shu davrda iqtisodiyotning ularga talabi keskin seziladi.

Yuqoridagi sanab o'tilgan muammolarni o'tish davriga xos bo'lgan xizmatlar sohasi zarurligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz.

Iqtisodiyotni ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tkazish, islohotlarning murakkablashuvi va ilmiy strategik (rivojlanish strategiyalarini belgilash, ularni amalga oshirish yo'llarini ishlab chiqish, real harakatlarning aniq rejalarini ishlab chiqish), huquqiy, siyosiy bazalar yaratilishini taqozo etadi. Bu muammo xizmatlar sohasiga ham to'liq taalluqlidir.

Bunda davlat faoliyati birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lsada, joylarda islohotlarni o'tkazishda huquqiy, bank-konsalting va boshqa xizmatlarning ahamiyatli keskin oshadi.

Resurslardan optimal foydalanish muammolari asta-sekin davlatning ta'sir doirasidan chiqadi. Bu tabiiydir. Chunki resurslardan samarali foydalanish muammosi ishlab chiqaruvchilarning, ya'ni ulardan foydalanuvchilarning muammosidir. Axborot, aloqa xizmatlariga eng ko'p ehtiyojni tashqi savdo sohasi sezadi. Shuni aytish joizki, 1991 yilga qadar respublika tashqi iqtisodiy aloqalar yuritmagan, shu sababli iqtisodiy faoliyatning bu sohasini yangidan o'zgartirishga to'g'ri kelmoqda.

Bu holatda xorijiy firmalar tashqi bozorga ixtisoslashganligi, katta tajribaga ega bo'lganligi uchun ham yuqori pozitsiyada turadilar. Bu sohada mamlakat firmalari va mutaxassislarning ustun bo'lishi strategik vazifa hisoblanadi. Milliy iqtisodiyot strukturasini o'zgartirish fan sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirish, investitsiyalash muammosi bilan chambarchas bog'langan. Bu vazifani hal etishda davlat strukturalari va xorijiy firmalar hamda milliy iqtisodiy sub'ektlarning hamkorligi nisbatan samarali hisoblanadi. Ularning samarali hamkorlik qilishi faqatgina rivojlangan xizmatlar sektori sharoitida mumkin bo'ladi. Bu jihatdan O'zbekiston juda oldinga chiqdi. Mulkchilik va erkin tadbirkorlikni shakllantirish bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi qonuniy jarayondir. Lekin bu jarayon erkin, tabiiy

jihatdan juda sekin ro'y beradi yoki sun'iy tezlashtirilganda ijtimoiy ziddiyatlar kuchayishiga, jamiyatning juda boy va juda kambag'allarga tabaqalanishiga olib kelishi mumkin. Bu jarayonni optimallashtirish uchun ijtimoiy siyosatni rivojlantirish kerak. Bu sohada mahalliy boshqaruv organlari, viloyat va tuman xokimiyatlarining roli keskin oshadi. Bu hol, Ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Davlatning rolini e'tirof etgan holda shuni qayd qilish kerakki, nodavlatlar xizmatlar sektori rivojlantirilmas ekan, jamiyatning byurokratlashuvi darajasi kuchayib boraveradi. Bu strukturalarni shakllantirishda davlatning imtiyoz berish siyosati ijtimoiy islohotlarning ishonchli bazasini vujudga keltiradi. Bu xizmatlar xarakteriga ko'ra, haq to'lanmaydigan xizmatlardir.

Xizmatlar sohasining O'zbekiston iqtisodiyotidagi ahamiyatli iqtisodiy islohotlar va milliy iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi bilan ham belgilanadi.

Har qanday iqtisodiyotdagi xizmatlar sohasining ahamiyatli bu soha tartibga solinishini zarur qilib qo'yadi.

Boshqa bozorlarga xizmatlar bilan kirib borish tovarlar bilan kirib borishdan ko'ra qiyinroqdir.

Eng yangi turdagi xizmatlar bu sohalari bo'lgan bank ishi, telekommunikatsiyalar, axborot va boshqalar ustidan nazorat o'rnatish milliy suverinitetga xavf tug'dirishi mumkin. Chunki bu xizmatlar orqali zamonaviy ishlab chiqarish boshqariladi.

Shu sababli mamlakatda xizmatlar sohasini tartibga solish tadbirlari ishlab chiqiladi.

2-savol bayoni: So'nggi yillarda xizmatlar sohasi, jumladan, aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish boshqa tarmoqlardagiga nisbatan barqaror rivojlanadi. Kapital sig'imi yuqori bo'lmagan va uncha murakkab bo'lmagan texnologiyalarni talab etuvchi xizmat sohasi tarmoqlarining nisbatan yuqoriroq sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida bu soha ichida tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bu sifat o'zgarishlari yo'nalishiga, shuningdek, davlatning bozor islohotlarini jadallashtirishga qaratilgan ko'p tomonlama iqtisodiy siyosati ham ta'sir ko'rsatadi. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bo'yicha qonunlar va boshqa normativ hujjatlarning qabul qilinishi, bu jarayonlarning qonuniy o'tkazilishi, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilish va xizmatlar sohalari savdo va umumiy ovqatlanishda, milliy xizmatda (moliya va kreditda) mamlakat hamda xorijiy firmalarning faoliyatini kuchaytirishning iqtisodiy mexanizmini yaratish bo'yicha katta ishlar qilindi. Xususiylashtirishning birinchi bosqichida maishiy xizmat ko'rsatish, savdo ob'ektlarining xususiylashtirilishi, ko'pgina transport korxonalarning aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirilishi xizmat ko'rsatish sohasi barcha tarmoqlarida xususiy kapitalning keng ishtirok etishini, bu sohaga bozor munosabatlarini keng joriy qilish va Raqobat muhitini yaratishni ta'minladi.

Raqobat xususiy va davlat korxonalari, mamlakat va xorijiy firmalar o'rtasida rivojlandi.

Ma'lumki, xizmatlar bozorining rivojlanishi talab va taklif mexanizmlari bilan chambarchas bog'langan.[21] Xizmatlarga talabning moddiy asosi bo'lib ishlab chiqarish sohasi hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, qulay investitsiya muhitini talab etadi. Sanoat va qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy o'sish xizmatlarga talab o'sishni keltirib chiqaradi. Iqtisodiy qonunlarga ko'ra, bozorda ma'lum bir vaqtda taklif etilgan xizmat yoki tovar ularga talab tug'ilishiga olib keladi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, respublikada xizmatlar sohasi ular taklifiga bog'liq ravishda rivojlanib bormoqda. Masalan, ichki bozorimizda mobil telefon aloqasi xizmatiga talab bu xizmatni taklif etuvchi xorijiy firmalar paydo bo'lishi bilan yuzaga keldi. Keyingi yillarda taklif qilinayotgan xizmatlar doirasi va imkoniyati kengayishi bilan xizmatlarga talab keskin o'sdi. Respublikada xizmatlar sohasi rivojini o'rganish uchun ma'lum ko'rsatkichlar tizimidan foydalanildi. Bu ko'rsatkichlarni tahlil qilish xizmatlar sohasi rivojini xarakterlash imkonini beradi.

Ammo bu iqtisodiyot rivojlanishining samardorligini anglatmaydi, chunki moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari hissasi pasayishi natijasida kelajakda xizmatlarga talab pasayishiga olib kelishi mumkin. Tarmoqlar bo'yicha aholi daromadlarining o'sish xizmati ko'rsatishi bilan band korxonalar rentabelligini belgilaydi.

Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish umumiy hajmda yo'lovchi tashish xizmatlari etakchi o'rinda turadi (34,6). Shuningdek, maishiy xizmatlar hissasi ham yuqori bo'lgan (15,4%). Keyingi yillarda sog'liqni saqlash, dam olish va madaniyat xizmatlari hissasi o'sib borayapti. Agar respublikamiz bo'yicha jon boshiga o'rtacha 12340,2 so'mlik maishiy xizmat ko'rsatilgan bo'lsa Sirdaryoda bu ko'rsatkich 4477,4 so'mni tashkil etgan, xolos. Faqat bu ko'rsatkich 7 viloyatdagina umum respublika darajasining 50%idan, Buxoro viloyatida esa 90%idan yuqori. Bu boradagi summa Toshkent shaxri hisobiga katta.

Bunga turizm xizmati ko'rsatuvchi firmalar, kommunal xizmat korxonalari mehmonxonalar, aeroportlar, yo'lovchi transporti korxonalari yirik shaxarlarda joylashganligi, qishloq xo'jalik joylarida xizmat ko'rsatish korxonalari yaxshi rivojlanmagani ham sabab.

Xizmatlar importi mutlaqo yangi turdagi xizmatlar ko'rsatuvchi xorijiy firmalar (internet, mobil, telefonlar va x.k) mamlakat bozoriga kirishi tufayli keskin oshdi va 2019 yilda jami importning 8,7% ini tashkil etdi. Jadval ma'lumotlaridan xizmatlar savdosi bo'yicha mamlakatimiz ijobiy natijaga ega ekanligi ko'rinadi. Agar turizm va boshqa xizmat turlari keskin rivojlantirilsa, mamlakat valyuta zaxiralarini yanada ko'paytirish uchun zamin yaratilgan, qo'shimcha ish joylari ochilgan bular edi.

Tahlilga yakun yasab, pullik xizmatlarni rivojlantirish borasida yuqorida qayd etilganidek qator muammolar borligini ta'kidlamoqchimiz.

---

[21] Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus. Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies. USA. 2015.

6-jadval

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar hajmi

	2017 y.	2018 y.	2019 yilga nisbatan foiz hisobida	Respublika umum daraja hisobida %
O'zbekiston Respublikasi	7787,6	12340,2	112,5	100
Qoraqalpog'is-ton Respublikasi	3406,5	5152,1	113,1	41,75
Viloyatlar				
Andijon	6398,9	10715,8	138,3	86,83
Buxoro	7431,1	11417,4	112,1	92,5
Jizzax	3950,5	5677,1	106,8	46
Qashqadaryo	3115,7	5789,5	134,0	46,9
Navoiy	6032,6	8770,7	117,3	71
Namangan	3656,0	6131,6	131,1	49,69
Samarkand	5146,5	7715,7	113,7	62,92
Surxondaryo	3841,9	5907,8	106,3	47,87
Sirdaryo	3058,2	4477,4	107,1	3612
Toshkent	6070,2	8975,2	108,2	72,73
Farg'ona	4777,4	7485,3	113,7	60,65
Xorazm	6509,1	8746,4	104,5	70,85
Toshkent sh.	25720,0	42043,1	108,6	340,7

3-savol bayoni: Pullik xizmatlar sohasini isloh qilish va yanada rivojlantirish mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohotlarning va echilayotgan strategik vazifalarning ajralmas qismidir. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida pullik xizmatlarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni e'tiborga olish zarur. Bu omillar respublikamizning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqadi. Bu masalalarni pullik xizmatlarning ayrim sohalari bo'yicha ko'rib chiqamiz.

Turizmni rivojlantirishdan respublikamiz quyidagi manfaatlarni ko'radi:

-Yangi ish joylari va korxonalar ochiladi (1996 yilda turizm sohasida 30 ming kishi ishlagan). Ayrim hisoblarga ko'ra, turizm respublikada iqtisodiy faol aholining 5%ini ish bilan ta'minlashi mumkin.

-Ko'pgina daromad va tushumlarga ega bo'ladi. 1998 yilda respublika turizm sohasi 271,2 ming xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatib, 325,4 mln. so'm tushumga ega bo'ldi.

-Mahalliy tovarlar uchun yangi bozorlar paydo bo'ladi.

-Mahalliy infratuzilma, komunal ob'ektlar va xizmatlar modernizatsiya kilinadi.

-Yangi kasblar va texnologiyalar o'rganiladi.

-Jamiyat atrof muhit va madaniy meros muammolarini va ularni himoya qilish zaruriyatini chuqurroq his etadi.

-Erdan foydalanishga yangicha yondashuv shakllanadi.

Ushbu manfaatlar e'tiborga olinib, turizm sohasi isloh qilinadi. Bu islohotlar 4 bosqichdan o'tadi.

1-bosqich - 1992 yil. Respublika Prezidenti farmoniga ko'ra, «O'zbekturizm» milliy kompleksi tuzildi.

2-bosqich-1993-1995 yillar. Turizm sohasi infratuzilmasi rivojlantirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 3 iyuldagi «O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infratuzilmasini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bunda muhim rol o'ynaydi. Yangi turistik marshrutlar ochildi.

3-bosqich. 1995-1997 yillarda bu xizmat sohasida faol xususiylashtirish jarayonlari bordi. 1996 yilda «O'zbekturizm»ning 90% turistik ob'ektlari nodavlat sektoriga berildi.

1998 yildan O'zbek turizmi iqtisodiy islohotlarning to'rtinchi bosqichiga kirdi. Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 8 avgustdagi qaroriga ko'ra, «O'zbekturizm» tugatilib O'zbekiston xususiy turistik firmalari asotsiatsiyasi tuzildi. 1999 yilda Republika Prezidentining «Respublikada turizmni 2005 yilga qadar rivojlantirish Davlat dasturi to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi.

Bu dasturga ko'ra, iqtisodiyot tarmog'i sifatida milliy turizm oldida turgan asosiy vazifa O'zbekiston turistik kompleksini yanada rivojlantirish va uning xalqaro turizm tizimiga integratsiyalashuvidir. Buning uchun sohadagi islohotlar strategiyasi va taktikasi o'zgaradi, turistlar oqimi 15% ga oshadi. Turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish, yangi turdagi turistik xizmatlarni o'zlashtirish, yangi avialiniyalarning ochilishi bu soha rivojini ta'minlovchi muhim sharoitlardan biridir.

Ikkinchi bir muhim pulli xizmatlar sohasi kommunal xizmatlardir. Uy-joylar xususiylashtirilgandan so'ng bu sohadagi eng muhim qadam kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari uy-joydan foydalanish korxonalari shirkatlarining tashkil qilinishi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bu farmon asosida «Aholiga kommunal xizmat ko'rsatishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida» qaror qabul kildi. Ushbu qarorga ko'ra, uy-joy mulkdorlari shirkatlari tuzish jadvaliga rioya etish uchun 1991 yilgacha qurilgan ko'p qavatli binolar mahalliy byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga mukammal tamirdan chiqariladigan bo'ldi. Bu shirkatlar tuzilayotganda va ro'yxatdan o'tayotganda tegishli yig'imlarni to'lashdan ozod etildilar. Ular bankda u hisob varaqalariga daromadning qo'shimcha manbalariga ega.

Bu tadbirlar kommunal xizmatlarning sifatini oshirishga, tannarxini pasaytirishga qaratilgan.

Sog'liqni saqlash sohasida pullik xizmatlarni rivojlantirish yangi bosqichiga kirayapti. Pullik tibbiy xizmat doirasining sug'urtasini rivojlantirishni zaruratga aylanmoqda.

17-mavzu. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish

Reja:

1. Iqtisodiy barqarorlikda biznesning o'rni.
2. Mahalliy resurslarni qayta ishlashda kichik va o'rta biznes.
3. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish istiqboli.

Tayanch so'z va iboralar: biznes, tadbirkorlik, tadbirkorlik biznesi, iste'mol biznesi, mehnat, kapital, materiallar, mahalliy resurslar, kapital mablag'lar, xususiy sektor, kichik biznes, o'rta biznes.

1-savol bayoni: Bozor iqtisodiyoti biznesga asoslangan iqtisodiyotdir. Biznes biror faoliyat yuzasidan bo'lgan munosabat, ishbilarmonlarning iqtisodiy munosabatidir. Biznes bilan shug'ullanuvchilarni ishbilarmonlar yoki biznesmenlar deb yuritadilar (inglizcha business - ish, man – odam).[22]

Biznes munosabat sifatida bir qator belgilarga ega: bizneschilar o'z manfaatlariga ega, foyda olishga intiladilar, xatarli ishga qo'l urishga tayyor, tashabbuskor, ishning siru asrorlarini biladilar, o'zaro iqtisodiy aloqalar madaniyatini egallagan bo'ladilar, ularning aloqalari hamma ishtirokchilar uchun naf keltiradi. Biznes – bu ruxsat etilgan, jamiyat a'zolariga naf keltiruvchi faoliyat bilan shug'ullanib, pul, daromad topishni bildiradi. Biznes keng ma'noda qonuniy yo'l bilan daromad topishga qaratilgan faoliyatdir. Biznes o'z sub'ektlariga ega. Ular yakka tartibda biznes bilan shug'ullanuvchilar, tadbirkorlik jamoasi va uyushmasi, iste'molchilar va davlatning iqtisodiy idoralari.

Biznesning eng asosiy unsuri tadbirkorlikdir. Tadbirkorlik biznesi – bu mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rstaish orqali daromad topishni ko'zlovchi faoliyatdir. Shunga ko'ra u ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, tijorat ishi va tijoratda vositachilik qilishni o'z ichiga oladi.

Biznesga bozor orqali talab-ehtiyojni qondiruvchi faoliyat ham kiradi. Iste'molchilarning biznesda ishtirok etishdan manfaati tovar va xizmatlarni sotib olishlaridir. Tadbirkorlik biznesidan farqliroq iste'molchi biznesida hamma fuqarolar qatnashadi, ularning talab-ehtiyojlarini bozor orqali qondirish zaruriyati faol tadbirkorlikni talab qiladi. Biznesga tadbirkorlikdan tashqari pul yoki qimmatbaho buyumlarni bankka qo'yib, daromad topish yoki erni ijaraga berib pul

[22] N. Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA 2016

topishlar ham kiradi, lekin bu faoliyat sohalarida yaratuvchilik yo'q, ya'ni hech bir narsani yaratmay, u boylikdan boylik yaratishdan iborat.

Biznes munosabatining ikkita asosiy talabi bor. Birinchidan, biznes ishtirokchilari mustaqillik, erkinlikka ega bo'lishlari shart. Ammo bu biznes sub'ektlarining mustaqilligi bilan cheklanmaydi, balki har bir sub'ektning boshqa sub'ekt, ya'ni o'zi aloqa qiladigan sub'ekt manfaatlari bilan hisoblashish, uning shakllari va hatti-harakatlarini bilash va to'g'ri tushinishni ham talab qiladi. Sub'ektlarning biznes yuzasidan bo'lgan munosabatlari belgilangan tartib qoidalar doirasida bo'ladi va buni davlat nazorat qiladi. Ikkinchidan, biznes aloqalaridagi sub'ektlar manfaatlarini murosali munosabatda bo'lish talab qilinadi. Murosa ish yuzasidan bir-biri bilan aloqa qiluvchilar o'zaro majburiyatlarini to'liq bajarishlarini, hatti-harakatlari har ikki tomonga zarar keltirmasligi ularning erkinligini buzilmasligini taqoza etadi.

Biznesning eng asosiy jihati – bu tadbirkorlikdir.

Tovarlar va tovarlashgan xizmatlarni yaratish bozor iqtisodiyoti uchun birlamchi bo'lganidan uning asosini tadbirkorlik tashkil etadi. Tadbirkorlik iqtisodiyotning harakatga keltiruvchi kuchi hisoblanadi.

Tadbirkorlik – mulk sub'ektlarining moddiy va pul mablag'larini amalda xo'jalik aylanmasiga tushirib, daromad topishga mo'ljallangan iqtisodiy faoliyatidir. Tadbirkorlik umuman pul topish emas balki yaratuvchilik faoliyati orqali daromad topishni bildiradi. Pul topish yollanib ishlash, erni ijaraga berib renta olish, pulni bankka qo'yib foiz olish orqali ham bo'ladi. Tadbirkorlik mavhum narsa emas, balki aniq maqsadga qaratilgan faoliyat bo'lib aniq shaxslar hatti-harakatida namoyon bo'ladi. Tadbirkorlik ishi bilan shug'ullanuvchi shaxslar tadbirkor yoki ishbilarmon deb yuritiladi.

Tadbirkorlikning muhim belgilari va amal qilish tamoyillari quyidagicha:

1. Mulkiy munosabatlarni ishtirokchisi bo'lish, ishlab chiqarish omillari va yaratilgan tovarlarga egalik qilish.
2. Iqtisodiy erkinlik, xo'jalik faoliyati turini tanlash, uni resurslar bilan ta'minlash, oldi-sotdi ishlarini yuritish, ishlab chiqarishni boshqarishda erkinlik.
3. Iqtisodiy hatti-harakatlar uchun majburiyatni o'z zimmasiga olish; ish natijasiga javob berish, tavakkal qilib ish yurita olish, iqtisodiy xatarli ishga qo'l urish.
4. Foyda olishga intilish; foydaga erishish chora-tadbirlarini ko'rish, olingan foydani o'z bilganicha ishlatish.
5. Tijorat siriga ega bo'lish; biznesga oid va o'zgarishlarga oshkor etilmaydigan ma'lumotlarni sir tutish.
6. Raqobat kurashida qatnashish; bozorda amal qiluvchi qoidalarga rioya etgan holda halol raqobatda qatnashib, uning g'irrom, yovvoyi usullaridan voz kechish.
7. Halollik bilan ish yuritish, qalloblik, g'irromlik va aldamchilikka moyil bo'lmaslik. Imijga ega bo'lish, boshqalarga ishonish va boshqalarning

ishonchini qozonib sha’n-e’tibor orttirish, firma nomini e’zozlab, unga putur etkazmaslik, firmani obro’sizlantirmaslik.

Tadbirkorlikning ijodiy faoliyatga aylanishini ta’minlaydigan sabablari ham bor: iqtisodiy kelajak va taqdirning tadbirkorning o’z qo’lida bo’lishi, ishbilarmonlik faoliyati shaxsiy hayotning ajralmas qismiga aylanishi, o’z ishi uslubini faol ishbilarmonlik tarziga singdirish, qisqa vaqt ichida farovonligini o’z mehnati bilan ta’minlay olish, ishbilarmonligi bilan el nazariga tushish, obro’ e’tiborga ega bo’lish.

Tadbirkorlikni shakllantirish uchun iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa muayyan sharoitlar yaratilishi kerak. Iqtisodiy sharoitlarga quyidagilar kiradi: tovarga bo’lgan taklif va talab; xaridor sotib olishi uchun tovar turlarining mavjudligi; xaridor sotib olishi uchun kerak bo’lgan pul hajmining mavjudligi; ishchilarning maoshiga, ya’ni sotib olish imkoniyatiga ta’sir ko’rsatuvchi ishchi joylarining, ishchi kuchlarining ortiqchaligi yoki etishmovchiligi.

Pul resurslarining mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari, kiritilgan kapitaldan olinayotgan daromad miqdori va o’z ishbilarmonlik operatsiyalarini moliyalashtirish uchun olinmoqchi bo’lgan kredit miqdori iqtisodiy sharoitga ta’sir etadi.

Bu ishlarning barchasi bilan bozor infrastrukturasini tashkil qilgan turli xildagi tashkilotlar shug’ullanadi. Tadbirkorlar shunday tashkilotlar bilan aloqa o’rnatib, tijorat operatsiyalarini amalga oshiradi. Moliya xizmatini ko’rsatuvchi banklar, xom ashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg’i, energiya, mashina va uskunalar, instrumentlar bilan ta’minlovchilar; tovarni xaridorga etkazuvchi ulgurji va chakana savdogarlar; kasbiy, yuridik buxgalteriya xizmatlarini, vositachilik xizmatini ko’rsatuvchi firma va korxonalar; ishchilar kuchini yollashda yordam beruvchi ishga joylash agentliklari; ishchi va mutaxassis xizmatchilarni tayyorlayotgan o’quv yurtlari; reklama, transport, sug’urta agentliklari; aloqa va axborotni uzatish vositalari ushbu tashkilotlar tizimini tashkil etadi.

Tadbirkorlikning shakllanishi iqtisodiy va ijtimoiy sharoit bilan chambarchas bog’liq. Tadbirkorlik shakllanishining iqtisodiy sharoitiga ijtimoiy sharoit yaqin turadi. Ijtimoiy sharoit, avvalo, xaridorlarning didi va modaga javob bera oladigan tovarlarni sotib olishga intilishi bilan belgilanadi. Turli bosqichlarda ushbu talab o’zgarib turishi mumkin. Bunga ijtimoiy-madaniy muhitga bog’liq bo’lgan ahloqiy va diniy me’yorlar jiddiy ta’sir ko’rsatadi. Ushbu me’yorlar xaridorlarning turmush tarziga va u orqali tovarlarga bo’lgan talabiga bevosita ta’sir etadi. Ijtimoiy sharoit shaxsning ishga bo’lgan munosabatiga o’z ta’sirini o’tkazadi, bu esa, o’z navbatida, biznes taklif etayotgan maoshning miqdoriga, mehnat sharoitiga bo’lgan munosabatga ta’sir etadi.



2-chizma. Tadbirkorlik faoliyati turlari

Tadbirkorlik faoliyatining shakllanishida ishbilarmon xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish masalalarini hal etish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun tadbirkorlik faoliyatini olib borishning zamonaviy uslublarini o'rganishni tashkil etish, xodimlarni o'qitish va qayta o'qitish, ularni rivojlangan mamlakatlarga malaka oshirish uchun yuborish, ishbilarmonlarni o'qitish uchun o'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarini tashkil etish, tadbirkorlik sektori uchun xodimlarni tanlash bo'yicha maslahat markazlarini ochish kerak.

Har bir tadbirkorlik faoliyati tegishli huquqiy muhitda kechadi. Shuning uchun kerakli huquqiy sharoit yaratish katta ahamiyatga ega. Bu narsa birinchi navbatda tadbirkorlik faoliyatini tartibga keltiruvchi farmonlar va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratib beruvchi qonunlarning mavjudligi, ya'ni korxonalarni ro'yxatdan o'tish jarayonining qisqa va oddiy bo'lishi; tadbirkorlikni davlat byurokratizmidan himoya qilish; soliq qonunchiligini

takomillashtirish; O’zbekiston va chet el ishbilarmonlarining hamkorlik faoliyatini rivojlantirishdan iboratdir.

Shunday qilib, tadbirkorlik deganda uning o’tmishdagi qo’pol yovvoyi shakllari emas, balki zamonaviy turlari, ya’ni madaniylashgan shakllari tushiniladi. Hozirgi zamon tadbirkori eng avval bozorni talabgir tovarga to’ydira oladigan tovar ishlab chiqaruvchilardir. U yangilikni joriy eta oladigan, ishlab chiqarish omillaridan oqilona foydalanib, iqtisodiy o’sishni ta’minlaydigan, o’zining va o’z jamiyatining boyligini oshira oladigan, kishilarning farovonligiga hissa qo’sha oladigan bo’lishi zarur.

Tadbirkorlik faoliyati turlari xilma-xildir. Faoliyat maqsadi, turi va yo’nalishlariga qarab tadbirkorlik faoliyatining ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va konsalting turlarini ajratish mumkin.

Qayd etilgan ushbu tadbirkorlik faoliyatining har bir turi kichik turlarga bo’linadi. Mavjud tadbirkorlik faoliyati turlarini chizma shaklida quyidagicha ifoda etish mumkin .

2-savol bayoni: O’zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi.

Bu maqsadni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlar o’tkazildi, uning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni kafolatlovchi huquqiy-me’yoriy hujjatlar, tadbirkorlarga ko’maklashuvchi nodavlat tashkilotlar, korxonalar shular jumlasiga kiradi. O’zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes korxonalari majmuini tashkil etish muvaffaqiyatli bormoqda.

Kichik biznes faoliyati bilan shug’ullanuvchi korxonalar davlatga bog’liq bo’lmagan holda, ya’ni katta kapital mablag’larsiz o’zlari ish joylarini joriy etishlari, hozirgi davrda bizda vaqtinchalik mavjud bo’lgan tovarlar tanqisligini kamaytirishlari va hattoki, bu tanqislikni butunlay yo’qotishlari mumkin. Hozirgi jamiyatimizda kichik korxonalar faoliyatini ayrim kishilarning ehtiyojlarini qondirish sari yo’naltirish zarur. Bu narsa maishiy xizmat ko’rsatish hamda xalq iste’moli tovarlari ishlab chiqarish sohalarida yaqqol ko’rinmoqda. Kichik korxonalar texnologiya yangiliklarini joriy etishda ham g’oyat katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda yangi ish o’rinlarini yaratish, axolini, birinchi navbatda, yoshlarni ishga joylashtirish muammosiga g’oyat katta e’tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda kompleks chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish xisobidan qariyb 1 millionta yangi ish o’rni tashkil etildi. Bu ish o’rinlarining 62 foizga yaqini qishloq joylarda yaratildi. Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga 485 ming kishi, kasanachilikning barcha shakllarini kengaytirish xisobidan esa 218 ming kishi ish bilan ta’minlandi. Yangi ish o’rinlari tashkil etish va mamlakatimiz axolisi bandligini ta’minlash 2018 yil va undan keyingi yillarga mo’ljallangan maqsadli vazifalarni xal qilishning eng muhim ustuvor yo’nalishi bo’lib qoladi.

Band bo'lmagan aholini ish bilan ta'minlashda kasanachilikning turli shakllarini, birinchi navbatda, kasanachilar va korxonalar o'rtasidagi kooperatsiyani mehnat shartnomalari asosida kengaytirish, oilaviy biznesni rivojlantirish katta rezerv hisoblanadi. Mazkur sohalar hisobidan 280 mingdan ortiq kishini ishga jalb qilish ko'zda tutilgan.

Mamlakatimizda axoli daromadlarining oshib borishi bilan uning tarkibi o'zgarib, tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad barqaror o'sib borayotgani alohida e'tibor berilmoqda.

Yalpi ichki mahsulotida kichik biznesning ulushi 54,6 foizdan ortib borayotganiga qaramasdan, bu soha real iqtisodiyotda, avvalambor sanoatda etakchi o'rinni egallay olmayotganini ta'kidlash zarur.

Hozirgi kunda **"Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun qonun qabul qilinib**, ushbu qonunda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning bir qator yo'nalishlarini belgilab berildi .

3 - chizma. Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari

3-savol bayoni: Respublikamizning iqtisodiy taraqqiyoti, iqtisodiy mustaqilligi, xalqining farovon turmush darajasi, mehnat resusrlarining ish bilan bandlik darajasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivoji bilan bog'liqdir. Bu holat esa korxonalarning iqtisodiy erkinligini rag'batlantirish darajasining rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Istiqbolda iqtisodiyot tarmoqlarida ham o'zgarishlar yuzaga keladi. Bu holat ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi asosida ro'y beradi.

Umumiy sanoat mahsulotini ishlab chiqarishda istiqbolda o'zgarishlar sanoat sohasiga talab natijasida sodir bo'ladi, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik korxonalarni rivojlanishi hisobiga bu soha yanada yuksaladi. Savdo aylanmasining to'liq muvofiqlashuvi natijasida bu sohada ko'rsatkich ulushi pasayishi sodir bo'ladi.

Hududlarning mashinasozlik va metalga ishlov berish, engil sanoat, ayniqsa, trikotaj, tikuvchilik buyumlari, tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sohalarida kichik biznesning o'rni va ulushi etarli darajada emas. Barcha sohada ishlab chiqarish faolligi tenglashsagina, ijobiy natijalarga erishiladi.

Respublikamizda kichik korxonalar tomonidan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishning o'sishini yaratilgan imkoniyatlardan faollik bilan foydalanish evaziga ta'minlash mumkin.

Hisoblarga ko'ra, 2018 yilga borib, respublika bo'yicha kichik biznesning ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushini 61,1 foizga etkazish, kichik tadbirkorlik korxonalarining yillik mahsulot ishlab chiqarishining o'sishi 2,5 foizdan kam bo'lmagan holatdagina amalga oshadi (7-jadval).

Yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalangan hududlarda yalpi hududiy mahsulotning yuqori sur'atlar bilan o'sishi ta'minlanadi. Jumladan, kichik korxonalarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish evaziga istiqbolda ko'zlangan natijalarga erishish ta'minlanadi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo'lishiga bog'liqdir. (6)

Shunday qilib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bilan mamlakatda o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish vazifasini bevosita hal qilish erishiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik aholi bandligini ta'minlaydigan va uning asosiy daromad manbai bo'lgan muhim sohaga aylanadi.

Iqtisodiyotimizning ustivor yo'nalishlardan biri – aholi bandligini oshirish, ish kuchidan maqsadli foydalanish, foydali mehnatga layoqatli aholining ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilmoqda.

So'nggi yillarda kichik biznes sub'ektlarining mamlakatimizda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo'lib bormoqda.

Mamlakat aholisining ish bilan bandligi darajasini oshirish va mehnat bozorini tartibga solish sohasidagi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda:

- iqtisodiyotni rivojlantirish negizida yangi ish o'rinlari yaratilmoqda;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng imkoniyatlar ochilib, bu faoliyat qizg'in qo'llab-quvvatlanmoqda;
- aholining mehnat faolligi, oilaviy ijara.dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish negizada aholining o'zini o'zi ish bilan band qilish darajasi oshirilmoqda;

- aholining ish bilan bandligi va mehnat bozori takomillashtirilmoqda. Buning uchun zarar ko'rib ishlaydigan korxonalarni tugatish yoki ixtisosini o'zgartirish ishlari olib borilmoqda.

18-mavzu: O'zbekiston respublikasi tashqi savdo aloqalari

Reja:

1. Tashqi iqtisodiy aloqalar strategiyasi va tashqi savdo oboroti.
2. Tashqi iqtisodiy aloqalar hamda eksport va import tarkibi.

Tayanch so'z va iboralar: tashqi savdo aloqalari, tashqi savdo oboroti, iqtisodiy hamkorlik, tashqi iqtisodiy aloqalar, ekport-import operatsiyalari, xorijiy investitsiyalar, tashqi iqtisodiy aloqalar, eksport, import, xorijiy investitsiyalar, dotatsiya, xalqaro tashkilotlar

1-savol bayoni: O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi ichki strategiyasi qo'yidagilarni o'z ichiga oladi: eksport-import operatsiyalarini markazlashtirmaslik; davlat ehtiyojlari uchun zarur tovarlariing eksporti va importi ustidan nazoratni kuchaytirish; davlat uchun strategik muhim bo'lmagan tovarlar eksportini osonlashtirish; eksportning xomashyoviy yo'nalishini bartaraf etish, xorijiy investitsiyalar oqimining kengayishiga ko'maklashish.

Mustaqil Respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi yangi siyosati jahondagi juda ko'p mamlakatlar bilan har tomonlama aloqalarni kengaytirishda o'z ifodasini topmokda.

O'zbekiston va Evropa ittifoqi o'rtasida to'qimachilik mahsulotlari savdosi bo'yicha bitim tuzilgan. O'zbekistonda Evropa Ittifoqining «Ta'sis» texnikaviy ko'maklashish dasturlari muvaffaqiyatli rivojlanmoqda.

O'zbekiston eksportining asosiy mahsulotlari: paxta tolasi (paxta tolasi eksportn bo'yicha jahonda AQShdan keyin 2-o'rinni egallaydi), mashinalar, ularga jihozlar va extiyot qismlar va qora metallar, mineral xomashyo, o'g'it, pilla, paxta chiqindilari, o'simlik moyi, ip gazlama.

O'zbekistonda 30 dan ortiq, mahsulot turi chetdan keltiriladi. Bug'doy, go'sht va sut mahsulotlar, sut va sut mahsulotlari, shakar, moyli o'simliklar urug'lari va mevalar, choy, kofe, shirinliklar, kartoshka, farmatsevtika mahsulotlari, kiyim-kechak, trikotaj, charm, poyabzal, avtomobillar (engil, yuk va maxsus ishlarga muljallangan), qora va rangli metallar hamda ulardan yasalgan mahsulotlar, teleradioapparatura, mashinalar, uskuna-jihozlar importning asosiy bandlarini tashkil etadi. Mamlakat chetdan oladigan jami tovarlariing 18,2'% dan ko'proq oziq-ovqat mahsulotlari tashkil etdi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlarinipg qaror topishi darajasiga qarab respublikaning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlari mamlakatning

o’zida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hisobiga qondirishnipg uzoq muddatli rejasi belgilangan.

O’zbekiston hukumati ko’rgan chora-tadbirlar natijasida respublikada g’alla etishtirish keskin ko’paydi, shu hisobdan g’alla importi 2 marta, guruch importi 10 marta, umuman oziq-ovqat mahsulotlari importi jiddiy qisqardi. Aholi jon boshiga eksportning miqdori jihatidan O’zbekiston MDHga oldingi o’rinlarda. O’zbekistonning tashqi savdo balansi aktiv saldoga ega.

2-savol bayoni: Respublika uchun xorijiy sarmoyadorlarni iqtisodiyotni barqarorlashtirish va yanada rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishga jalb etish, chet ellik tadbirkorlar va xalqaro tashkilotlar bilan ishlab chiqarish sohasida foyda ko’rib ishlashni ta’minlaydigan loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiya fondini tashkil etish muhim axamiyatga ega. Ushbu maqsadlar uchun investitsiyalarning turli manbalari, ularning turli shakllari va usullari, uzoq va qisqa muddatli kreditlar, bevosita qarzlar, dotatsiyalar, ishlab chiqarish-tijoratchilik faoliyatini rivojlantirishda hissador bo’lib qatnashish va boshqalardan foydalanilmoqda. Xorijiy sarmoyadorlar iqtisodda tub tarkibiy o’zgarishlar siyosatini amalga oshirishda, texnika va texnologiyani yangilash jarayonlarini jadallashtirish, birinchi navbatda ishlov beruvchi sanoatni rivojlantirishda yordam bermoqda. Xorijiy firmalar, xalqaro tashkilotlar respublikaning kimyo, gaz, neft sanoati, qishloq xo’jaligini rivojlantirish bo’yicha yirik investitsiya loyihalarida ishtirok etmoqda.

AQSh, Germaniya, Frantsiya, Turkiya, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki katta hajmda eng yangi mashina va uskunalar hamda texnologiyalar importini, qishloq xo’jaligi mahsulotlarini markazlashtirilgan holda xarid qilishni moliyalash, Ko’kdumaloq gaz-neft konini o’zlashtirish loyihalarini kreditlash bo’yicha bitimlarni imzoladi. Ayniqsa Buxoro neftni qayta ishlash zavodini qurish, Qashqadaryo va Namangan viloyatlaridagi neft konlarini o’zlashtirish bo’yicha Frantsiya bilan munosabatlar faol rivojlanmoqda.

Evropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan Muruntov oltin konlaridan oltin, kumush va boshqa nodir metallar olishga èxtiñîñëàøgàí «Zarafshon-Nyumont» O’zbekiston- AQSh qo’shma korxonasi qurilishini moliyalash va boshqa moliya manbalarini muvofiqlashtirish bo’yicha bitimlar imzolandi (loyiha qiymati 150 mld. dollar). Bu korxonaning O’zbekiston tomonidan muassislari O’zbekiston Geologiya davlat qo’shma va Navoiy kon-metallurgiya kombinati, AQSh tomonidan, «Nyumont Mayning korporeyshn» kompaniyasi, loyixani amalga oshirishda G’arbdagi yirik banklar ham ishtirok etmokda.

Bugungi globallashuv jarayonlari jadallashayotgan sharoitda mamlakat iqtisodiyotining yuqori sur’atlarda o’zgarishiga ta’sir ko’rsatadigan sohalardan yana biri - bu xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, xalqaro moliya bozori institutlari bilan aloqalarni kengaytirishni talab etadi.

Etakchi xalqaro va chet el moliyaviy institutlari bilan aloqalarni kengaytirish orqali:

xalqaro moliyaviy institutlar pul mablag'larini jalb qilish orqali moliyalashtiriladigan investitsiyaviy loyihalarning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash, shu jumladan:

2016-2020 yillar davomida 27 ta loyihani amalga oshirish uchun Jahon banki kreditlarini jalb etish;

2017-2019 yillar davomida 20 ta loyihani amalga oshirish uchun Osiyo taraqqiyot banki kreditlarini jalb qilish.

Islom taraqqiyot bankining 1 milliard dollardan kam bo'lmagan miqdordagi kreditlarini jalb qilishni ko'zda tutadigan investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish masalasini ishlab chiqish orqali 2017-2019 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi va Islom taraqqiyot banki o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish.

Harakatlar strategiyasidan o'rin olgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun quyidagi sarf-xarajatlarning qilinishi rejalashtirilgan:

2017 – 2021 yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSh dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 barobar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizga, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizga oshadi.

Jami xarajatlar uchun 37 687,8 milliard so'm va 8 349,3 million AQSh dollari ajratiladi. Shundan:

№	Moliyalashtirish manbalari	Milliy valyutada, mlrd. so'm	AQSh dollarida, ming dollar
1.	Davlat byudjeti va Davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari	5 263,1	1 625,8
2.	Ijrochilar va xayriya tashkilotlari mablag'lari	15 423,0	311 510,0
3.	Tijorat banklari kreditlari	16 941,2	-
4.	Xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari mablag'lari va beg'araz yordam	60,5	8 036 157,8

Ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy, infratuzilmaviy va boshqa loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan chet el hukumat tashkilotlarining (Xitoy eksport-import banki, Koreya eksport-import banki, EDCF Fondi, Yapon xalqaro hamkorlik agentligi (JICA), Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOISA), Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ), Shveytsariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi (ShTHA), Frantsiya taraqqiyot agentligi (FTA), Evropa hamkorlik komissiyalari va hokazo) imtiyozli kredit hamda grant mablag'larini jalb qilish imkonining yaratilishi Harakatlar strategiyasida keltirib o'tilgan.